 Maqsad 9: Barqaror infratuzilmani qurish, keng qamrovli va barqaror sanoatlashtirish va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam berish.	 Maqsad 10: Mamlakatlar ichida va ular o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish.
Bizning hissa • Yangi istiqbolli uran konlarini ishga tushirish • Mavjud uran konlarini modernizatsiyalash va rekonstruksiyalash • Innovatsiyalar va tadqiqotlarni rivojlantirish uchun oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik	Bizning hissa • Faoliyat yuritayotgan hududlarda aholining turmush darajasini oshirish va mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash
2024-yildagi asosiy tadbirlar • Uchquduq, Nurobod va Zafarobod kon-ranjom boshqarmasidagi ishlab chiqarish ob'yektlarini modernizatsiyalash va rekonstruksiyalash ishlari olib borildi. • Tadqiqotlar va innovatsiyalarga sarmoya 2,14 million AQSh dollariga yetdi. • O'zbekistonda qazib olish metallurgiyasi sohasidagi Innovatsiyalar markazi loyihasini ishlab chiqish boshlandi.	2024-yildagi asosiy tadbirlar • 2024-yilda "Navoiyuran" DK 44,16 million AQSh dollarini xayriya va homiylik faoliyatiga ajratdi. • Ushbu mablag'lar doirasida: 16- va 28-sonli maktablarda suniy qoplamali va soyabonli zamonaviy futbol maydonchalarini o'rnatish, shuningdek Zafarobod qishlog'ida yangi stadion qurishni o'z ichiga olgan ta'lim sohasidagi loyihalarga 770 ming dollar sarmoya kiritildi. • Mintaqaning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga 70 ming dollar mablag' ajratildi. • Barqaror va inklyuziv rivojlanishni qo'llab-quvvatlash choralari doirasida Zafarobod shahrida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan tadbir o'tkazildi.

 Maqsad 11: Shaharlar va aholi punktlarining ochiqligi, xavfsizligi, bardoshliligi va ekologik jihatdan barqaror bo‘lishini ta’minlash.	 Maqsad 12: Iste’mol va ishlab chiqarishning ratsional modellariga o‘tishni ta’minlash.
Bizning hissa • Korxona O‘zbekiston shahar va aholi punktlarini ko‘kalamzorlashtirishni kengaytirishga qaratilgan “Yashil Makon” dasturida faol ishtirok etmoqda • Biz o‘z faoliyat yuritayotgan shahar va tumanlarning obodonligini moddiy-texnik yordam ko‘rsatish orqali yaxshilaymiz	Bizning hissa • “Navoiyuran” DK resurslar samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish yo‘qotishlarini kamaytirishga qaratilgan yondashuvlarni joriy etmoqda. • Korxona resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradigan barqarorroq texnologiyalar va jarayonlarga bosqichma-bosqich o‘tmoqda.
2024-yildagi asosiy tadbirlar • Hisobot yilida korxona tomonidan ishlab chiqarish maydonchalari va jamoat joylarini ko‘kalamzorlashtirish hisobiga 28 780 ta daraxt ekildi. • Suvdan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni oshirish maqsadida shahardagi yashil maydonlarni tomchiga sug‘orish loyihasini amalga oshirish boshlandi. • Zafarobod qishlog‘idagi turar-joy binolarini obodonlashtirish bo‘yicha moddiy-texnik yordam ko‘rsatildi.	2024-yildagi asosiy tadbirlar • “Navoiyuran” DK elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun quyosh energiyasidan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tishni amalga oshirmoqda, bu qazib olinadigan yoqilg'iga bog'liqlikni kamaytiradi. • Avtoparkni yangilash doirasida Korxona elektr mobililarini joriy qilmoqda – hozirgi kunda 15 donasi foydalanishda bo'lib, bu uglerod izini kamaytirishga yordam beradi. • Yiliga 195,8 GKal issiq suv ishlab chiqarishni ta'minlovchi 120 ta quyosh qurilmasi ishga tushirildi, bu 8,2 ming AQSh dollariga teng tejamkorlikka erishish imkonini beradi.

 Maqsad 13: Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish uchun shoshilinch choralar ko'rish.	 Maqsad 15: Yer usti eko tizimlarini muhofaza qilish va tiklash hamda ulardan barqaror foydalanishni rag'batlantirish, o'rmonlarni barqaror boshqarish, cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiyasini to'xtatish va qaytarish hamda biologik xilma-xillikning yo'qolishini to'xtatish.
Bizning hissa • “Navoiyuran” DK iqlim risklarini boshqarish va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish bo'yicha choralarni ko'rmoqda.	Bizning hissa • Biz konlarni rekul'tivatsiyalash bo'yicha davlar dasturini amalga oshirish ustida ishlamoqdamiz • Biz faoliyat yuritayotgan hududlarni ko'kalamzorlashtirishni kengaytirishga qaratilgan “Yashil Makon” dasturida faol ishtirok etmoqdamiz
2024-yildagi asosiy tadbirlar • 2024 yilda iqlim strategiyasini ishlab chiqish boshlangan bo'lib, uning tasdiqlanishi 2025 yilda kutilmoqda. Ushbu hujjat iqlim o'zgarishlariga moslashish va uglerod izini kamaytirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi. • Fizik (haddan tashqari ob-havo hodisalari, qurg'oqchilik) va o'tish davri risklari (reglament o'zgarishlari, bozor talablari) kompleks baholandi. • Issiqxona gazlari chiqindilari bo'yicha muntazam hisobotlik yuritilmoqda, bu ishlab chiqarish faoliyatidan kelib chiqadigan to'g'ridan-to'g'ri chiqindilar va energiya iste'moli bilan bog'liq bilvosita chiqindilarni qamrab oladi.	2024-yildagi asosiy tadbirlar • 468 gektar yer rekul'tivatsiya qilindi • Suv resurslarini tejash maqsadida Korxona suv tanqisligi bo'lgan hududlarda suv olishdan voz kechdi • 2024-yilda hududlarni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish maqsadida 28 780 ta daraxt ekildi • Shahar muhitida oqilona suvdan foydalanish doirasida yashil maydonlarni tomchiga sug'orish loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan

Assotsiatsiyalarda ishtirok va xalqaro tamoyillarga rioya qilish

GRI 2-28

“Navoiyuran” DK barqaror rivojlanish va texnologik salohiyatni oshirishga qaratilgan global soha tashabbuslarida faol ishtirok etmoqda. Jahon yadro assotsiatsiyasi (World Nuclear Association) a’zosi sifatida korxona xalqaro miqyosdagi muhokamalarda qatnashadi, eng yaxshi amaliyotlarni almashishga hissa qo’shadi va yadro sohasida innovatsion yondashuvlarning shakllanishiga ko’maklashadi.

Barqaror rivojlanish strategiyamiz doirasida biz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global shartnomasi tashabbuslari, Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE) standartlari va boshqa tegishli me’yoriy hujjatlarni o’z ichiga olgan xalqaro e’tirof etilgan tamoyillarni joriy etishga sodiqmiz. MAGATE bilan hamkorlik tizimli asosda amalga oshiriladi: Agentlik mutaxassislarning yillik tashriflari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-dekabrda 379-sonli qarori va 2008-yil 11-noyabrda “Ishlatilgan yadro yoqilg‘isi va radioaktiv chiqindilar bilan ishlash xavfsizligi to‘g‘risidagi” Birlashgan konvensiyani ratifikatsiya qiluvchi O‘RQ-186-sonli Qonuni asosida olib boriladi.

Strategik xalqaro hamkorlik

“Navoiyuran” DK uran qazib olish samaradorligini oshirish, innovatsion yechimlarni joriy qilish va sohaning barqaror o’sishini ta’minlash maqsadida yetakchi xalqaro hamkorlar bilan strategik hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Qo’shma tashabbuslar xalqaro ekologik, texnologik va ijtimoiy standartlarga rioya etishga yo’naltirilgan.

Biz sanoatning asosiy xalqaro ishtirokchilari bilan strategik hamkorlikni rivojlantiramiz, jumladan:

- Orano Mining (Fransiya)
- JOGMEC (Yaponiya)
- ITOCHU Corporation (Yaponiya)
- CNNC (Xitoy Xalq Respublikasi)

ITOCHU (Yaponiya) korporatsiyasi bilan hamkorlik

ITOCHU bilan hamkorlik doirasida yangi uran konlarini qidirish va o’zlashtirishni rivojlantirish, qazib olish hajmlarini oshirish hamda raqamli texnologiyalar va ilg‘or xalqaro amaliyotlarni joriy qilish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmuasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari:

- Istiqbolli uran uchastkalarini tadqiq qilish va o‘zlashtirish;
- Texnologik jarayonning muhim komponenti bo‘lgan -sulfat kislotasini ishlab chiqarish uchun yangi quvvatlarni yaratish;
- Geologik qidiruv va qazib olish loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lajak qo‘shma korxonaning tashkiliy-huquqiy tuzilmasini ishlab chiqish.

JOGMEC (Yaponiya) korporatsiyasi bilan hamkorlik

2024-yilda JOGMEC bilan Navoiy viloyatida joylashgan Mesheti, Jasaga va Akberdi uchastkalarida geologik-qidiruv ishlarini o‘tkazish uchun texnologik quduqlar qurilishiga doir shartnoma imzolandi. Qo‘shimcha ravishda, nodir metallarni o‘rganish va o‘zlashtirish texnologiyalari bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish muzokaralari olib borilmoqda; bu resurs bazasini diversifikatsiya qilish va yuqori texnologik yo‘nalishlarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

CNNC (Xitoy Xalq Respublikasi) korporatsiyasi bilan hamkorlik

O‘zbekiston Respublikasi Kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Xitoyning davlat korporatsiyasi China National Nuclear Corporation (CNNC) o‘rtasida quyidagilarni nazarda tutuvchi kelishuv imzolandi:

- Uranni qidirish va qazib olish sohasida ilmiy-texnik axborot almashinuvi;
- Gidrotermal va qora slanets konlarini o‘zlashtirish bo‘yicha qo‘shma dasturlarni loyihalash va amalga oshirish;
- Barqaror rivojlanish tamoyillariga, ekologik standartlarga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mezonlariga rioya etgan holda qo‘shma qazib olish operatsiyalarini yuritish.

Mazkur tashkilotlar bilan hamkorlik samarali bilim almashish, ilg‘or yechimlarni joriy etish va barqaror ishlab chiqarish amaliyotini qo‘llash uchun sharoit yaratadi.

Orano Mining (Fransiya) korporatsiyasi bilan hamkorlik

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi PQ-319-sonli Qaroriga muvofiq, **Orano Mining SA** ekspertlari bilan hamkorlikda korxona faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnik va me‘yoriy-huquqiy jihatlarini bo‘yicha kompleks tadqiqot o‘tkazildi. Ishlar natijasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilovchi uch tomonlama kelishuv imzolandi:

- Operatsion samaradorlikni oshirish maqsadida strategik hamkorlikni kengaytirish;
- Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va radiatsion xavfsizlik tizimini takomillashtirish;
- Zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish.

Shuningdek, kelishuvda avtomatlashtirishni joriy etish, texnologik quduqlarni qurish, burg‘ulash va qurish ishlari samaradorligini oshirish, energiya ta‘minoti va logistika barqarorligini, shuningdek, texnologik reagentlar, jumladan, sulfat kislotasi bilan barqaror yetkazib berilishini ta‘minlash hisobiga xarajatlarni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Orano Mining S.A. kompaniyasi bilan tuzilgan kelishuv qoidalarini amaliyotga joriy etish maqsadida geologlar, gidrogeologlar, muhandis-texnik mutaxassislar hamda texnologlardan iborat maxsus ishchi guruh shakllantirildi. Guruhning asosiy vazifalari – tasdiqlangan texnik hamkorlik yo‘l xaritasi asosida ekspert-analitik hisobotlarni tayyorlash va batafsil tadbirlar rejasini ishlab chiqishdan iborat. Ish natijasida ishlab chiqarish obyektlarining holatini baholash bo‘yicha hisobot, shuningdek, uran konlarini texnik auditdan o‘tkazish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi tayyorlandi. Ishchi yig‘ilishlar davomida 2024–2025 yillarda amalga oshiriladigan loyihalar dastlabki bajarilish dasturi kelishildi va tadbirlarning barcha bosqichlarida bajarilishini nazorat qilishga vakolatli mas‘ul rahbarlar belgilandi.

“Navoiyuran” davlat korxonasi hamda **Orano Mining S.A.** o‘rtasidagi strategik hamkorlik doirasida **“Nurlikum Mining” MChJ** qo‘shma korxonasining ekologik jihatdan barqaror va ijtimoiy mas‘uliyatli rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan asosiy tadbirlar majmui amalga oshirilmoqda.

- **Uranni sanoat miqyosida qazib olishning boshlanishi (2025-yil):** Navoiy viloyati, Tomdi tumani hududidagi Janubiy Jengeldi konida *yer osti yuvish* (ISL) texnologiyasidan foydalanilgan holda uran qazib olishni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Mazkur usul xalqaro ekspertlar tomonidan eng kam ekologik yuklama beruvchi qazib olish usuli sifatida e‘tirof etilgan. Loyiha Yaponiyaning **ITOCHU** korporatsiyasi ishtirokida amalga oshirilmoqda.
- **Mineral xom-ashyo bazasini kengaytirish:** Jengeldi konining shimoliy qismida resurslarni aniqlashtirish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan geologik-qidiruv ishlari rejalashtirilgan. Ushbu ishlar ekologik va radiatsion xavfsizlikning xalqaro standartlariga to‘liq muvofiq holda amalga oshiriladi.
- **Qo‘shma geologik-qidiruv loyihalari:** Buxoro–Xiva va Ustyurt mintaqalaridagi istiqbolli uran uchastkalarida geologik-qidiruv dasturlarini amalga oshirishga tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Orano Mining kompaniyasi bilan hamkorlikni chuqurlashtirish O‘zbekistonda uran qazib olish sanoatining barqaror rivojlanishiga hamda uning ilmiy-texnik salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.
- **Analitik infratuzilmani modernizatsiya qilish:** “Uran va kamyob metallar geologiyasi” ilmiy-ishlab chiqarish markazi laboratoriyasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar laboratoriya tahlillarining aniqligi, tezkorligi va ishonchliligini oshirishga, geologik-qidiruv jarayonlarini jadallashtirishga hamda zamonaviy ekologik standartlarga muvofiqligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

- **Innovatsiyalar markazini loyihalash:** Konchilik metallurgiyasi sohasida Innovatsiyalar markazi loyihasini ishlab chiqish ishlari boshlangan. Markazning asosiy yo‘nalishi amaliy tadqiqotlar, uran rudalarini qayta ishlashning ekologik xavfsiz va resurslarni tejovchi texnologiyalarini ishlab chiqish hamda joriy etishga qaratiladi.
- **Xalqaro hamkorlikni kengaytirish:** Global hamkorlik strategiyasi doirasida Mongoliyada uran qazib olish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilmoqda. E’tibor markazida - ekologik barqarorlikni ta’minlash, mahalliy hamjamiyatlar huquq va manfaatlariga rioya etish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va korporativ ijtimoiy mas’uliyat sohasidagi xalqaro talablarga muvofiqlikni ta’minlash masalalari turibdi.

Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik

GRI 2-29

Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik yondashuvi

“Navoiyuran” DK manfaatdor tomonlar (steykxolderlar) bilan samarali hamkorlikni barqaror rivojlanish faoliyatining asosiy elementlaridan biri deb hisoblaydi. Korxona davlat organlari, xodimlar, hamkorlar, mahalliy hamjamiyatlar va boshqa steykxolderlar bilan muloqot muhimligini chuqur anglaydi, chunki ularning jalb etilishi va qo‘llab-quvvatlashi “Navoiyuran” DKning strategik maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Hamkorlik tamoyillari

“Navoiyuran” DK manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- **Hurmat va manfaatlarni inobatga olish** - “Navoiyuran” DK qaror qabul qilishda manfaatdor tomonlarning fikr, kutish va afzalliklari hisobga olinadi.
- **Ochiqlik va shaffoflik** - “Navoiyuran” DK o‘z faoliyati, rejalari va barqaror rivojlanish tashabbuslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muntazam yoritib boradi.
- **Mas’uliyat va majburiyatlarga sadoqat** - “Navoiyuran” DK steykxolderlar oldidagi majburiyatlarini to‘liq bajarishga intiladi.
- **Jalb etish va muloqot** - “Navoiyuran” DK asosiy manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqot yuritadi, muhim masalalarni muhokama qilishda ularning ishtiroki ta’minlanadi.
- **Moslashuvchanlik va uzluksiz takomillashtirish** - Steykxolderlar bilan o‘zaro hamkorlik samaradorligini muntazam baholash va zarur tuzatishlarni kiritishni o‘z ichiga olgan davriy jarayon sifatida qoraladi.

Hamkorlik bosqichlari

“Navoiyuran” davlat korxonasida manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik jarayoni tizimli xarakterga ega bo‘lib, ochiq muloqotni ta’minlash, manfaatdor tomonlar manfaatlarini hisobga olish hamda Korxona faoliyatiga bo‘lgan ishonch darajasini oshirishga qaratilgan besh asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi.

1. Manfaaddor tomonlarni aniqlash va muhim masalalarni belgilash
2. Manfaaddor tomonlarni tasniflash va ustuvorlashtirish
3. Hamkorlikni rejalashtirish
4. O‘zaro hamkorlik chora-tadbirlarini amalga oshirish
5. Samaradorlikni baholash va yondashuvlarni takomillashtirish

Mazkur hamkorlik samaradorligini ta’minlash maqsadida “Navoiyuran” DKda kelib tushayotgan so‘rovlar bilan ishlashni nazorat va muvofiqlashtirish uchun maxsus xizmat faoliyat yuritadi.

Manfaaddor tomonlar bilan hamkorlik natijalari

“Navoiyuran” DK manfaaddor tomonlar bilan faol muloqotni davom ettiradi, ularning kutishlarini inobatga olish va konstruktiv muloqotni ta’minlashga intiladi. 2024-yilda korxona barqaror rivojlanish strategiyasini izchil amalga oshirib, ilg‘or korporativ boshqaruv usullarini joriy etdi, ekologik mas’uliyatni oshirdi va ijtimoiy hamkorlikni mustahkamladi.

Yagona ta’ sischi

Kommunikatsiya usullari: hisobotlarni e’lon qilish, korporativ veb-saytda ma’lumotlarni oshkor etish

Manfaat va kutishlar: moliyaviy barqarorlik, ustav kapitalini oshirish, dividendlar to‘lovi, ta’ sischi manfaatlarini ta’minlash, korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilish, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash, barqaror

Biz nima qilamiz:

“Navoiyuran” DK strategik dasturlarni amalga oshirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda. 2024-yilda Korxona davlat topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajardi hamda kompaniya ichida uning siyosatiga rioya etilishini ta’minladi, ustav kapitalini oshirdi va dividend to‘lash majburiyatlarini bajardi.

Mijozlar va hamkorlar

Kommunikatsiya usullari: Xizmat uchrashuvlari, shartnomalar va qo‘shma loyihalar

Manfaat va kutishlar: yetkazib berish barqarorligi, mahsulot va xizmatlar sifati, xaridlarning shaffofligi.

Biz nima qilamiz:

“Navoiyuran” DK yuqori sifat va ishonchlilik standartlariga rioya qilgan holda uran oksidini uzluksiz yetkazib beradi. Logistika va ta’minot boshqaruvi jarayonlarini optimallashtiradi. Hamkorlikda ochiq siyosat, yuqori korporativ boshqaruv standartlari va halol raqobat tamoyillariga rioya etish mijozlar ishonchi va uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlaydi.

Davlat boshqaruv organlari

Kommunikatsiya usullari: maslahatlashuvlar, ishchi guruhlarda ishtirok, hisobotlar, yig'ilishlar.

Manfaat va kutishlar: qonunchilikka rioya qilish, soliqlarni to'lash, ijtimoiy majburiyatlarni bajarish.

Biz nima qilamiz:

“Navoiyuran” DK O‘zbekiston Respublikasi qonun talablari va me’yorlariga qat’iy rioya qiladi. Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘laydi. Hududlarni rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan loyihalarga investitsiyalar davom etmoqda; bu uzoq muddatli iqtisodiy o‘rishga xizmat qiladi.

Xodimlar va kasaba uyushmalari

Kommunikatsiya usullari: rahbariyatning jamoalar bilan uchrashuvlari, treninglar, jamoa muzokaralari, ichki kommunikatsiya aloqalari, ishonch telefoni.

Manfaat va kutishlar: mehnat xavfsizligi, karyera rivoji, munosib ish haqi, xodimlar huquqlarini himoya qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilash.

Biz nima qilamiz:

“Navoiyuran” DK xodimlar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor beradi. 2024-yilda ish joylarini modernizatsiya qilish, sifatli shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash va sog‘liqni saqlash dasturlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha choralar qabul qilindi. O‘qitish va malaka oshirish orqali xodimlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Munosib ish haqi, shaffof yollash tartib-taomillari va professional o‘rish tizimi sohaning eng yaxshi mutaxassislarini jalb etish va ushlab qolishga xizmat qiladi. Korporativ madaniyat va xodimlar ishtirokini mustahkamlash maqsadida Korxona ichki aloqa kanallarni rivojlantirilmoqda va kasaba uyushmalari bilan muloqot qo‘llab-quvvatlanadi.

Mahalliy hamjamiyatlar va jamoatchilik

Kommunikatsiya usullari: jamoatchilik tinglovlari, xayriya dasturlari, ishonch telefonlari orqali fikr-mulohaza.

Manfaat va kutishlar: ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy investitsiyalar, ekologik mas’uliyat.

Biz nima qilamiz:

“Navoiyuran” DK jamiyat oldidagi mas’uliyatini to‘liq anglaydi va faoliyati amalga oshirilayotgan hududlarda aholi turmush sifatini oshirishga muntazam hissa qo‘shib keladi. 2024-yilda korxona mahalliy hamjamiyatlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy farovonlik yo‘nalishlariga salmoqli mablag‘lar yo‘naltirishni davom ettirdi. Ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslariga – chiqindilarni kamaytirish, suv resurslarini boshqarish va yerlarni tiklash ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat dasturlari mahalliy infratuzilmani rivojlantirishga yordam beradi hamda mahalliy aholi hayoti uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Pudratchilar

Kommunikatsiya usullari: tenderlar, konferensiyalar, ishchi uchrashuvlar.

Manfaat va kutishlar: xaridlarning shaffofligi, hamkorlikning adolatli shartlari, obyektlarda xavfsizlik.

Biz nima qilamiz:

“Navoiyuran” DK xarid jarayonlarining shaffofligi va samaradorligini oshiradi, yetkazib beruvchilarni tanlashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etadi. Pudratchilar uchun obyektlarda xavfsizlik choralarini kuchaytirish ishlari davom etmoqda. O‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlik munosabatlari taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va operatsion xatarlarni kamaytirishga yordam beradi.

Kommunikatsiya usullari: xalqaro konferensiyalarda ishtiroki, bitimlarni imzolashi, qo'shma loyihalarda hamkorligi.

Manfaat va kutishlar: xalqaro standartlarni integratsiya qilish, huquqiy me'yorlarga rioya qilish, ekologik mas'uliyat, bilim almashinuvi.

Biz nima qilamiz:

“Navoiyuran” DK xalqaro tashabbuslar va loyihalarda faol ishtirok etadi, sifat va barqaror rivojlanishning yuqori standartlariga mos ishlaydi. Ekologik va ijtimoiy mas'uliyatga alohida e'tibor qaratgan holda xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlar faoliyatga integratsiya qilinmoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ekspert hamkorligini kengaytiradi, bilim almashinuvini kuchaytiradi va global aloqalarni mustahkamlaydi; bu esa ishonchni oshirib, xalqaro miqyosda uzoq muddatli hamkorlikni shakllantiradi.

“Navoiyuran” DK manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni kuchaytirishda davom etadi, eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni joriy etadi va korporativ boshqaruvni takomillashtiradi. Ochiq muloqot, steykholderlar manfaatlarini inobatga olish va barqaror rivojlanish bo'yicha strategik tashabbuslarni amalga oshirish korxonaga uzoq muddatli maqsadlarga erishish hamda iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Muhimlikni aniqlash

GRI 3-1, GRI 3-2

Muhim mavzularni aniqlash yondashuvi

Muhim mavzularni aniqlash “Navoiyuran” DKning Barqaror rivojlanish hisobotini tayyorlashda muhim qadam bo‘lib, u GRI va SASB standartlari talablari asosida amalga oshiriladi. Jarayon Korxonaning operatsion faoliyati, asosiy manfaatdor tomonlar manfaatlari va barqaror rivojlanishning uzoq muddatli jihatlariga eng muhim ta'sir ko'rsatadigan mavzularni aniqlash va ustuvorliklarini belgilashga qaratilgan.

Muhim mavzularni aniqlash jarayoni bosqichlari

1. Mavzularni identifikatsiyalash

Birinchi bosqichda “Navoiyuran” DKga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi, shuningdek Kompaniyaning potentsial ta'sirlari aniqlanadi. Tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Normativ-huquqiy talablar va xalqaro standartlar;
- Kompaniya rivojlanish strategiyasi;
- manfaatdor tomonlarning umidlari va so'rovlari;
- Sanoat tendensiyalari va ilg'or amaliyotlar;
- ESG sohasidagi xavf va imkoniyatlarni tahlil qilish.

2. Mavzularning ahamiyatini baholash

Aniqlangan mavzular ikki tomondan baholanadi:

- **Iqtisodiyot, atrof-muhit va jamiyatga ta'siri** – “Navoiyuran” DK faoliyatining barqaror rivojlanishga ta'sirining miqdori va xarakteri ko'rib chiqiladi. Maglubiyatli tomonlar uchun ahamiyati hisobga olinadi – aksiyadorlar, hamkorlar, ishchilar, mahalliy jamoalar va boshqa guruhlarini qamrab oluvchi ustuvor mavzular tahlil qilinadi.
- **Sanoat ESG-risklarini ko'rib chiqish** – GRI, SASB standartlari va kon sanoati uchun ESG-risklarni aniqlovchi reyting agentliklari mezonlaridan foydalaniladi.

3. Mavzularga ustuvorlik berish

- Baholash asosida muhim mavzular ro'yxati tuzilib, ular ahamiyati bo'yicha tartiblanadi va kesish darajasi tanlanadi. Eng muhim mavzular hisobotga kiritilib, Korxonaning keyingi strategik faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4. Tekshirish va tasdiqlash

- Tahlil natijalari “Navoiyuran” DK rahbariyati bilan muhokama qilinadi, bu mavzular tanlovining to'liqligi va ishonchliligini ta'minlaydi. “Navoiyuran” DK Barqaror rivojlanish hisobotida ochilishi kerak bo'lgan muhim mavzular to'g'risida ma'lumot oladi.

Muntazam qayta ko‘rib chiqish

Muhim mavzularni aniqlash jarayoni dinamik bo‘lib, muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqiladi, bu tashqi muhitdagi o‘zgarishlar, Korxona strategiyasi va manfaatdor tomonlarning kutishlarini hisobga olish imkonini beradi. Bu ma’lumotlarning dolzarbligini kafolatlaydi va “Navoiyuran” DKning jamiyat bilan o‘zaro hamkorligining shaffofligini ta’minlaydi.

Shunday qilib, “Navoiyuran” DKning muhim mavzularni aniqlash bo‘yicha yondashuvi ilg‘or xalqaro amaliyotlarga mos keladi va hisobot sifatini oshirishga yordam beradi, bu esa manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlaydi va Korxonaning uzoq muddatli barqarorligiga xizmat qiladi.

Muhim mavzular

2024-yil hisobotiga muhim deb tan olingan 17 ta mavzu kiritilgan.

Iqlim o‘zgarishi	Bandlik
Energiya samaradorligi	Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish
Atmosfera havosi muhofazasi	Xilma-xillik va teng imkoniyatlar
Suv resurslarini muhofaza qilish	Bilvosita iqtisodiy ta’sir
Bioxilma-xillikni saqlash	Mahalliy jamoalar
Chiqindilarni boshqarish	Xaridlar amaliyoti
Mehnat muhofazasi va xavfsizlik	Korrupsiyaga qarshi kurash
Radiatsion xavfsizlik	Iqtisodiy natijadorlik
Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik	

Bozor sharhi

Uran sanoatining global tendensiyalari

Tabiiy uran jahon bozori yuqori darajada konsentrlashgan va strategik ahamiyatga ega. Ishtirokchilar sonining cheklanganligi, razvedka qilingan zaxiralar geografik jihatdan jamlangani hamda geosiyosiy vaziyatga bogʻliqlik uni global energetika xavfsizligini taʼminlash zanjiridagi eng sezgir segmentlardan biriga aylantiradi.

Bozordagi asosiy ishtirokchilari - qazib oluvchi va qayta ishlovchi kompaniyalar, ixtisoslashgan treyderlar, investitsiya fondlari hamda yakuniy isteʼmolchilar - atom elektr stansiyalari (AES). Energetika tizimiga kirishdan oldin tabiiy uran majburiy texnologik bosqichlardan oʻtadi: uranni UF_6 (uran geksafloridi) ga konversiya qilish va U-235 izotopi boʻyicha boyitish. Bu jarayonlar soni cheklangan kompaniyalar qoʻlida jamlangan (Orano, Cameco, Rosatom, Urenco va Urenco Urenco).

WNA (Jahon yadro assotsiatsiyasi) va UxC konsalting kompaniya maʼlumotlariga koʻra, 2024-yilda Qozogʻiston (20 800 t, 38,2 %), Kanada (11 000 t, 20,2 %), Afrika mamlakatlari (8 316 t, 15,3 %), Avstraliya (4 778 t, 8,8 %) va Rossiya (2 704 t, 5 %) eng yirik uran ishlab chiqaruvchilaridir. Oʻzbekiston barqaror ijobiy dinamikani namoyon etib, tabiiy uranning ishonchli yetkazib beruvchisi sifatidagi mavqei mustahkamlab, yetakchi ishlab chiqaruvchilar roʻyxatiga tobora ishonch bilan kirib bormoqda.

Jahon boʻyicha razvedka qilingan tabiiy uran zaxiralari 6,1 mln tonna deb baholanadi. Eng yirik ulushlar Avstraliya (28 %), Qozogʻiston (13 %) va Kanadaga (10 %) toʻgʻri keladi. Oʻzbekiston Respublikasida jahon zaxiralarining 2 % - taxminan 131,3 ming tonna mavjud boʻlib, bu mamlakatning uran sohasini rivojlantirishdagi yuqori salohiyatini tasdiqlaydi.

Jahon bozorida talab va taklif

2024-yil yakunida dunyoda jami 436 ta atom reaktori ishlagan, ularning umumiy quvvati 391,7 GVt ni tashkil etgan. Tabiiy uranga yillik ehtiyoj taxminan 65,7 ming tonna boʻlib, shundan qariyb 74 % birlamchi qazib olish hisobidan taʼminlanadi. Qolgan qismi ikkilamchi manbalar - qayta ishlangan yoqilgʻi va harbiy dasturlardan olingan uran bilan qoplanadi.

2024-yilda eng yirik isteʼmolchilar: AQSh (18 ming t), Xitoy (11,3 ming t), Fransiya (8,8 ming t), Rossiya (6,3 ming t) va Janubiy Koreya (4,1 ming t). Dekarbonizatsiya sharoitida atom energetikasiga qiziqish ortib borayotgani talabni kuchaytirib, qazib olish va qayta ishlashni barqaror oshirishni talab qiladi.

Uran yetkazib berish barqarorligini taʼminlashning asosiy omillaridan biri - uranni boyitish bozori boʻlib, boyitilmagan tabiiy uran reaktorlarda ishlatilishi mumkin emas. Uranni boyitish - texnologik jihatdan murakkab va kapital talab qiladigan jarayon boʻlib, u cheklangan miqdordagi operatorlar ixtiyorida mavjud. Boyitish bozorida "Rosatom"ning ulushi 46%ni, Urenco (Yevropa Ittifoqi) - 31%ni, Orano (Fransiya) - 12,5%ni, CNNC (Xitoy) esa - 10,5%ni tashkil etadi. Boyitish quvvatlarining cheklanganligi va isteʼmolning ortib borishi tabiiy uranni strategik resurs sifatidagi ahamiyatini oshiradi hamda yetkazib beruvchilarning ishonchliligiga eʼtiborni kuchaytiradi.

Narxlar dinamikasi



2024-yilda jahon uran narxlari geosiyosiy omillar, ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar va talab tebranishlarini aks ettirgan holda yuqori volatillik ko'rsatdi. Investing.com ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar oyida uran narxi bozordagi noaniqliklar fonida \$107/funt darajasiga yetdi. Fevral oyida Qozog'istonda sulfat kislotasi yetkazib berishdagi uzilishlar sabab narx \$81,32/funt gacha pasaydi. Dekabr oyiga kelib narx \$60–\$70/funt atrofida barqarorlashib, \$60,22 ni tashkil etdi. Qisqa muddatli tebranishlarga qaramay, 2024-yilda uran bozori taklifning strukturaviy taqchilligi va yadro energiyasiga ortib borayotgan talab hisobiga barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi.

Bozorga ta'sir etuvchi omillar

Tabiiy uran bozoriga qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ta'sir ko'rsatuvchi omillar:

Qisqa muddatli istiqbol (1–3 yil):

- Mavjud AESlar ekspluatatsiyasidagi o'zgarishlar (AQSh va Yaponiya);
- Qozog'iston va boshqa ishlab chiqaruvchi mamlakatlardagi ishlab chiqarish xatarlari;
- Valyuta va geosiyosiy tebranishlar.

O'rta muddatli istiqbol (3–10 yil):

- Muqaddam konservatsiya qilingan konlarni ishga tushirish;
- Boyitish quvvatlarini kengaytirish;
- Asosiy mamlakatlarda past-uglerod siyosati.

Uzoq muddatli istiqbol (10–20 yil):

- Dunyo bo'ylab AESlar sonining o'sishi, ayniqsa Xitoy, Hindiston va Sharqiy Yevropada;
- Me'yoriy talablar va ESG standartlarining evolyutsiyasi;
- Yopiq yoqilg'i sikli texnologiyalarini rivojlantirish.

“Navoiyuran” DKning bozoridagi o‘rni

“Navoiyuran” davlat korxonasi O‘zbekistondagi yagona tabiiy uran ishlab chiqaruvchisi bo‘lib, xalqaro miqyosdagi yirik yetkazib beruvchilar qatoriga kiradi. Mahsulotning barchasi xorijga eksport qilinadi, korxonaning asosiy hamkorlari qatorida Itochu, Marubeni, Cameco, Korea Hydro & Nuclear Power, CGNPC kabi dunyoning yetakchi energetika kompaniyalari mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–319-sonli Qaroriga muvofiq, korxona uran qazib olish hajmlarini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirmoqda. Ushbu dastur 2030-yilga kelib ishlab chiqarishni ikki baravar oshirishga qaratilgan bo‘lib, bu choralar O‘zbekistonning jahon uran bozoridagi o‘rnini sezilarli darajada mustahkamlashga, iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga va milliy energetik ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy natijadorlik

GRI 201-1

2024-yilda “Navoiyuran” davlat korxonasi barqaror moliyaviy-iqtisodiy natijalarni namoyon etib, mintaqadagi eng yirik uran ishlab chiqaruvchilardan biri hamda mas’uliyatli soliq to‘lovchi sifatidagi mavqeini mustahkamladi. “Navoiyuran” davlat korxonasi o‘z faoliyati yuritilayotgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Korxona yangi ish o‘rinlarini yaratadi, soliqlarni to‘lash orqali hududiy byudjetlarga tushumlarni ta‘minlaydi, shuningdek, ishlab chiqarish vazifalarini amalga oshirish jarayoniga mahalliy yetkazib beruvchilar va pudratchilarni jalb etish orqali mahalliy tadbirkorlikni rivojlantiradi.

Korxonaning iqtisodiy vaziyati, investitsion ustuvor yo‘nalishlari va operatsion faoliyatiga oid asosiy masalalar muntazam ravishda Korxona rahbariyati darajasida ko‘rib chiqiladi. Korxonaning navbatdagi moliyaviy yil uchun biznes-rejasi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi, strategik ahamiyatga ega tashabbuslar va yirik infratuzilma loyihalari esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratilgan va taqsimlangan iqtisodiy qiymat (mln AQSh dollari)

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024
Daromadlar	446	539	917
To‘g‘ridan-to‘g‘ri taqsimlangan iqtisodiy qiymat, jumladan:			
Ishlab chiqarish xarajatlari	160	190	232
Davr xarajatlari	63	83	200
Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar	35	41	78
Taqsimlanmagan iqtisodiy qiymat (yil yakunidagi sof foyda)	189	225	420

2024-yilda daromadlarning oshishi oldingi yilga nisbatan uran oksidi va dioksidini realizatsiya hajmining 38 % ga ko‘payishi bilan bog‘liq.

Operatsion xarajatlarga ishlab chiqarish xarajatlari, realizatsiya xarajatlari va ma'muriy xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- xomashyo va materiallar xarajatlari;
- ish haqi to'lovlari;
- soliqlarni to'lash (foyda solig'idan tashqari);
- ijtimoiy xarajatlar, shu jumladan mahalliy hamjamiyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

2024-yilda "Navoiyuran" davlat korxonasi investitsion jozibadorlikni oshirish, shaffoflikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga qaratilgan asosiy transformatsion tashabbuslarni amalga oshirishni davom ettirdi.

IPO rejalashtirilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi "Davlat ishtirokini iqtisodiyotda qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-53-son Farmoniga muvofiq, "Navoiyuran" davlat korxonasi aksiyalari mahalliy fond bozorida IPO mexanizmi orqali xususiylashtiriladigan 40 ta davlat korxonasi ro'yxatiga kiritildi. Joylashtirish "bir aksiya - bir lot" tamoyili asosida ochiq ommaviy auksionlar orqali amalga oshiriladi.

Rejalashtirilayotgan IPOga chiqish Korxonaning rivojlanishida nafaqat qo'shimcha moliyalashtirishni jalb etishga, balki ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) sohasidagi pozitsiyalarini mustahkamlashga qaratilgan strategik bosqich hisoblanadi. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish shaffoflik va hisobdorlik darajasini oshiradi, ekologik va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda investorlar, hamkorlar va jamiyat ishonchini mustahkamlaydi.

Soliq shaffofligi

GRI 201-4, GRI 207-1, GRI 207-2, GRI 207-3

Korxona soliq majburiyatlarini mas'uliyat bilan bajarishni barqaror rivojlanishning, ishbilarmonlik etikasiga rioya etishning hamda davlat, jamiyat va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarda shaffoflikni ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'radi. Biz O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi boshqa soliq qonunchiligi talablariga qat'iy rioya qilamiz. "Navoiyuran" DK davlatdan moliyaviy yordam, shu jumladan soliq imtiyozlari yoki boshqa qo'llab-quvvatlash turlarini olmaydi.

Korxona barcha darajalarda yagona soliq tartibga solish standartlariga amal qiladi hamda soliq majburiyatlarini vijdonan, o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

Soliqqa yondashuv quyidagi prinsiplariga tayanadi:

- Soliq hisobotining shaffofligi;
- Vakolatli organlar va qonunchilik talablariga rioya qilish;
- Soliq xatarlari va nizolarini minimallashtirish;
- Soliq hisobotining shaffofligi;
- Davlat organlari bilan ochiq hamkorlik;
- Faoliyat yuritilayotgan mintaqalarning rivojlanishiga barqaror hissa qo'shish.

"Navoiyuran" DKda Boshqaruv tomonidan tasdiqlangan Soliq strategiyasi amal qiladi. Hujjat korxonaning soliq tizimi maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari va tamoyillarini belgilaydi. Tashqi me'yoriy muhit yoki ichki tashkiliy ehtiyojlar o'zgarishiga qarab strategiya zaruratga ko'ra yangilanadi. Strategiya kompaniyaning rasmiy web-saytida ochiq e'lon qilingan: <https://navoiyuran.uz>

Korxonada soliq funksiyasi markazlashtirilgan bo'lib, korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyalashgan. Strategik rahbarlik uchun iqtisodiyot va moliya bo'yicha bosh direktor o'rinbosari javobgar. Operatsion boshqaruv esa Buxgalteriya va soliq hisobi departamenti tomonidan amalga oshiriladi, uning tarkibida yuqori malakali mutaxassislardan iborat Soliq hisobi guruhi faoliyat yuritadi.

Korxona soliq xatarlarini quyidagilar orqali faol boshqaradi:

- soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni muntazam monitoring qilish;
- soliqlarni hisoblash va to'lash tartib-taomillarining ichki auditi va nazorati;
- soliq organlari bilan ochiqlik va hamkorlik tamoyillarida o'zaro aloqalar;
- shartnomalar tuzishda va yangi investitsion loyihalarda potensial xatarlarni baholash.

Soliqqa oid kompetensiyani saqlash va oshirish maqsadida Korxona yetakchi auditorlik tashkilotlarining tashqi maslahatchilarini muntazam jalb etadi; bu murakkab vazifalarni hal etish va soliq xatarlarini minimallashtirishga yordam beradi.

"Navoiyuran" DK to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish orqali soliq amaliyotining shaffofligini ta'minlaydi. Quyida 2024-yil bo'yicha byudjetga soliq to'lovlari keltiriladi.

2022–2024-yillarda byudjetga asosiy soliq to‘lovlari, mln AQSh dollari

Soliq turi	2022		2023		2024	
	Hisoblangan	To‘langan	Hisoblangan	To‘langan	Hisoblangan	To‘langan
Daromad solig‘i	36	37	41	41	77	77
Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i (Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobini hisobga olganda)	7	7	10	10	11	11
Qoshimcha qiymat solig‘i*	(22)	-	(24)	1	(40)	0
Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq	34	33	40	40	143	143
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,5	0,5	0,5	0,5	0,3	0,3
Yuridik shaxslarning mulk solig‘i	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
Yuridik shaxslarning yer solig‘i	1	1	2	2	2,2	2,2
Ijtimoiy soliq	7	7	9	9	10	10
Jami byudjetga to‘langan miqdor	64	86	79	104	203	244

* O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 260-moddasiga muvofiq, Korxona Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilingan.

Soliqlar bo'yicha oldindan tolovlar va majburiyatlar, mln AQSh dollari

Balans moddasi	Aktiv/(Majburiyat)		
	2022	2023	2022
Soliqlar va byudjetga yo'naltiriladigan boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha oldindan to'lovlar	13	21	15
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	1,7	0,1	0,0
Davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	0,03	0,1	0,0

Xarid qilish faoliyati

GRI 3-3, GRI 2-6, GRI 204-1

Samarali va shaffof xarid faoliyati “Navoiyuran” DKning uzluksiz ishlab chiqarish jarayonini ta’minlash, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Korxona yuqori darajadagi lokalizatsiyani, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashni hamda ekologik va ijtimoiy standartlarga rioya etishni ta’minlaydigan ishonchli va barqaror ta’minot zanjirini qurishga intiladi.

“Navoiyuran” DKning xarid faoliyati ichki reglamentlar va davlat xaridlari sohasidagi milliy qonunchilik, jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Prezident va Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xarid jarayonlari faqatgina etender.uzex.uz; xarid.uzex.uz, new.cooperation.uz va boshqa maxsus elektron platformalar orqali, ochiqlik, raqobatlilik va kamsitilmasdan kirish tamoyillariga rioya qilgan holda o‘tkaziladi.

Xaridlar va yetkazmalar tuzilmasi

- 2024-yilda Korxonaning ta’minot zanjiriga O‘zbekiston, Qozog‘iston, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Hindiston, Xitoy va Yaponiyadan yetkazib beruvchilar jalb etildi. Bunda “Navoiyuran” DK ustuvorlikni mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikka beradi va ularni o‘zining qiymat zanjiriga faol integratsiya qiladi. Bu milliy iqtisodiyot rivojiga va Korxona faoliyat yuritayotgan hududlarda hayot sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.
- **Xarid qilinadigan tovar va xizmatlarning asosiy toifalari quyidagilardan iborat:**
- **uskunalar, transport vositalari va ehtiyot qismlar** - mahalliy va xalqaro ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantiradi;
- **yoqilg‘i-moylash materiallari va yoqilg‘i** - qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga alohida e’tibor;
- **kimyoviy materiallar va reaktivlar** - atrof-muhit va inson salomatligiga ta’sirini minimallashtirishga urg‘u;
- **geologik-qidiruv ishlari** - tabiiy resurslar va bioxilma-xillikni asrash bo‘yicha eng yaxshi xalqaro amaliyotlar asosida.

2022–2024-yillar bo‘yicha xarid faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Yil	Umumiy shartnoma hajmi (xaridlar)	Tuzilgan shartnomalar soni	Import xaridlar ulushi (summada)
2022	190 mln AQSh dollar	3 026	6%
2023	368 mln AQSh dollar	3 904	3%

2024	518 mln AQSh dollar	4 171	3%
------	---------------------	-------	----

Lokalizatsiya va import o'rnini bosishni qo'llab-quvvatlash

Barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida "Navoiyuran" davlat korxonasi import yetkazib berishlarga qaramlikni kamaytirish, milliy sanoat salohiyatini rivojlantirish va iqtisodiy o'z-o'zini ta'minlashni oshirishga qaratilgan lokalizatsiya siyosatini amalga oshirmoqda.

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Lokalizatsiya ¹	mln. AQSh dollar	1,32	3,52	4,64
Importni qisqartirish ²	mln. AQSh dollar	8,0	12,9	29,5
Sanoat kooperatsiyasi doirasida mahsulot xaridlari ³	mln. AQSh dollar	38,03	4,63	59,73

2024-yilda "Navoiyuran" davlat korxonasining ishlab chiqarish dasturini bajarish maqsadida mahalliy korxonalar bilan tarmoqlararo kooperatsiya asosida 59,73 mln AQSh dollarlik mahsulot xarid qilindi, bu esa davr prognozining 105,0 foizini tashkil etib, 2023-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,4 foizga teng bo'ldi.

Mahalliy yetkazib beruvchilarning quvvatlari barqaror yuklama bilan ta'minlandi, jumladan, hududiy va respublika sanoat yarmarkalarida ishtirok etish orqali. Ushbu tadbirlarda mamlakatning turli hududlaridagi ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlari namoyish etildi, jumladan, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Namangan, Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Navoiy, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlaridan.

Biznes hamkorlarini tanlash va baholash

Korxona barcha xarid jarayonlarida quyidagi mezonlarni inobatga olgan holda kontragentlarni puxta baholash yondashuviga amal qiladi:

- mahsulot sifati va texnik hujjatlarga muvofiqligi;
- yetkazib beruvchining tajribasi va obro'si;
- yetkazib berish muddatlariga rioya qilish va ishonchlilik;
- qarzдорlikning yo'qligi va majburiyatlarni bajarmaslik xatarlarining pastligi.

Yetkazib beruvchilarni tanlash jarayonlari avtomatlashtirilgan va ochiq onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi.

Barqaror xaridlar

¹ Lokalizatsiya – korxonaning ehtiyojlari uchun import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni o'z ishlab chiqarish quvvatlarida tayyorlash.

² Importni qisqartirish – lokalizatsiya dasturi doirasida korxona ehtiyojlari uchun import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni korxonaning o'z ishlab chiqarish quvvatlarida tayyorlash hamda ilgari respublikaga import qilingan, hozirda esa sanoat kooperatsiyasi doirasida o'zlashtirilayotgan yangi turdagi import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni xarid qilish.

³ Sanoat kooperatsiyasi doirasida mahsulot xaridi – mahalliy korxonalardan sanoat kooperatsiyasi asosida mahsulot xarid qilish.

2024-yilda Korxona xarid faoliyatining shaffofligi, samaradorligi va barqarorligini ta'minlash ustida ishlarni davom ettirdi. Davlat xaridlari tizimining isloh qilinishi va raqamlashtirilishi sharoitida raqobat muhitini mustahkamlash hamda byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu ustuvorliklar doirasida quyidagi choralar qabul qilindi:

- Xaridlarda korrupsiya xatarlarini baholash va tahlil qilish tizimi joriy etildi. Tashabbus maqsadi - xarid tartib-taomillarining shaffofligi va hisobdorligini oshirish, korrupsiya holatlari ehtimolini kamaytirish va manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlash.
- Xarid jarayonida ishtirokchilarning manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga doir choralar ko'rildi. Barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni kafolatlaydigan xolislik va etik me'yorlarga rioya etishni ta'minlovchi ichki reglamentlar ishlab chiqildi va joriy etildi.
- Barqaror xarid amaliyotlari rivojlantirildi, shu jumladan "yashil" davlat xaridlarida ulushi kengaytirildi.
- Maxfiy ma'lumot berish mexanizmini yaratish tashabbusi. Maslahatchilarning taklifiga binoan, xodimlar va xarid ishtirokchilari tomonidan ehtimoliy qonunbuzilishlar haqida maxfiy xabarlarni qabul qilish uchun "koll-markaz" joriy etish bo'yicha ishlar boshlandi. Bu chora-tadbir muammoli holatlarni o'z vaqtida aniqlash va xarid jarayoni shaffofligini oshirishga qaratilgan.
- 2024-yil uchun xarid funksiyasini tekshirish rejasi ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Reja asosiy ko'rsatkichlar va baholash muddatlarini o'z ichiga oladi, xaridlarning samaradorligini tahlil qilish, potensial xatarlarni aniqlash va nomuvofiqliklarni tezkor bartaraf etishga yordam beradi.
- 2024-yil davomida xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar bozor narxlarini o'rganish maqsadida ichki va tashqi audit mutaxassislari, shuningdek, boshqa nazorat organlari ishtirokini yo'lga qo'yish amaliyotini joriy etish.

Xarid faoliyatini takomillashtirish bo'yicha kompleks yondashuv yetkazib beruvchilar va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda ekologik va ijtimoiy xatarlarni kamaytiradi.

Barqaror rivojlanish bilan bog'liq ma'lumotlarni oshkor qilish

1. Ma'lumotlarni tayyorlash va taqdim etish asoslari

“Navoiyuran” DKning barqaror rivojlanish bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlari to'g'risidagi hisoboti Xalqaro barqaror rivojlanish standartlari kengashi (ISSB) tomonidan e'lon qilingan Barqaror rivojlanish bo'yicha ma'lumotlarni ochish standartlari (IFRS SDS)ga muvofiq tayyorlangan.

Bundan tashqari, ushbu hisobotni tayyorlashda Barqaror rivojlanish hisobi standartlari kengashi (SASB) standartlarida belgilangan mavzular va ma'lumotlarni ochish talablari hisobga olingan.

Moliyaviy hisobot bilan bog'liqlik

Hisobot 2024-yil 31-dekabrda tugagan yil uchun “Navoiyuran” DKning moliyaviy hisobotlari bilan birga ko'rib chiqilishi kerak. Moliyaviy hisobot Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MSFO) asosida tayyorlangan. Hisobotdagi ma'lumotlar 12 oylik davrni qamrab oladi va “Navoiyuran” DKning uning asosiy bo'linmalari faoliyatiga tegishli.

Barqaror rivojlanish bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni ochish moliyaviy hisobot kabi “Navoiyuran” DKga nisbatan amalga oshiriladi.

Barqaror rivojlanish bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish valyutasi sifatida AQSh dollari (USD) qo'llaniladi, moliyaviy hisobot valyutasi esa o'zbek so'midir. Kompaniya barqaror rivojlanish bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni USDda ochish hisobotning xalqaro foydalanuvchilari uchun ko'rsatkichlarning ko'proq vakilliligiga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro ma'lumot ochish standartlarini birinchi marta qo'llash

“Navoiyuran” DK 2024-yil 31-dekabrda tugagan yil uchun IFRS SDS bo'yicha ma'lumotlarni birinchi marta, ixtiyoriy asosida ochmoqda. Barqaror rivojlanish bo'yicha ma'lumotlarni ochish standartlari birinchi hisobot davri uchun bir qator o'tish imtiyozlarini belgilaydi. Ushbu hisobotda Korxona quyidagi o'tish choralaridan foydalangan:

- Qamrov-3 issiqxona gazlari chiqindilari bo'yicha ma'lumotlarni majburiy ochishdan ozod qilinish.
- Solishtirma ma'lumotlarni ochish talabidan ozod qilinish.
- Barqaror rivojlanish hisobotini moliyaviy hisobot bilan bir vaqtda oshkor etish majburiyatidan ozod qilinish.
- Hisobotga faqat IFRS S2ga muvofiq iqlim xavflari va imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish.

Korxona o'z faoliyati sohasidagi ko'rsatkichlar bo'yicha “Turli iqtisodiy sektorlar uchun IFRS S2 ni joriy etish bo'yicha ko'rsatma”, 10-jild – “Metallurgiya va konchilik sanoati” qo'llanmasidagi tavsiyatlarni hisobga olgan.

2. Hisobotning tashkiliy chegaralari

Ushbu barqaror rivojlanish bilan bog‘liq moliyaviy ma’lumotlar hisoboti 2024-yil 31-dekabrda tugagan davr uchun “Navoiyuran” DKni qamrab oladi va moliyaviy hisobot chegaralari bilan mos keladi. Hisobot davrida Korxona tuzilishida o‘zgarishlar bo‘lmagan.

“Navoiyuran” DK issiqxona gazlari chiqindilarini hisoblash uchun IFRS S2 talablari asosida Issiqxona Gazlari Protokoli: Korporativ hisob va hisobot standarti (2004) (GHG Protocol) da belgilangan metodologiyani qo‘llaydi. Hisobotda “Navoiyuran” DKning operatsion nazorati ostidagi operatsiyalar va aktivlar bilan bog‘liq Qamrov-1 va Qamrov-2 chiqindilari (hududiy yondashuv bo‘yicha) aks ettiriladi. Qimmatlik zanjirining qolgan qismida yuzaga keladigan chiqindilar Qamrov-3 chiqindilari sifatida tasniflanadi va alohida hisobga olinadi.

3. Muhim professional xulosalar va noaniqliklar


Ushbu hisobotni tayyorlash jarayonida “Navoiyuran” DK Rahbariyati tomonidan bir qator jihatlar, shu jumladan iqlim risklari va imkoniyatlarini identifikatsiyalash, shuningdek muhim va ochilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash bo‘yicha professional xulosalar qo‘llangan.

Hisobot tayyorlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanishi mumkin bo‘lmagan ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholovchi taxminlardan foydalanishni talab qildi. Baholangan qiymatlar barqaror rivojlanish ma’lumotlari qimmatlik zanjiriga kiruvchi subjektlarga tegishli bo‘lgan, prognozlashtirishni talab qilgan yoki mavjud ma’lumotlarning cheklovlari bilan tavsiflangan hollarda shakllantirilgan.

IFRS SDS bo‘yicha ushbu ochishni tayyorlashda rahbariyat tomonidan qabul qilingan asosiy professional xulosalar va baholash noaniqligi yuqori bo‘lgan summalar haqida batafsil ma’lumot quyidagi bo‘limlarda keltirilgan:

- 8. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflar va imkoniyatlar
- 9. Iqlim stsenariylari - Fizik xavflar
- 9. Iqlim stsenariylari - O‘tish xavflari va imkoniyatlar

4. Biznes model va qiymat yaratish zanjiri



“Navoiyuran” DK Markaziy Osiyoning yetakchi uran ishlab chiqaruvchilaridan biridir. Korxona zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda uran rudasini qazib oladi va qayta ishlaydi. “Navoiyuran” DKda uran qazib olishning asosiy usuli yer osti ishqor bilan yuvib tashlash usuli yordamida (PV) bo‘lib, bu uranni tog‘ jinslarini yer yuzasiga ko‘tarmasdan yer ostidan olish imkonini beradigan zamonaviy texnologiyadir. Ishlab chiqarish tsikli geologik-qidiruv ishlaridan tortib to tayyor eksport mahsulotini olishgacha bo‘lgan butun texnologik jarayonni qamrab oladi.

Faoliyat geografiyasi va operatsion aktivlar qamrovi “Faoliyat geografiyasi” bo‘limida (12-bet) bayon etilgan. “Biznes-model” bo‘limida (17-bet) “Navoiyuran” DK biznes modeli tafsilotlari, “Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqalar natijalari” bo‘limida (33-bet) esa Manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratish haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Iqlimiy xatar va imkoniyatlarni baholash

Korxona iqlimiy xatar va imkoniyatlarning ehtimolligi va moliyaviy ta’sir miqyosini inobatga olib, ularning muhimligini baholaydi.

Strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash uchun “Navoiyuran” DK quyidagi vaqt ufqlari qo‘llanadi:

- Qisqa muddat: 2025–2027 yillar.
- O‘rta muddat: 2028–2035 yillar.
- Uzoq muddat: 2036–2050 yillar.

“Navoiyuran” DKning malakali mutaxassisi tomonidan tayyorlangan mineral aktivlar bo'yicha hisobotga ko'ra, hozirgi tasdiqlangan uran zaxiralari 2035-yilgacha bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun yetarli, hamda 2050-yilgacha istiqbolda yetarli darajada bo'lishi prognoz qilinadi.

Xavf va imkoniyatlarning muhimlik darajasini baholash jarayoni sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni qamrab oladi hamda kasbiy xulosa berish va hisobiy taxminlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday taxminlar har bir hisobot davrida qayta ko'rib chiqiladi, bu esa eng dolzarb va ishonchli ma'lumotlarni aks ettirish imkonini beradi. Iqlim xavflari va imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot ushbu hisobotning 8-bo'limida keltirilgan bo'lib, ular quyida taqdim etilgan:

Iqlimiy xatarlar:	Iqlimiy imkoniyatlar:
PA1: Ekstremal issiq	OP1: Energiya almashinuvida uranga bo'lgan talabning ortibishi.
PA2: Qum-chang bo'ronlari	
PC1: Suv resurslarining kamayishi	
TR: Uglerod narxlarini belgilash mexanizmlarini joriy etish (regulyator xavf)	
TT: Energiya samarali texnologiyalardan orqada qolish va energiya resurslarining qimmatlashishi (texnologik xavf)	
TM: Mahsulotlarning uglerod sig'imi talablari (bozor xavfi)	

Iqlim risklari va imkoniyatlarining biznes-model va qimmatlik zanjiriga ta'siri

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, aniqlangan iqlim risklari va imkoniyatlari “Navoiyuran” DKning hozirgi biznes-modeli va qimmatlik zanjirida muhim o'zgarishlarni talab qilmaydi. Korxona iqlim risklari va imkoniyatlarini monitoring qilishni davom ettirmoqda va muhim o'zgarishlar yuzaga kelgan taqdirda ma'lumotlarni o'z vaqtida yangilaydi.

5. Korporativ boshqaruv

“Navoiyuran” DK iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xatar va imkoniyatlarni nazorat qilish uchun korporativ boshqaruv tizimini shakllantirish jarayonida. Bu jarayonda maxsus nazorat mexanizmlari va tartib-qoidalar qo'llanilib, belgilangan maqsadlarga erishishdagi ilgarilashishni kuzatish ta'minlanadi. Ushbu mexanizmlar bosqichma-bosqich Korxona xatarlarni boshqarishning umumiy tizimiga joriy qilinadi. Shuningdek, ular korporativ boshqaruv organlari faoliyatiga integratsiya qilinadi, jumladan, oliy boshqaruv organlari – Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari ishida aks ettiriladi, ichki me'yoriy hujjatlarda belgilanadi, oliy boshqaruv organlarini iqlim xatarlari va

imkoniyatlari haqida xabardor qilish vositalari ishlab chiqiladi, boshqaruvchi personalni o'qitish va malakasini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Iqlim strategiyasi va maqsadlari 2025-yilda Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi va kelgusida Kuzatuv kengashi maqsadlarga erishish jarayonini muntazam monitoring qilib boradi.

Hozirgi vaqtda barqaror rivojlanish bilan bog'liq samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) rahbariyatni rag'batlantirish siyosatiga integratsiya qilinmagan.

Korporativ siyosatlar

Barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyat doirasida "Navoiyuran" DKda iqlimiy majburiyatlar hamda ekologik va ijtimoiy samaradorlik talablarini belgilovchi tegishli ichki siyosatlar tasdiqlangan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasidagi siyosati	Iqlim strategiyasi (2025-yilda tasdiqlash uchun)
Energiya menejmenti siyosati	Sifat, ekologiya, sog'liqni saqlash va mehnat muxofazasi bo'yicha integratsiyalashgan boshqaruv tizimi siyosati (IMS)

6. Xatarlar va imkoniyatlarni boshqarish

"Navoiyuran" DKning xatarlarni boshqarish tizimi Xatarlarni boshqarish siyosatiga asoslanadi. U metodologik tamoyillarni, javob qaytarish strategiyalarini, boshqaruv tuzilmasini va xatarlar bo'yicha javobgarlik taqsimotini belgilaydi.

Iqlim strategiyasini amalga oshirish korporativ xatarlarni boshqarish tizimiga integratsiya qilingan. Iqlimiy xatarlar (fizik va o'tish davri xatarlari) yagona korporativ xatarlar reyestriga kiritiladi va muhimlik hamda ehtimollikning standart mezonlari bo'yicha baholanadi.

Iqlim kun tartibini quyidagi jarayonlarga kiritish bo'yicha ishlar rejalashtirilmoqda:

- Strategik rejalashtirish (investitsion loyihalarni ishlab chiqishda xatar va imkoniyatlarni hisobga olish);
- Byudjetlashtirish (iqlimiy tadbirlarni investitsion va operatsion byudjetda hisobga olish);
- Xaridlar (chiqindilarni kamaytirish bo'yicha chora ko'rayotgan va tegishli sertifikatlariga ega yetkazib beruvchilarga ustuvorlik).

Iqlim bilan bog'liq xatarlarni baholash metodologiyasi

Korxonada xatarlarni boshqarish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Identifikatsiya – “Navoiyuran” DKda xatarlarni tahlil qilishning asosiy maqsadi - Tashkilotning strategik va operatsion maqsadlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlashdir, ularning sabablari korxona nazoratida bo'lishidan qat'i nazar.

Tahlil jarayonida asosiy resurslar, biznes aloqalar va qiymat yaratish zanjirini shakllantiruvchi o'zaro bog'liqliklar iqlimiy xatarlarga ta'sirchanligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

Shuningdek, mumkin bo'lgan xatarlar va imkoniyatlarni aniqlash uchun qo'shimcha ichki va tashqi axborot manbalari o'rganildi.

2. Tahlil va ta'sirni baholash – Hisobotda faqat iqlim o'zgarishi bilan bog'liq, Korxonaning pul oqimlariga asosli tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatarlar va imkoniyatlar yoritiladi. Baholash jarayonida ikki asosiy omil inobatga olindi:

- hodisaning yuz berish ehtimoli;
- hodisa yuz bergan taqdirda Korxonaning moliyaviy istiqbollariga potensial ta'sir darajasi.

Barqaror rivojlanish bilan bog'liq xatarlar va imkoniyatlar aniqlangandan so'ng, “Navoiyuran” DK ularni ustuvorlashtirish va monitoring qilish jarayoniga rioya qiladi. Ustuvorlashtirishda ehtimollik va ta'sir darajasi hisobga olinadigan xatarlar matritsasi qo'llaniladi, bunda xatarlar juda yuqori, yuqori, o'rta va past darajalarga ajratiladi. Shu bosqichda qabul qilinadigan darajadagi xatarlarga muvofiq boshqaruv choralarini ishlab chiqish hamda oldini oluvchi va yumshatuvchi nazoratlarni joriy etish amalga oshiriladi.

3. Monitoring – Hozirgi vaqtda “Navoiyuran” DK iqlimiy xatarlarni monitoring qilish vositalarini ishlab chiqmoqda. Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) va asosiy xatar indikatorlari joriy etilmoqda. Iqlimiy xatarlarni boshqarish doirasida Korxona mahsulot birligiga to'g'ri keladigan chiqindilar intensivligini, dekarbonizatsiya loyihalarining amalga oshirilishini, normativ o'zgarishlarni tahlil qilishni va tartibga solish jarayonida ishtirok etishni kuzatib boradi.

4. Kommunikatsiya va hisobot – Xatarlarni boshqarish jarayoni bo'yicha ma'lumotlar har bir xatarning ustuvorligini inobatga olgan holda Korxonaning turli boshqaruv darajalariga aniq va tuzilmaviy shaklda yetkaziladi.

7. Iqlimiy o'tish strategiyasi

Korxona iqlimiy xatar va imkoniyatlarning muhimligini ularning ehtimolligi va moliyaviy ta'sir miqyosi nuqtayi nazaridan baholaydi. 2024-yilda “Navoiyuran” DK iqlim strategiyasini ishlab chiqishni boshladi va u 2025-yilda qabul qilindi. Strategiya 2060-yilga qadar uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan bo'lib, issiqxona gazlari chiqindilarini tizimli qisqartirishni, iqlimiy xatarlarni baholashni va global energetik o'tish sharoitida barqaror biznes-modelni shakllantirishni nazarda tutadi.

Bunga qo‘shimcha ravishda, biz bosqichma-bosqich va izchil dekarbonizatsiya yondashuviga amal qilamiz: Issiqxona gazlari chiqindilarining asosiy manbalarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini ko‘paytirish, ofset mexanizmlarini qo‘llash va texnologik jarayonlarni iqtisodiy hamda texnik jihatdan maqsadga muvofiq joylarda modernizatsiya qilish.

Dekarbonizatsiya bo‘yicha maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun Korxona 2025-yildan 2050-yilgacha bo‘lgan davrda moliyalashtirish manbalarini aniqlamoqda va moliyaviy reja shakllantirmoqda. O‘z mablag‘lari bilan bir qatorda, davlat imtiyozlari va subsidiyalaridan foydalanish, “yashil moliyalashtirish” vositalarini qo‘llash va boshqa manbalarni jalb etish ko‘rib chiqilmoqda. Iqlim strategiyasi 2025-yilda tasdiqlanganligi sababli, 2024-yilda ushbu sohada strategik tashabbuslarni amalga oshirish uchun mablag‘ ajratilmagan.

“Navoiyuran” DK iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida qadamlar tashlamoqda, jumladan, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish tashabbuslari amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar BMTning 13-sonli Barqaror rivojlanish maqsadini – iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni – inobatga oladi.

Barqaror rivojlanishga va ekologik izni minimallashtirishga intilib, biz issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha bir qator maqsadli ko‘rsatkichlarni belgiladik va bunda 2024-yil bazaviy yil sifatida qabul qilindi. Bunga sabab shundaki, 2024-yilda oxirgi uchta hisobot davrida eng yuqori issiqxona gazlari chiqindilari qayd etildi, bu esa 2021-yil darajasiga nisbatan uran oksidi ishlab chiqarish hajmining 47,5% ga ortishi oqibatida yuz berdi.

Ta’sir doiralari	Jamiyat bilan bo‘lishiladigan qiymat	Operatsiyalar
Dekarbonizatsiya maqsadlari	Parij kelishuvi asosiy maqsadini qo‘llab-quvvatlash – o‘rtacha global harorat o‘sishini 2°C dan pastda ushlab turish va 1,5°C bilan cheklashga intilish	Qamrov-1 va Qamrov-2 bo‘yicha issiqxona gazlari chiqindilarini 2027-yilga qadar 25% ga kamaytirish; To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita issiqxona gazlari chiqindilarini 2035-yilga 35% ga kamaytirish; To‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita issiqxona gazlari chiqindilarini 2050-yilga 50% ga kamaytirish; 2060-yilga kelib Qamrov-1 va Qamrov-2 bo‘yicha uglerod neytralligiga erishish.
Strategik ambitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash		
Issiqxona gazlari Qamrov-1	Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish;	1. Statsionar va nostatsionar manbalarni modernizatsiya qilish:

chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan iqlim siyosatining asosiy yo‘nalishlari.	Mintaqada barqaror rivojlanish va toza energiyani rag‘batlantirish; Past uglerodli iqtisodiyotga o‘tishga ko‘maklashish.	➤ Qozon uskunalarini modernizatsiya qilish: past uglerodli jihozlarga o‘tish va foydali ish koeffitsientini oshirish; ➤ Dizel generatorlari va kompressorlarini gaz va elektr analoglariga almashtirish; ➤ Chekka hududdagi obyektlar uchun avtonom quyosh panellarini joriy etish. 2. Avtoparkni elektrlashtirish: ➤ Xizmat maqsadlari va ichki-logistika uchun gibrid va to‘liq elektr transport vositalarini xarid qilish bo‘yicha pilot loyiha. 3. Energiya samaradorligini oshirish va logistika optimallashtirish: ➤ Avtotransport yo‘nalishlarini optimallashtirish, bekor turish va bo‘sh ishlashni kamaytirish; ➤ Yoqilg‘i samaradorligini monitoring qilish uchun raqamli yechimlarni joriy etish. 4. Innovatsion yechimlarni istiqbolli joriy etish: ➤ CO₂ ni ushlash va saqlash texnologiyalarini (CCUS) o‘rganish; ➤ Vodorod va muqobil past uglerodli yoqilg‘ilarni qo‘llash imkoniyatlarini baholash.
---	--	---

Issiqxona gazlari Qamrov-2 chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan iqlim siyosatining asosiy yo‘nalishlari.	Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish; Mintaqada barqaror rivojlanish va toza energiyani rag‘batlantirish; Past uglerodli iqtisodiyotga o‘tishga ko‘maklashish.	1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish: ➤ Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish (quyosh elektr stansiyalari qurilishi). 2. Energiya samaradorligini oshirish: ➤ Energiya samaradorligini oshirish dasturi: energiya auditidan so'ng uskunalarni modernizatsiya qilish, almashtirish va tuzatish. 3. Offset mexanizmlari va “yashil” sertifikatlardan foydalanish: ➤ Chiqindilarni kompensatsiya qilish uchun offset birliklari va “yashil” sertifikatlarni sotib olish. 4. CO₂ ni yutish bo‘yicha loyihalarni rivojlantirish: ➤ O‘rmonlarni ekish va tiklash, sanoat zonalarini ko‘kalamzorlashtirish.
--	---	--

8. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xatarlar va imkoniyatlar

Fizik iqlimiy xatarlar

Fizik xatarlar ro‘yxatiga iqlimiy ta’sir omillari bilan bog‘liq xavflar kiritiladi. Ular Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC) tomonidan G‘arbiy-Markaziy Osiyo uchun ehtimoliy deb tan olingan va kompaniya aktivlariga tasdiqlangan ta’sirga ega bo‘lganda hisobga olinadi. Qolgan potensial xavflar doimiy monitoring ostida bo‘ladi hamda ularning bahosi har yili qayta ko‘rib chiqiladi. Ta’sir kuchaygan yoki aktivlarning zaiflik darajasi o‘zgargan taqdirda, bunday xavflar reyestriga kiritilishi mumkin.

“Navoiyuran” DKning fizik xatarlar reyestri

PA1. Ekstremal issiq

Xatar darajasi: O'tkir

Vaqt oralig'i: Qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli

Xavf ta'siriga uchragan asosiy faoliyat xarajatlari moddalari: Operatsion xarajatlari

Qiymat yaratish zanjirida ushbu xatarga ta'sirchan biznes faoliyatining konsentratsiyasi: Uran mahsulotini qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog'liq operatsion faoliyat.

Xatar tavsifi:

Ekstremal issiqlik ish joylari va uskunalarni sovutish uchun energiya iste'moli ortishi tufayli energetika infratuzilmasiga yuklamani kuchaytiradi. Shuningdek, harorat 25°C dan yuqori bo'lganda quyosh fotoelektr stansiyalarining samaradorligi pasayadi, bu esa elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keladi.

Joriy ta'sir: 2024-yilda Korxona ekstremal issiqlik bilan bog'liq moliyaviy ahamiyatli ta'sirlarni aniqlamadi.

Kutilayotgan ta'sir:

Ekstremal issiqlik xavfining moliyaviy ta'siri, asosan, elektr energiyasiga qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq operatsion xarajatlarning oshishi orqali namoyon bo'ladi. Bu Korxonaning moliyaviy natijalariga (operatsion xarajatlarning o'sishi va sof foydaning kamayishi) hamda pul oqimlariga (operatsion faoliyatdan sof tushumlarning kamayishi) qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ta'sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, Korxonaning moliyaviy barqarorligiga qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda sezilarli ta'sir aniqlanmagan.

Korxona kutmoqda, ekstremal issiqlik tufayli elektr energiyasiga qo'shimcha xarajatlar vaqt o'tishi bilan ortib boradi va qisqa muddatda 1,7–3,5 mln AQSh dollari, o'rta muddatda 5,8–8,2 mln AQSh dollari, uzoq muddatda esa 10,8–27,1 mln AQSh dollari miqdorida bo'lishi mumkin.

Strategiya va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri:

Korxona "Iqlimiy o'tish strategiyasi"ni 7-bo'limda ochib bergan bo'lib, unda iqlimiy xatarlarni kamaytirish va ularga moslashish bo'yicha strategik yondashuvlar hamda belgilangan iqlimiy maqsadlar qamrab olingan. Iqlimiy xatarlar va imkoniyatlarga javob berish korxonaning amaldagi biznes-modelida jiddiy o'zgarishlarni talab qilmaydi, shu jumladan resurslarni qayta taqsimlash ehtimolini.

Korxona o'zining strategik iqlim dasturi doirasida ekstremal issiqlik xatarini kamaytirish uchun bevosita va bilvosita choralarni aniqlagan, jumladan:

- texnik basseynlarda suv bug'lanishini kamaytirish uchun himoya qoplamalarini o'rnatish;
- quyosh panellarini sovutish tizimlaridan foydalanish;
- ish joylari va uskunalarni sovutish uchun energiya samarador texnologiyalarga investitsiya kiritish;

- energiya auditi o'tkazish va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
- yuqori harorat sharoitida uskunalardan foydalanish protokollarini ishlab chiqish.

PA2. Qumli (changli) bo'ronlar

Xatar darajasi: O'tkir

Vaqt oralig'i: Qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli

Xavf ta'siriga uchragan asosiy faoliyat xarajatlari moddalari: Daromad, Operatsion xarajatlar

Qiymat yaratish zanjirida ushbu xatarga ta'sirchan biznes faoliyatining konsentratsiyasi: Uran mahsulotini qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog'liq operatsion faoliyat.

Xatar tavsifi:

Ko'rish imkoniyatining buzilishi va bo'ron davrida maydonga kirishning cheklanishi ishlab chiqarish logistikasi, xodimlar va uskunarlar harakatining vaqtincha to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Past ko'rinishchanlik sharoitida texnikaning, ayniqsa transport vositalarining vaqtincha ishdan chiqishi ehtimoli mavjud.

Shuningdek, chang va qum armatura, nasoslar va uskunalarga tushishi filtrlarda va quduqlarda tiqilib qolishga, uskunaning tezroq yeyilishiga va texnik xizmat ko'rsatishga qo'shimcha xarajatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Joriy ta'sir:

Qumli (changli) bo'ronlar xavfiga moslashuv bo'yicha amalga oshirilgan choralar tufayli, 2024-yilda "Navoiyuran" DKning ishlab chiqarish faoliyatiga va moliyaviy natijalariga ushbu xavfning sezilarli ta'siri qayd etilmadi.

Kutilayotgan ta'sir:

Amalga oshirilgan samarali moslashuv choralari ko'ra, Korxona qumli (changli) bo'ronlar xavfining moliyaviy holatiga, moliyaviy natijalariga va pul oqimlariga joriy, qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda sezilarli ta'sirini kutmaydi. Biroq, rahbariyat ishlab chiqarish jarayonlariga qumli (changli) bo'ronlarning potensial sezilarli ta'sirini inobatga olib, ushbu xavfni monitoring qilishni davom ettiradi.

Strategiya va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri:

Korxona "Iqlimiy o'tish strategiyasi"ni 7-bo'limda yoritgan bo'lib, unda iqlimiy xatarlarni kamaytirish va ularga moslashish bo'yicha strategik yondashuvlar hamda belgilangan iqlimiy maqsadlar qamrab olingan. Iqlimiy xatar va imkoniyatlarga javob berish korxonaning amaldagi biznes-modelida jiddiy o'zgarishlarni, shu jumladan resurslarni qayta taqsimlashni talab qilmaydi.

Korxona o'zining strategik iqlim dasturi doirasida qum (chang) bo'ronlari xavfini kamaytirish uchun to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita yumshatish va moslashish choralari, shu jumladan quyidagi harakatlarni belgilab oldi:

- quyosh panellarini shikastlanish va chang bilan ifloslanishdan himoya qilish uchun maxsus filtrlar va qoplamalarni o'rnatish;

- changli muhit sharoitida ularning samaradorligini ta'minlash maqsadida quyosh panellarini muntazam tozalash;
- bo'ronlar tufayli transport uzilishi holatlariga qarshi zaxira logistik yo'nalishlar va rejalarni ishlab chiqish;
- transport va uskunalarni changli sharoitga chidamli filtrlari va germetiklash tizimlari bilan jihozlash;
- bo'ronlar prognozlariga tezkor javob berish va biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun markazlashgan ob-havo monitoring tizimini yaratish.

PC1: Suv resurslarining tanqisligi

Xatar darajasi: Surunkali

Vaqt oralig'i: O'rta muddatli va uzoq muddatli

Xavf ta'siriga uchragan asosiy faoliyat xarajatlari moddalari: Operatsion xarajatlari

Qiymat yaratish zanjirida ushbu xatarga ta'sirchan biznes faoliyatining konsentratsiyasi: Uran mahsulotini qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog'liq operatsion faoliyat.

Xatar tavsifi:

Yer osti eritma usulida qazib olish texnologiyasi eritma tayyorlash va quduq tizimida bosimni saqlash uchun katta hajmda suv talab qiladi. Iqlim o'zgarishi mintaqada ichimlik yoki texnik suv tanqisligiga olib kelishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi uchun sezilarli tahdid hisoblanadi.

Joriy ta'sir: Hozirgi vaqtda Korxona yer osti manbalaridan suv olish uchun to'lov qilmaydi va bevosita moliyaviy ta'sir mavjud emas.

Kutilayotgan ta'sir: Mintaqada suv tanqisligi kuchaygan taqdirda suvdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish maqsadida tartibga solinadigan tarif joriy qilinishi mumkin. Korxona qisqa muddatda sezilarli moliyaviy ta'sirni kutmaydi, biroq suv olish uchun tartibga solinadigan tarif joriy etilganda qo'shimcha operatsion xarajatlar o'rta muddatda 2,9–4,7 mln AQSh dollari, uzoq muddatda esa 4,1–9,5 mln AQSh dollari miqdorida bo'lishi mumkin. Bu moliyaviy natijalarga (operatsion xarajatlarning o'sishi va sof foydaning kamayishi), shuningdek, pul oqimlariga (operatsion faoliyatdan sof tushumlarning kamayishi) ta'sir ko'rsatadi, biroq Korxonaning moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir keltirmaydi.

Strategiya va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri:

Korxona "Iqlimiy o'tish strategiyasi"ni 7-bo'limda yoritgan bo'lib, unda iqlimiy xatarlarni kamaytirish va ularga moslashish bo'yicha strategik yondashuvlar hamda belgilangan iqlimiy maqsadlar qamrab olingan. Iqlimiy xatar va imkoniyatlarga javob berish korxonaning amaldagi biznes-modelida jiddiy o'zgarishlarni, shu jumladan resurslarni qayta taqsimlashni talab qilmaydi.

Korxona o'zining strategik iqlim dasturi doirasida suv resurslarining kamayishi xavfini kamaytirish uchun to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita yumshatish va moslashish choralari, shu jumladan quyidagi harakatlarni belgilab oldi:

- suv iste'moli tizimlarini optimallashtirish, jumladan texnik suv uchun yopiq tizimlardan foydalanish;

- eritma yuborish tizimini optimallashtirish, jumladan yuboriladigan eritmalar hajmini kamaytirish va ularni qayta ishlatish;
- qazib olish hududlarida yer osti suvlarining darajasini doimiy monitoring qilish va suv tanqisligini prognozlash;
- boshqa hududlardan suv yetkazib berish kabi muqobil suv manbalarini ishlab chiqish;
- xo‘jalik ehtiyojlari uchun yomg‘ir suvini yig‘ish va undan foydalanish texnologiyalarini joriy etish;
- xodimlarni ichimlik suvi bilan ta‘minlash uchun samarali suv ta‘minoti tizimlarini ishlab chiqish, jumladan zaxira suv manbalarini yaratish;
- xodimlarni suv resurslaridan oqilona foydalanish va suvni tejash bo‘yicha korporativ madaniyat doirasida o‘qitish.

O‘tish davri iqlimiy xatarlari

IFRS S2 toifalariga muvofiq o‘tish davri xatarlarini baholash uchun “Navoiyuran” DK quyidagi ma‘lumot manbalariga tayangan holda asosiy xavf omillarini tahlil qiladi:

- uglerod tartibga solish bo‘yicha milliy normativ-huquqiy hujjatlar;
- xalqaro standartlar va tashabbuslar;
- sohada mavjud eng yaxshi texnologiyalar, xususan issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalar;
- raqobatchilarning iqlimiy strategiyalari;
- xaridorlar xatti-harakatlari tendensiyalari, uran narxlari shakllanishi;
- ESG reytinglari mezonlari;
- moliyaviy tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlarning talablari.

“Navoiyuran” DKning o‘tish davri xatarlar reyestri

TR: Uglerod uchun narx belgilash mexanizmlarini joriy etish

Toifa: Regulyatorlik

Vaqt oralig‘i: Qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli

Xavf ta‘siriga uchragan asosiy faoliyat xarajatlari moddalari: Operatsion xarajatlari, asosiy vositalari

Qiymat yaratish zanjirida ushbu xatarga ta‘sirchan biznes faoliyatining konsentratsiyasi: Uran mahsulotini qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq operatsion faoliyat.

Xatar tavsifi:

O‘zbekistonda uglerod uchun narx belgilash mexanizmi faol joriy etilmoqda va rivojlanmoqda. 2025-yil iyul oyida Respublika Prezidenti O‘zbekistonning Parij kelishuvi 6-moddasi doirasida xalqaro

uglerod birliklari (ITMO) aylanmasi tizimida ishtirok etish bo'yicha huquqiy va institutsional mexanizmlarni joriy etish to'g'risida farmon imzoladi. Kelgusida milliy hamda transchegaraviy uglerod choralarining kuchayishi kutilmoqda, jumladan, yuqori chiqindili mahsulotlarga nisbatan uglerod chegarasini tuzatish mexanizmi (CBAM) tatbiq etilishi, shuningdek uglerod solig'i yoki boji kiritilishi ehtimoli mavjud.

Joriy ta'sir: Hozirgi vaqtda O'zbekistonda uglerod solig'i qo'llanilmaydi. Biroq, uglerod tartibga solishning kuchayishiga tayyorgarlik doirasida Korxona uglerod izini kamaytirishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Jumladan, quyosh panellari o'rnatilmoqda, energiya samarador texnologiyalar joriy etilmoqda, "yashil" sertifikatlar xarid qilinmoqda. Ushbu choralar kelajakdagi uglerod mexanizmlarining operatsion xarajatlarga potensial ta'sirini yumshatishga yordam beradi. Energiya samaradorligi sohasida amalga oshirilayotgan tashabbuslarning batafsil tavsifi 10-bo'limda *"Asosiy ko'rsatkichlar va maqsadli qiymatlar"* (79-bet)da keltirilgan.

Kutilayotgan ta'sir: Uglerod tartibga solish joriy etilgan taqdirda, korxona qo'shimcha uglerod solig'i ko'rinishidagi operatsion xarajatlarning o'sishi bilan duch kelishi mumkin. Bu moliyaviy natijalarga (sof foydaning kamayishi), shuningdek pul oqimlariga (operatsion faoliyatdan sof tushumlarning kamayishi) qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, Korxonaning moliyaviy barqarorligiga qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda sezilarli ta'sir aniqlanmagan. Moliyaviy ta'sir qo'llaniladigan choralar xarakteri va miqyosiga qarab, mumkin bo'lgan qiymatlar diapazoni sifatida baholanadi.

Uglerod solig'i joriy etilishi xavfini yumshatish uchun Korxona energiya samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va quyosh elektr stansiyalarini o'rnatishga investitsiya kiritishni rejalashtirmoqda. Shuningdek, chiqindilarni qoplash maqsadida daraxt ekish, offset birliklari va "yashil" sertifikatlarni sotib olish xarajatlari ko'zda tutilmoqda. Dekarbonizatsiya bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarning batafsil tavsifi 7-bo'limda *"Iqlimiy o'tish strategiyasi"*da keltirilgan.

Keyingi jadvalda Korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlariga qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda dekarbonizatsiya bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda kutilayotgan ta'sirlar ko'rsatiladi.

Mazkur prognozlarga asoslanib, rahbariyat keyingi 12 oy davomida balansda aks ettirilgan aktivlar va majburiyatlarning qiymatida sezilarli o'zgarishlarni kutmaydi.

Ko'rsatkich (mln. AQSh dollari)	Joriy ta'sir	Qisqa muddatli ta'sir	O'rta muddatli ta'sir	Uzoq muddatli ta'sir
Moliyaviy holat:				
Quyosh elektr stansiyalari (asosiy vositalarning oshishi)	1.3	2.6	68.8	16.0

Uskunalar (asosiy vositalarning oshishi)	1.7	2.6	8.9	-
Moliyaviy natijalar:				
Dekarbonizatsiya choralari (operatsion xarajatlarning oshishi)	0.1	1.4	4.8	51.5
Uglerod solig'i (operatsion xarajatlarning oshishi)	0	3.2 dan 16.3 gacha	10.5 dan 47.9 gacha	16.3 dan 82.8 gacha
Pul oqimlari:				
Investitsion faoliyatda ishlatilgan mablag'lar	0	5.2	77.7	16.0
Operatsion faoliyatda ishlatilgan mablag'lar	0	4.6 dan 17.8 gacha	15.3 dan 52.7 gacha	67.8 dan 134.3 gacha

** Moliyaviy oqibatlarni tahlil qilish jarayonida asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalarning yillik amortizatsiyasi ta'siri, shuningdek, operatsion xarajatlarning ortishi bilan bog'liq aylanma kapitalga bo'ladigan ta'sir inobatga olinmadi.*

Strategiya va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri:

Korxona o'zining "Iqlim o'tish strategiyasi"ni 7-bo'limda (Iqlim xavflari va imkoniyatlari) ochib bergan bo'lib, u iqlim xavflariga moslashish va ularni kamaytirishning strategik yondashuvlari hamda belgilangan iqlim maqsadlarini o'z ichiga oladi. Iqlim xavflari va imkoniyatlariga javob berish korxonaning joriy biznes-modeli, shu jumladan resurslarni qayta taqsimlash imkoniyatini sezilarli darajada o'zgartirishni talab qilmaydi.

Korxona uglerod narxini joriy etishning regulyator xavfini kamaytirish uchun o'zining strategik iqlim dasturi doirasida quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita migratsiya va moslashish choralarni aniqlagan:

- Xodimlarni ekologik standartlar va majburiyatlar bo'yicha o'qitish.

- Samarali va iqtisodiy jihatdan oqlangan texnologiyalardan foydalangan holda chiqindilarni kamaytirish strategiyasini amalga oshirish.
- Energiya samaradorligi va past uglerodli yechimlarga sarmoya kiritish.
- Moliyaviy xavflarni minimallashtirish uchun yashil sertifikatlar va uglerod ofsetlaridan foydalanish.
- Uglerod izini muntazam audit qilish va tahlil qilish.
- Investitsiyalarni baholashda ichki “uglerod narxi”ni joriy etish.

TT: Energiya samarador texnologiyalardagi ortda qolish va energetika resurslari narxining oshishi

Toifa: Texnologik

Vaqt oralig'i: O'rta muddatli va uzoq muddatli

Xavf ta'siriga uchragan asosiy faoliyat xarajatlari moddolari: Operatsion xarajatlari

Qiymat yaratish zanjirida ushbu xatarga ta'sirchan biznes faoliyatining konsentratsiyasi: Uran mahsulotini qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog'liq operatsion faoliyat.

Xatar tavsifi: Energiya samarador uskunalarni (nasoslar, kompressorlar va stansiyalar) modernizatsiya qilmaslik qazilma yoqilg'ilarga yuqori darajada qaramlikni yuzaga keltiradi hamda uglerod energiyasiga tariflarning oshishi tufayli operatsion xarajatlarning ko'payishiga olib keladi.

Joriy ta'sir: Xatarining moliyaviy ta'siri elektr energiyasi xarajatlarining oshishi bilan bog'liq operatsion xarajatlarning ortishida ifodalanadi. Bu holat Korxonaning moliyaviy natijalariga (operatsion xarajatlarning o'sishi va sof foydaning kamayishi) hamda pul oqimlariga (operatsion faoliyatdan sof tushumlarning kamayishi) ta'sir ko'rsatishi mumkin. 2024-yilda korxonaning xarid qilingan elektr energiyasi bo'yicha xarajatlari 53,7 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

Kutilayotgan ta'sir: Qisqa muddatli davrda korxona o'zining moliyaviy holatida, moliyaviy natijalarida va pul oqimlarida sezilarli o'zgarishlarni kutmaydi. O'rta muddatli davrda elektr energiyasi bo'yicha qo'shimcha xarajatlar yiliga 7,5 mln dan 21 mln AQSh dollarigacha bo'lishi mumkin, uzoq muddatli davrda esa – yiliga 4,8 mln dan 9,1 mln AQSh dollarigacha bo'lishi mumkin. Bu operatsion foydaning kamayishi va pul oqimlarining ortishi orqali moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatadi, biroq Korxonaning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Energiya samaradorligini oshirish bo'yicha investitsiyalarning moliyaviy ta'siri TR xatarida: “Uglerod narxlash mexanizmlarini joriy etish” bo'yicha ochib berilgan.

Strategiya va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri:

Korxona o'zining “Iqlimiy o'tish strategiyasi”ni 7-bo'limda taqdim etgan bo'lib, unda iqlimiy xatarlarni moslashtirish va kamaytirish bo'yicha asosiy yondashuvlar hamda belgilangan iqlimiy maqsadlar yoritilgan. Iqlimiy xatarlar va imkoniyatlarga javob qaytarish korxonaning amaldagi biznes modeli doirasida sezilarli o'zgarishlarni talab qilmaydi, biroq resurslarni qayta taqsimlash ehtimolini o'z ichiga oladi.

Korxona energiya samarador texnologiyalardagi ortda qolish va energetika resurslari narxining oshishi xatarini kamaytirish maqsadida o'zining strategik iqlimiy dasturi doirasida bevosita va bilvosita mityagatsiya hamda adaptatsiya choralarini belgilagan, jumladan:

- Barqaror yechimlar orqali korporativ obro'ni mustahkamlash.
- Iste'molni kamaytirish va xarajatlarni optimallashtirish uchun energoaudit o'tkazish.
- Ishlab chiqarish jarayonlarini energiya talabchanligini kamaytirish uchun moslashtirish.
- Energiya samarador texnologiyalarga investitsiya kiritish.
- Alternativ energiya manbalarini joriy etish.
- Yashil moliyalashtirishni jalb qilish.
- Energetika shartnomalarini moslashuvchan boshqarish.
- Energiya resurslari bozorini monitoring qilish va jarayonlarni moslashtirish.

TM: Mahsulotning uglerod sig'imiga qo'yiladigan talablar

Toifa: Bozor

Vaqt oralig'i: O'rta muddatli va uzoq muddatli

Xavf ta'siriga uchragan asosiy faoliyat xarajatlari moddalari: Savdo tushumlari

Qiymat yaratish zanjirida ushbu xatarga ta'sirchan biznes faoliyatining konsentratsiyasi: Uran mahsulotini qazib olish va ishlab chiqarish bilan bog'liq operatsion faoliyat.

Xatar tavsifi: Global miqyosda uglerod chiqindilarini kamaytirishga e'tibor kuchayishi bilan, Korxona o'z mahsulotining uglerod izi bo'yicha qat'iy talablarga duch kelishi mumkin, ayniqsa xalqaro savdo va hamkorlik munosabatlari doirasida. Mahsulotning yuqori uglerod sig'imi bozorga kirish imkoniyatlarini cheklashi va mahsulotni majburiy chegirma bilan sotishga olib kelishi mumkin.

Joriy ta'sir: Hozirda korxona o'z mahsulotining uglerod iziga nisbatan qat'iy talablar bilan duch kelmayapti va bevosita moliyaviy ta'sir mavjud emas.

Kutilayotgan ta'sir: Qisqa muddatli davrda moliyaviy holatga, moliyaviy natijalarga va pul oqimlariga sezilarli ta'sir kutilmaydi, chunki amaldagi bozor sharoitlari narxlarni moslashtirish yoki yetkazib berish tuzilmasini o'zgartirishni talab qilmaydi. O'rta va uzoq muddatli davrda esa uranni realizatsiya qilish narxini majburiy ravishda pasaytirish shaklida moliyaviy ta'sir yuzaga kelishi mumkin. Bu mos ravishda 27,3 mln – 78,8 mln AQSh dollari va 20,3 mln – 65,7 mln AQSh dollarini tashkil etishi mumkin. Bu moliyaviy natijalarga (savdo tushumining kamayishi, yalpi va sof foydaning qisqarishi) hamda pul oqimlariga (operatsion faoliyatdan sof tushumlarning kamayishi) ta'sir qiladi, biroq Korxonaning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Strategiya va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri:

Korxona o'zining "Iqlimiy o'tish strategiyasi"ni 7-bo'limda taqdim etgan bo'lib, unda iqlimiy xatarlarni moslashtirish va kamaytirish bo'yicha asosiy yondashuvlar hamda belgilangan iqlimiy maqsadlar yoritilgan. Iqlimiy xatarlar va imkoniyatlarga javob qaytarish korxonaning amaldagi biznes modeli doirasida sezilarli o'zgarishlarni talab qilmaydi, biroq resurslarni qayta taqsimlash ehtimolini o'z ichiga oladi.

Korxona mahsulot uglerod sig'imga qo'yiladigan talablar xatarini kamaytirish maqsadida o'zining strategik iqlimiy dasturi doirasida bevosita va bilvosita mityagatsiya hamda adaptatsiya choralari belgilagan, jumladan:

- Uglerod sig'imini kamaytirish bo'yicha monitoring va hisobot tizimini joriy etish.
- ISO 14040/44 bo'yicha LCA (hayotiy sikl tahlili) o'tkazish.
- Iqtisodiy samaradorlikni hisobga olgan holda uskunalarni modernizatsiya qilish.
- Past uglerod sig'imli mahsulotlarga bo'lgan bozor va talabni tahlil qilish.
- Subsidiyalar, grantlar va soliq imtiyozlarini jalb qilish.
- Yashil moliyalashtirish va ESG-investitsiyalardan foydalanish.

Iqlimiy imkoniyatlar

OP1 - Energetik o'tish jarayonida uranga bo'lgan talabning o'sishi

Imkoniyatga mos keladigan biznes faoliyati: Uran xom ashyosini qazib olish va qayta ishlash

Vaqt oralig'i: Qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli

Xavf ta'siriga uchragan asosiy faoliyat xarajatlari moddolari: Savdo tushumlari, sotilgan mahsulot tannarxi, asosiy vositalar

Imkoniyat tavsifi: Global energetik o'tish sharoitida atom energetikasi past uglerodli energiya manbai sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Atom energetikasining ekologik barqaror faoliyat sifatida tan olinishi "yashil" moliyalashtirish va investitsiyalarga kengroq yo'l ochib beradi, bu esa sohaning texnologik rivojlanishini tezlashtiradi. Atom texnologiyalarining kengayishi iqlimiy maqsadlarga erishishga, uglevodorodlarga qaramlikni kamaytirishga va energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. O'zbekiston uran xom ashyosi yetkazib beruvchi sifatida global dekarbonizatsiya jarayonida strategik ustunlikka ega. Bu xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish, ilg'or tajriba almashish va barqaror rivojlanish sohasida uzoq muddatli sherikliklarni shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning uglerod sig'imini kamaytirish va elektr energiyasi ishlab chiqarish manbalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlar doirasida 2024-yilda Jizzax viloyatida kichik atom elektr stansiyasi qurilishiga tayyorgarlik boshlandi. 2025-yilda esa yirik atom stansiyasini qurish imkoniyatini o'rganish bo'yicha kelishuv imzolandi.

Biznes modelini moslashtirish: Global energetik o'tish sharoitida uranga bo'lgan dunyo talabining o'sishiga javoban, "Navoiyuran" DK o'z biznes modelini moslashtirmoqda. 2024-yilda uran qazib olish hajmi 2023-yilga nisbatan 28,4% ga oshdi va 2025-yilda ham o'sish rejalashtirilmoqda. Korxona ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va kengaytirishga, jumladan, mavjud jarayonlarni optimallashtirish hamda yangi uchastkalarni o'zlashtirishga investitsiya kiritishni ko'rib chiqmoqda. Bu barqaror ravishda qazib olish hajmlarini oshirish va operatsion samaradorlikni yuksaltirish imkonini beradi.

Joriy va kutilayotgan moliyaviy ta'sir: Uranga bo'lgan talabning o'sishi uran mahsulotlari bozor narxining oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa Korxonaning operatsion tushumlarining o'sishida aks etishi ehtimoldan xoli emas. Biroq, uzoq muddatli narx prognozlar bilan bog'liq yuqori darajadagi noaniqlik va tahlilning joriy bosqichini hisobga olgan holda, Korxona joriy va kutilayotgan moliyaviy

ta'sirning har qanday miqdoriy baholashlari dolzarb ma'lumotni taqdim etmaydi, degan xulosaga keldi.

9. Iqlimiy ssenariylar tahliliga asoslangan barqarorlikni oshirish

“Navoiyuran” DK iqlimiy ssenariylar tahlilini amalga oshiradi, jumladan, Iqlim o'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC)ning so'nggi prognozlar va Moliyaviy tizimni yashillashtirish tarmog'i (NGFS) ssenariylariga asoslangan tahlillarni o'tkazadi. Ular mos ravishda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq fizik va o'tish davri xatarlarini hamda imkoniyatlarini aniqlash, tasniflash va miqdoriy baholash uchun qo'llaniladi.

Korxona xalqaro miqyosda tan olingan, ilmiy hamjamiyat tomonidan tasdiqlangan chuqur tadqiqotlar va prognozlarga asoslangan modellar yordamida iqlimiy ssenariylarni tanlaydi. Bu esa kelajakdagi iqlimiy sharoitlarni va potentsial iqtisodiy ta'sirlarni baholash uchun ishonchli asos yaratadi. Ushbu ssenariylarning ko'lami korxonaning iqlimiy ta'sirlarga nisbatan barqarorligini har tomonlama baholash uchun puxta hisobga olinadi.

Quyidagi jadvalda har bir aniqlangan xatar va imkoniyatning iqlimiy ssenariylar bo'yicha tasniflash darajalari ko'rsatilgan.

Xatar kodi	Dekarbonizatsiya choralari amalga oshirilishidan oldingi ta'sir, NDCs ssenariysi			Dekarbonizatsiya choralari amalga oshirilishidan oldingi ta'sir, 2°C dan past ssenariy		
	2027	2035	2050	2027	2035	2050
TR	O'rta	O'rta	Baland	O'rta	Baland	Baland
TT	O'rta	O'rta	O'rta	O'rta	Baland	O'rta
TM	O'rta	Baland	Baland	O'rta	Baland	Baland
OP1	Past	Past	O'rta	Past	O'rta	Baland

Xatar kodi	SSP2.6 ssenariy			SSP4.5 ssenariy			SSP8.5 ssenariy		
	2027	2035	2050	2027	2035	2050	2027	2035	2050
PA1	O'rta	O'rta	O'rta	O'rta	O'rta	Baland	O'rta	O'rta	Baland
PA2	Past	Past	Past	Past	Past	Past	Past	Past	Past
PC1	Past	O'rta	O'rta	Past	O'rta	O'rta	Past	O'rta	O'rta

Fizik xatarlar

2024-moliyaviy yilda “Navoiyuran” DKning amaldagi ishlab chiqarish maydonlarida iqlimiy o'zgarishlarga moslashish bo'yicha rejalarni tayyorlash va amalga oshirishga asos bo'lgan fizik xatarlarga duchor bo'lishi mumkin bo'lgan aktivlarning zaifligini baholash o'tkazildi.

Iqlimiy ta'sirlarni baholashda aktivlarning joylashuvi hisobga olindi, shuningdek, keng e'tirof etilgan CMIP (Climate Model Intercomparison Project) 5 va 6-versiyalaridan olingan iqlimiy ma'lumotlardan foydalanildi. Ushbu loyiha iqlimiy o'zgarishlar oqibatlarini tahlil qilishda eng yaxshi mavjud texnologiya sifatida tan olingan.

Fizik iqlimiy xatarlarning ta'sirini tahlil qilish uchun quyidagi uchta ssenariydan foydalanishga qaror qilindi:

- SSP1-2.6: Ushbu ssenariy minimal chiqindilar bilan barqaror rivojlanish xarakteriga ega. U Parij kelishuvi maqsadlariga erishishga qaratilgan issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirish bo'yicha katta sa'y-harakatlarni nazarda tutadi. Natijada 2100-yilga kelib qo'shimcha radiatsion ta'sir $2,6 \text{ Vt/m}^2$ ni tashkil qiladi, bu esa sanoatgacha bo'lgan darajaga nisbatan Yer yuzasining har bir kvadrat metrida atmosferada qo'shimcha 2,6 vatt energiya ushlab turilishiga olib keladi.
- SSP2-4.5: O'rtacha yo'l ssenariysi bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish siyosatlarida sezilarli o'zgarishsiz davom etadi. 2100-yilga kelib qo'shimcha radiatsion ta'sir $4,5 \text{ Vt/m}^2$ ni tashkil qiladi.
- SSP5-8.5: Qazilma yoqilg'ilardan intensiv foydalanish va yuqori chiqindi darajalarini nazarda tutuvchi ssenariy. U tezlashtirilgan iqtisodiy o'sish va issiqxona gazlari emissiyalarining yuqori darajalari bilan xarakterlanadi, natijada 2100-yilga kelib radiatsion ta'sir $8,5 \text{ Vt/m}^2$ ni tashkil qiladi.

<i>Fizik iqlimiy xatarlar bo'yicha ssenariy tahlili parametrlari</i>	
Makroiqtisodiy tendensiyalar	Aholi sonining o'sishi, texnologik rivojlanish, iqtisodiy o'sish, shuningdek, energiya, yer resurslaridan foydalanish va issiqxona gazlari chiqindilari bilan bog'liq keng omillar (IPCC) Iqlim o'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo ekspertlar guruhi ssenariylariga muvofiq.
Boshlang'ich tahminlar	SSP1-2.6, SSP2-4.5 va SSP5-8.5 ssenariylari (CMIP) Iqlimiy modellarning taqqoslash loyihasining 5 va 6-versiyalari ma'lumotlaridan foydalanilgan holda.
Vaqt oralig'i	Tahlil qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli davrlarni qamrab oladi, umumiy davr – 25 yil (2025-yildan 2050-yilgacha).
Ssenariy tahlilini o'tkazish	Ssenariy tahlili 2024-yilda o'tkazilgan.
Tahlil qamrovi	Uran qazib olish Korxonaning asosiy texnologik jarayoni hisoblanadi. Aynan shu jarayon uchun iqlimiy xatarlar aniqlangan va ssenariy tahlili o'tkazilgan. Tahlil Korxonaning barcha aktivlari uchun amalga oshirilgan bo'lib, ular O'zbekistonning to'rtta viloyatida joylashgan: Navoiy, Buxoro, Samarqand va Jizzax viloyatlari.
Tahlil natijalariga oid xulosalar	Stsenariylar orasidagi farq iqlim hodisalarining chastotasi va intensivligidadir. Biroq, Korxonaning operatsion modeli moslashuv xarajatlariga investitsiyalarning ko'payishi orqali iqlim hodisalari

	chastotasining ortishi bilan kurashish uchun etarlicha chidamli bo'lib, operatsion uzilishlarni boshqarish uchun moslashuvchan imkoniyatlarni taqdim etadi.
--	---

Muhim mulohazalar va noaniqliklar

Iqlimiy prognozlarni tuzishda qisqa muddatli hamda uzoq muddatli istiqbollarda quyidagi omillar bilan bog'liq noaniqliklar saqlanib qoladi:

- **Issiqxona gazlari (IG)ning kelajakdagi chiqindilari:**
“Navoiyuran” DK keng prognoz baholarini ta'minlovchi bir nechta asosli chiqindilar ssenariylari va iqlimiy modellardan foydalanadi.
- **Iqlimiy modellarning cheklavlari:**
Hech bir iqlimiy model iqlim tizimining xatti-harakatlarini to'liq va aniq qayta tiklab bera olmaydi. Foydalanilgan tahlilda turli modellardan olingan ma'lumotlarni birlashtirishda og'ishlarni tuzatish va statistik usullar qo'llanilgan, shuningdek, noaniqlik darajasini kamaytirish maqsadida natijalar turli vaqt oraliqlari uchun agregatsiya qilingan.
- **Tashqi sharoitlar:**
Korxona ishlab chiqarish obyektlariga turli iqlimiy xavflar, jumladan, toshqinlar va kuchli shamollarning ta'siri uning hududidan tashqaridagi yer resurslaridan foydalanish xususiyatlariga bog'liq. Amaldagi tahlil doirasida mavjud tabiiy-geografik sharoitlar inobatga olingan.

O'tish davri xatarlar va imkoniyatlar

O'tish davridagi iqlimiy xatarlar bo'yicha ssenariy tahlili NGFS Phase V – Below 2°C va Nationally Determined Contributions (NDCs) ssenariylariga asoslangan holda umumqabul qilingan metodologiyalar bo'yicha amalga oshirildi. Ushbu ssenariy doiralari global iqtisodiyotning turli transformatsiya variantlarini hududiy differensiasiyani hisobga olgan holda qayta yaratish imkonini beradi, shuningdek, O'zbekiston uchun tegishli miqdoriy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Unga CO₂ chiqindilari narxlarining prognoz darajalari, energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining kutilayotgan ulushi va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi.

Bazaviy ssenariy Korxonaning biznes strategiyasini ishlab chiqish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi va global iqtisodiyot hamda Kompaniya faoliyati uchun muhim bo'lgan tarmoqlar bilan bog'liq o'rta va uzoq muddatli prognozlarni, shuningdek, talab, taklif va narxlarning bozor tahlilini o'z ichiga oladi. Bazaviy ssenariy sifatida mo'tadil tranzit xatarlarini aks ettiruvchi Nationally Determined Contributions (NDCs) ssenariysi qo'llaniladi.

NGFS ssenariy	Tavsif	2100-yilga kelib isishni cheklash maqsadi	Asosiy farazlar
Below 2°C	Moʻtadil darajada ambitsiyali ssenariy boʻlib, isishni 2 °C darajadan past darajada cheklashga qaratilgan	~1,6 °C	Past uglerodli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich oʻtish, uglerod uchun yuqori narxlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya samaradorligini tezlashtirilgan joriy etish
Nationally Determined Contributions (NDCs)	2024 yil boshidagi mamlakatlarning (NDC) deklaratsiyalangan majburiyatlarini amalga oshirish, biroq 2050 yilgacha Net Zero global maqsadiga erishmasdan	2,3 °C	Chiqindilarni kamaytirish boʻyicha choralar turlicha darajada, CO ₂ narxlari faqat ayrim mamlakatlarda, energetika sektorida cheklangan islohotlar

Oʻtish davridagi iqlimiy xatarlar boʻyicha ssenariy tahlili parametrlari

Makroiqtisodiy tendensiyalar	Ssenariylar asosan toʻrtta makrotrendga asoslanadi: (i) iqtisodiy oʻsish; (ii) demografik oʻzgarishlar; (iii) siyosiy va texnologik oʻzgarishlar; (iv) energetik oʻtish va dekarbonizatsiya surʼati, NGFS ssenariylarida aks etganidek.
Boshlangʻich tahminlar	Asosiy taxminlar NGFS ssenariylariga asoslangan boʻlib, ularga demografik oʻzgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, uglerod narxlari, qazilma yoqilgʻi qiymati, davlatning iqlimiy siyosati, shuningdek, texnik va iqtisodiy parametrlarga oid prognozlar kiradi. Barcha farazlar Oʻzbekiston uchun NGFS Phase V (GCAM 6.0 modeli) maʼlumotlariga asoslangan.
Vaqt oraligʻi	Tahlil qisqa muddatli, oʻrta muddatli va uzoq muddatli davrlarni qamrab oladi, umumiy davr – 25 yil (2025-yildan 2050-yilgacha).
Ssenariy tahlilini oʻtkazish	Ssenariy tahlili 2024-yilda amalga oshirilgan.
Tahlil qamrovi	Uran qazib olish Korxonaning asosiy texnologik jarayoni boʻlib, aynan shu jarayon uchun oʻtish davridagi iqlimiy xatarlar aniqlangan va ssenariy tahlili oʻtkazilgan.

Quyidagi jadvalda koʻrib chiqilayotgan ssenariylar amalga oshirilgan taqdirda Korxona strategiyasi va biznes modeliga taʼsir tahlili keltirilgan:

Xatar / Imkoniyat	NDCs ssenariysi	Below 2°C ssenariysi
TR: Uglerod narxlar mexanizmlarini joriy etish (regulyator xatar)	Deklaratsiya qilingan majburiyatlar doirasida uglerod solig'ini bosqichma-bosqich joriy etish o'rta va uzoq muddatli davrda operatsion xarajatlarning mo'tadil o'sishiga olib kelishi mumkin. Bu Korxonaning biznes modelini zudlik bilan kapital qo'yilmalarsiz moslashtirish imkonini beradi.	Yanada agressiv iqlim siyosati chiqindilarga talablarning kuchayishi va qisqa muddatli istiqbolda uglerod soliqlarining keskin oshirilishini nazarda tutadi. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini qayta ko'rib chiqishni va dekarbonizatsiyaga tezlashtirilgan investitsiyalarni talab qilishi mumkin.
TT: Energiya samarador texnologiyalarda gi ortda qolish va energetika resurslari narxining oshishi (texnologik xatar)	Tozaroq energiya manbalariga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshadi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi oshganiga qaramay, iste'mol qilinadigan elektr energiyasining katta qismi uglerod sig'imi yuqori manbalardan kelishda davom etadi. Elektr energiyasi tariflari mo'tadil sur'atda oshib, mahsulot tannarxiga cheklangan bosim o'tkazadi.	Elektr energiyasi tariflarining tezkor o'sishi, ayniqsa uglerod sig'imi yuqori bo'lgan manbalardan. Korxona energiya talabchanligini kamaytirish va elektr energiyasi bo'yicha operatsion xarajatlarni qisqartirish hamda uglerod sig'imi yuqori manbalarga qaramlikni kamaytirish uchun uskuna va jarayonlarni zudlik bilan modernizatsiya qilish zaruratiga duch keladi.
TM: Mahsulotning uglerod sig'imiga qo'yiladigan talablar (bozor xatari)	Yuqori uglerod izi bo'lgan uran bozor qiymatiga mo'tadil bosim. Xatar mahsulotning uglerod profilini bosqichma-bosqich kamaytirish orqali boshqarib boriladi.	Uglerod narxining keskin o'sishi uglerod sig'imi yuqori mahsulotlarga bosimni kuchaytiradi. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda bozor qiymatini yo'qotish xavfi yuqori bo'lib, bu dekarbonizatsiyaga tezlashtirilgan investitsiyalarni talab qilishi mumkin.
Faoliyatining biologik xilma-xillikka ta'siri yangi ob'ektlarni loyihalash va amalga oshirish bosqichida hisobga olinadi. Barcha loyihalar ekologik ekspertizadan o'tadi, bu jarayonda hujjatlar tayyorlanishi va kelishilishi (PDV, PDS, ZVOS, PDO) hamda mahalliy aholi va nazorat organlari ishtirokida majburiy jamoat muhokamasi tashkil etiladi. Bunday yondoshuv o'simliklar va xayvonlar uchun potensial xavflarni o'z vaqtida aniqlash va ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tabiiy majmualarga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish maqsadida “Navoiyuran” DKda uran qazib olishning an'anaviy usullariga nisbatan bir qator ekologik afzalliklarga ega bo'lgan yig'ma yuvish usuli qo'llaniladi.

Bu yondashuv quyidagilarni ta'minlaydi:

- massiv tuproq ishlaridan qochish orqali o'simliklarga antropogen yukni kamaytirish;
- kimyoviy reagentlarning nazorat qilinadigan hajmlaridan tuproq va suv ifloslanishining minimal xavfi bilan foydalanish;
- chang hosil bo'lishini va atmosferaga chiqindilarni kamaytirish;
- atrof-muhitga cheklangan fazoviy ta'sir.

O'zbekiston Respublikasining **“Yashil makon”** milliy loyihasi doirasida “Navoiyuran” DK obodonlashtirish ishlarida faol ishtirok etmoqda. 2024-yilda Korxona ob'ektlarida 27 780 tup daraxt ekildi. Ushbu tadbirlar buzilgan yerlarni tiklash, mikroiklimni yaxshilash va biologik xilma-xillikni saqlashga qaratilgan.

Konlarni o'zlashtirish yakunlanganidan so'ng yer maydonlari rekultivatsiya qilinadi, bu esa yerlarni qisqa vaqt ichida qishloq xo'jaligida qayta foydalanish imkonini yaratadi. 2024-yilda 468 ga yer rekultivatsiya qilindi, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 15 barobar ko'pdir. Shu bilan birga, texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan yer osti suvlari bir necha yil ichida tabiiy holda tiklanadi va bu uzoq muddatli ekologik afzalliklar hamda hududlarni barqaror rivojlantirishni ta'minlaydi.

Korxona ekologik tashabbuslarni, jumladan, ekotizimni tiklash va biologik turlarni saqlash nuqtai nazaridan amalga oshirishda davom etadi. Ustivorlik nafaqat ekologik qonunchilikka rioya qilish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy kapital sohasida mavjud ilg'or tajribalarni joriy etish bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy mas'uliyat


2024-yilda “Navoiyuran” DK barqaror rivojlanishning asosiy elementi sifatida ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirdi. Xususan, mehnat munosabatlarini takomillashtirish va qulay mehnat sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Bu yo'nalishdagi ishlarning huquqiy va tashkiliy asosini Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Mehnat kodeksi, jamoa shartnomasi, shuningdek kadrlar siyosati, mukofotlash va etika bo'yicha ichki nizomlar tashkil etadi. Ushbu hujjatlar jarayonlarning ochiqligi, kadrlarni adolatli tanlash va lavozimga ilgari surish, xodimlarni rag'batlantirish hamda ish yuritish etikasi me'yorlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Ijtimoiy mas'uliyatni boshqarish tizimining shakllanishi korporativ madaniyatni mustahkamlaydi va xodimlarning faol ishtirokini oshiradi.

Kadrlar tarkibi

GRI 3-3, GRI 2-7, GRI 2-8, GRI 405-1, SASB EM-MM-000.B

2024-yil yakuniga ko'ra, “Navoiyuran” DK xodimlarining soni 9 459 nafarni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 5,6% ga ko'pdir. Kadrlar tarkibining o'sishi ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga amalga oshirilmoqda.

Shtat bo'yicha xodimlar soni, kishi




Tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, xodimlarning asosiy qismini erkaklar (91 %) tashkil etadi. Biroq, Korxona ayollarning (9 %) kasbiy rivojlanishini faol qo'llab-quvvatlaydi, ular uchun malaka oshirish va kasbiy o'sishda teng imkoniyatlarni yaratadi. 2024-yil yakuniga ko'ra, ayollar soni 889 nafarni tashkil etdi, bu esa o'tgan davrga nisbatan 0,7 % ga ko'p.

Biz barqaror ish bilan ta'minlash tamoyillariga amal qilamiz: xodimlarimizning 100 %i uzoq muddatli mehnat shartnomalari asosida ishga joylashtirilgan. To'liq ish vaqtli tartibda 99,7 % xodim (9 429 nafar) ishlaydi, bu esa Korxonaning barqaror kadrlar siyosatini tasdiqlaydi. Qisman ish vaqtini tanlaganlar ulushi 0,3 % (30 nafar)ni tashkil etadi. “Navoiyuran” DKda nomuazzam ish bilan ta'minlash holatlari mavjud emas. 2024-yil holatiga ko'ra, “Navoiyuran” DK shtatda bo'lmagan 20 nafar mutaxassislar bilan hamkorlik qilmoqda. Ular fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida jalb etilgan bo'lib, tashqi maslahatchi va ekspert sifatida konsalting xizmatlarini ko'rsatadilar.

2024-yil yakuniga ko'ra kadrlar tuzilmasi (gender va yoshi bo'yicha), kishi



2024-yil holatida kadrlar tuzilmasi (hudud kesimida), kishi



“Navoiyuran” DK O‘zbekiston Respublikasining turli hududlarida faoliyat yuritib, aholi bandligini ta’minlaydi hamda mamlakat bo‘ylab yuqori malakali mutaxassislarni jalb etmoqda. Xodimlarning geografik taqsimoti korxonaning keng ko‘lamli ishlab chiqarish va loyiha faoliyatini aks ettiradi.


Xodimlarni ishga olish va kadrlar almashinuvi

GRI 401-1

Biz xodimlarimizning professionalligini yuksak qadrlaymiz va iste'dodli kadrlarni saqlab qolish masalasiga alohida e'tibor qaratamiz. 2024-yilda kadrlar almashinuv koeffitsienti⁵ 0,95 % ni tashkil etdi. Erkaklar koeffitsienti - 0,94 %, ayollar esa - 0,99 %ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar korxonadagi barqaror holatni ifoda etadi. Biz kadrlar o'zgarishi dinamikasini chuqur tahlil qilib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga o'z vaqtida javob choralari ko'rib boramiz. "Navoiyuran" DKda biz iste'dodli, tashabbuskor va professional kadrlarni jalb etishga intildik. Ular korxona qiymatlarini qo'llab-quvvatlaydi va uning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Xodimlarni tanlash jarayoni ochiqlik, xolislik va teng imkoniyatlar prinsiplari asosida olib boriladi, bu esa kuchli, motivatsiyaga ega va sadoqatli jamoani shakllantirishga xizmat qiladi.


2024-yilda "Navoiyuran" DKga 897 nafar xodim ishga qabul qilindi. Xodimlar sonining asosiy o'sishi ishlab chiqarish bo'linmalari hissasiga to'g'ri keldi, bu esa korxonaning faoliyat ko'lamini kengaytirishi va yangi loyihalarni amalga oshirishi bilan bog'liq. Bu holat korxonaning o'sishning faol bosqichida ekanligini va uning operatsion salohiyatini kuchaytirishga intilayotganini tasdiqlaydi.

2024-yilda ishga qabul qilingan xodimlar strukturasi gender va yosh guruhleri bo'yicha, (nafar)




⁵ Kadrlar almashinuvi hisoblash formulasi – Chbosh/Chox, bunda: Chbosh va Chox – tashkilot xodimlari soni mos ravishda davr boshida va oxirida. Agar ko'rsatkich birdan kichik bo'lsa, tashkilot kadrlar almashinuvi bilan tavsiflanadi. Kadrlar almashinuvi hisob-kitobi 2015-yil 28-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 207-son qarori bilan tasdiqlangan «Aksiyadorlik jamiyatlari va davlat ulushi mavjud bo'lgan boshqa xo'jalik subyektlari faoliyat samaradorligini baholash mezonlari to'g'risida»gi Nizomning 3(b)-ilovasining 16-bandida belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.


2024-yilda ishga qabul qilingan xodimlar strukturasi hudud kesimida, (nafar)



2024-yilda ishdan bo'shatilgan xodimlar strukturasi gender va yosh guruhlari bo'yicha, (nafar)



2024-yilda ishdan bo'shatilgan xodimlar strukturasi hudud kesimida, (nafar)




Xilma-xillik va teng imkoniyatlar

GRI 3-3, GRI 405-1

Biz inklyuziv va qulay ish muhitini yaratishga intilamiz hamda barcha xodimlarga kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun teng shart-sharoitlarni ta'minlaymiz. "Navoiyuran" DKda ishga qabul qilish va xizmatda ilgarilash jarayoni nomzodlarning malakasi va tajribasini xolisona baholash hamda xizmatlari asosida amalga oshiriladi. Korxonaning ustuvor yo'nalishlaridan biri – xodimlarga ularning genderi, etnik, diniy, irqiy, yosh va boshqa mansubliklaridan qat'i nazar teng huquq va imkoniyatlarni berishdir.

Biz jamoamizning xilma-xilligidan, bu inklyuzivlik va milliy-madaniy xususiyatlarga ulug'lovchi munosabat madaniyatining ifodasi sifatida g'ururlanamiz. "Navoiyuran" DKda turli millat vakillari ishlaydi, bu esa har bir xodimning hissasini qadrlaydigan ko'p madaniyatli va totuv ish muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. "Navoiyuran" DK xodimlari tarkibida 6 tadan ortiq millat vakillari namoyondir.

2024-yildagi xodimlar strukturasi millatlar kesimida (kishilar):



Biz kelgusida ham jamoamizdagi xilma-xillikni rivojlantirish va mustahkamlashni, turli madaniyatlar va etnik guruhlar vakillarining korxonadagi ishtiroqini kengaytirish bo'yicha tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlashni maqsad qilganmiz. Yaqin istiqbolda Korxona quyidagilarni rejalashtirmoqda:

- Xodimlarning xabardorligini oshirish maqsadida korporativ o'quv dasturlariga **xilma-xillik va inklyuzivlik mavzularida seminarlarni** kiritish;
- Mos tashabbuslarni muvofiqlashtirish va ilgari surish, shuningdek erishilgan natijalarni monitoring qilish bilan shug'ullanadigan **xilma-xillik masalalari bo'yicha qo'mita** tuzish;
- Xalqaro DEI (Diversity, Equity, Inclusion) standartlariga muvofiq tarzda joriy dasturlarning samaradorligini muntazam **baholash va qayta ko'rib chiqish**.

Ayollarni qo'llab-quvvatlash

Gender tengligi va ijtimoiy inklyuzivlik prinsiplarini amalga oshirish doirasida "Navoiyuran" DK korxonada mehnat qilayotgan ayollar uchun qulay muhit yaratish maqsadida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2023-yil 27-yanvardagi 1-1CH-sonli buyrug'iga asosan, korxonada 2023-yil 17-fevraldagi

bayonnoma bilan Ayollar qo‘mitasi tashkil etilgan. Uning faoliyati ayollar jamoasini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, farovonligini oshirish va jamiyatdagi ishtirokini kengaytirishga yo‘naltirilgan.

Ayollar qo‘mitasi rais rahbarligida faoliyat yuritadi va turli tuzilmalardan vakillarni o‘z ichiga oladi. U Bosh direktorga hisobdor bo‘lib, davlat tili bo‘yicha maslahatchi hamda kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan hamkorlik qiladi. Kengashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- tegishli davlat organlari bilan hamkorlik;
- ayollarning ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- madaniy, sport va ta’lim dasturlarini tashkil etish;
- mehnat va turmush sharoiti bilan bog‘liq masalalarni hal etishga ko‘maklashish, shu jumladan har oylik hisobot taqdim etish.

2024-yilda amalga oshirilgan asosiy tadbirlar:

- *“Kombinatning oltin ayoli”* tanlovi “NKMK” AJ va “NKMK jamg‘armasi” DM bilan hamkorlikda o‘tkazilib, korxonaning eng faol ayollari aniqlandi va taqdirlandi.
- *“Har bir kun Navro‘z bo‘lsin, aziz O‘zbekistonim”* bayram tadbiri o‘tkazilib, unda ayollar milliy hunarmandchilik va pazandachilik bo‘yicha bellashuvlarda ishtirok etdilar.
- Ayollar sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mavzusida seminar o‘tkazildi.
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar ro‘yxatlari tuzilib, ularga oziq-ovqat yordam to‘plamlari berildi.
- Mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish maqsadida ayollar mehnat sharoitini yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rildi, shu jumladan homilador xodimalar yengil turdagi ishlarga o‘tkazildi.
- Xalqaro Oila kuniga bag‘ishlab *“Oila — muqaddas maskan”* shiori ostida uchrashuvlar tashkil etildi.
- Davlat idoralari vakillari ishtirokida ayollar va erkaklar huquq va imkoniyatlari tengligi bo‘yicha seminarlar o‘tkazildi.
- An’anaviy hunarmandchilik, pazandachilik va qo‘shimcha daromad keltiradigan boshqa faoliyat turlari bo‘yicha mahorat darslari tashkil etildi. Natijada *“Oltin qo‘llar”* tanlovi o‘tkazildi.
- Ichki turizm dasturi doirasida O‘zbekistonning tarixiy va madaniy obidalariga sayohatlar amalga oshirildi.
- Muayyan hayotiy qiyin ahvolga tushib qolgan ayollarga huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatildi.
- Zafarobod shaharchasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan tadbir bo‘lib o‘tdi.
- Faol turmush tarzini ommalashtirish maqsadida ayol-xodimalar va ularning farzandlari o‘rtasida velomarafon tashkil etildi.

- Korxona xodimalari viloyat hokimligi ko‘magida o‘tkazilgan “Xon-Atlas” festivalida ishtirok etdilar.
- Faol ishtirok etgan xodimlar minnatdorlik xatlari, faxriy yorliqlar va pul mukofotlari bilan taqdirlanish uchun taklif etildi.

Ayollar qo‘mitasi korxonada ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, korporativ madaniyatni rivojlantirish va yanada inklyuziv hamda qo‘llab-quvvatlovchi ish muhitini shakllantirishda muhim hissa qo‘shib kelmoqda.

Mehnatga haq to‘lash va mukofotlash

GRI 405-2, GRI 202-1

“Navoiyuran” DKda xodimlar o‘rtasida ishonch va sadoqatni mustahkamlash uchun mehnat haqining adolatli va raqobatbardoshligini ta‘minlab, juda katta harakatlar amalga oshirilmoqda. 2024-yilda korxonada o‘rtacha oylik maosh 0,81 ming AQSh dollarini tashkil etdi, bu O‘zbekiston Respublikasidagi eng kam ish haqi miqdoridan 790% yuqori ko‘rsatkichdir.

“Navoiyuran” DK xodimlarini mukofotlash to‘g‘risidagi Nizom rag‘batlantirish to‘lovlarini hisoblash shartlari va tartibini belgilaydi. Xodimlar qo‘shimcha (me‘yordan ortiq) ishga jalb etilgan taqdirda, 2022-yil 4-noyabrdagi Jamoa shartnomasiga muvofiq, ikki barobar haq to‘lash yoki ekvivalent dam olish vaqti berish imkoniyati taqdim etiladi.

2024-yilda erkaklarning o‘rtacha ish haqi 838 AQSh dollarini, ayollarniki esa 602 AQSh dollarini tashkil etdi.

Ayollarning o‘rtacha oylik ish haqining erkaklarnikiga nisbati

Xodimlar toifasi	2024
Rahbarlar	0,80
Mutaxassislar	0,60
Jami: ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar	0,76

Ayollarning umumiy ish haqining erkaklar ish haqiga nisbati

Xodimlar toifasi	2024
Rahbarlar (ma‘muriy-boshqaruv xodimlari)	0.96
Mutaxassislar	0.83
Jami: ishlab chiqarish, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar	0.76

Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish

GRI 3-3, GRI 404-1, GRI 404-2

“Navoiyuran” DK xodimlarni kasbiy rivojlantirishni barqaror o‘shish va texnologik yetakchilikni ta’minlashning strategik ahamiyatiga ega omili sifatida qaraydi. Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish asosiy kompetensiyalarni shakllantirish, yuqori sanoat xavfsizligi darajasini ta’minlash, mehnat unumdorligini oshirish va kadrlar zaxirasini rivojlantirishga qaratilgan. Korxonada doimiy o‘qish va kasbiy takomillashuv madaniyati shakllantirilmoqda.

Barcha o‘qish dasturlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan berilgan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Bizning doimiy o‘qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimimiz quyidagi asosiy shakllarni o‘z ichiga oladi:

- **Qayta tayyorlash kurslari** – yangi kasblarni egallash, qo‘shimcha bilim, ko‘nikma va malakalar olish, shu jumladan hamkor yo‘nalishlar bo‘yicha;
- **Malaka oshirish kurslari** – kasbiy bilimlarni yangilash va chuqurlashtirish;
- **Mohiyat kurslari** – ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitish, shu jumladan raqamli texnologiyalar va yangi texnologiyalarni joriy etishni hisobga olgan holda;
- **Mustaqil o‘qish** – xodimlarning shaxsiy potensialini rivojlantirish.

2024-yilda korporativ malaka oshirish dasturlari doirasida 587 nafar xodim, jumladan ishlab chiqarish bo‘linmalari mutaxassislari va muhandis-texnika xodimlari o‘qitildi. Eng yirik dastur – “A” toifasiga kiruvchi xodimlar uchun radiatsion xavfsizlik va ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlash bo‘yicha maqsadli o‘qitish bo‘lib, unda 465 kishi ishtirok etdi.

Kadrlar tayyorlashga, jumladan malaka oshirish, qayta tayyorlash, yondosh kasblarni egallash va oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan umumiy xarajatlar 2024-yilda 2 672 053 500 so‘m, yoki 211 162,75 AQSh dollarini tashkil etdi.

Bundan tashqari, laboratoriya ma’lumotlari bilan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (LMAB) va “Uran va kamyob metallar geologiyasi” IICHM geologik laboratoriyasini raqamlashtirish doirasida yangi tizim bilan ishlovchi xodimlar uchun maxsus o‘quv dasturlari o‘tkazildi. Bu kadrlarni raqamli yechimlardan samarali foydalanishga tayyorlaydi va korxonaning texnologik yetuklik darajasini oshiradi.

Operatsion samaradorlikni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida 2024-yilda quyidagi tashabbuslar amalga oshirildi:

- O‘qitish jarayonlarini hisobga olish va rejalashtirishni avtomatlashtiruvchi elektron platforma joriy etildi;
- Attestatsiyaning yangi formatlari va o‘qishni tugatganlik haqidagi raqamli sertifikatlarni ishlab chiqildi;
- Tajriba almashish va ilg‘or amaliyotlarni o‘rganish uchun chet elda ilmiy seminarlar o‘tkazildi;
- Sohaviy o‘quv muassasalarida treninglar tashkil etildi;

- Ta'lim markazini modernizatsiya qilindi va uni zamonaviy o'quv jihozlari bilan jihozlandi.

Biz kasbiy rivojlantirish tizimining samaradorlik ko'rsatkichi sifatida bir xodimga to'g'ri keladigan o'rta yillik o'qish soatlari hajmini muntazam kuzatib va tahlil qilamiz.

Bir nafar xodimga to'g'ri keladigan o'rta yillik o'qish soatlari, soat

Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024
Gender belgisi			
Ayollar	11	12	11
Erkaklar	58	63	58
Xodimlar toifasi			
Rahbarlar	62	45	40
Mutaxassislar	45	43	74
Boshqa xizmatchilar	68	100	60

Ta'lim sohasidagi hamkorlik

2022-yilda tashkil etilganidan beri "Navoiyuran" DK kadrlar boshqaruvi tizimini izchil ravishda rivojlantirib kelmoqda, bu jarayonda ta'lim va ilmiy muassasalar bilan strategik hamkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarni barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy shartlaridan biri sifatida ko'ramiz, ayniqsa ishlab chiqarish jarayonlarining transformatsiyasi, raqamlashtirish va innovatsion yechimlarni joriy etish sharoitida.

Ushbu strategiya doirasida korxona O'zbekistonning yetakchi oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlari, shuningdek xalqaro ta'lim tashkilotlari bilan keng hamkorlik tarmog'ini shakllantirmoqda. Asosiy hamkorlarimiz qatorida:

- Navoiy davlat kon-texnologiya universiteti;
- Toshkent geologiya fanlari universiteti;
- TOO "Inter Knowledge Solutions Institute"

Ustuvor yoʻnalishlardan biri - mehnatni muhofaza qilish sohasidagi taʼlimdir. Britaniyaning IOSH (Institution of Occupational Safety and Health) tashkiloti bilan hamkorlikda xalqaro standartlar asosidagi “IOSH Managing Safely” kurslari tashkil etilgan. Dastur doirasida 10 nafar xodim oʻqitildi va ularga uran qazib olishning barcha ishlab chiqarish bosqichlari boʻyicha bilim berildi. Kelgusida xodimlarning mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi malakasini oshirish uchun NEBOSH bilan hamkorlikni kengaytirish rejalashtirilgan.

Xodimlarni baholash va rivojlantirish

GRI 404-3

“Navoiyuran” DKda xodimlarning mehnat samaradorligi va salohiyatini muntazam baholash kadrlar boshqaruvi tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning maqsadi nafaqat joriy natijalarni obʼektiv baholash, balki individual rivojlanish traektoriyalarini shakllantirish, martaba oʻsishini qoʻllab-quvvatlash va xodimlarning faolligini oshirishdir.

2024-yilda **Korn Ferry (AQSh)** xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan “Boshqaruv kadrlarini rivojlantirish” yoʻl xaritasi doirasida korxonada xodimlarning boshqaruv kompetensiyalari va salohiyatini baholash boʻyicha tizimli tadbirlar yoʻlga qoʻyildi. Baholash asosiy va strategik ahamiyatga ega lavozimlarni qamrab oldi va **Hay Group Grading** xalqaro metodologiyasi asosida amalga oshirildi. U rivojlanish darajasini, liderlik sifatlarini, kasbiy kompetensiyalarini va egallab turgan lavozimga mosligini aniqlashga qaratilgan.

Diagnostika natijalariga koʻra, quyidagi rahbarlik lavozimlari baholandi:

- GD va GD-1 darajasidagi rahbarlar;
- Bevosita ularga boʻysunuvchi rahbarlar;
- Strategik ahamiyatga ega lavozimlar;
- GD-2 darajasidagi 32 funksional rahbar lavozimlari.

Bundan tashqari, ushbu pozitsiyalar funksional takomillashtirish, ularni shakllantirish va baholash usullari boʻyicha takliflar ishlab chiqildi.

2024-yilda “Navoiyuran” DKning maʼmuriy-boshqaruv xodimlarining 94,8% va ishlab chiqarish xodimlarining 92,7% muntazam samaradorlik va martaba rivojlanishi baholanishi bilan qamrab olindi.

Xodimlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash

GRI 2-30, SASB EM-MM-310a.1, SASB EM-MM-310a.2

“Navoiyuran” DK xodimlar farovonligi va ularning mehnatga boʻlgan motivatsiyasini qoʻllab-quvvatlash maqsadida keng koʻlamli ijtimoiy imtiyozlar va kafolatlarni taqdim etadi.

Xodimlarning deyarli barchasi (99,99%) jamoa shartnomasi bilan qamrab olingan boʻlib, u keng qamrovli ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlarni oʻz ichiga oladi, jumladan:

- bepul tibbiy yordam va davolanishda imtiyozlar;
- zararli mehnat sharoitida ishlovchi xodimlar uchun davolash-profilaktika ovqati;

- xodimlar va ularning oilalari uchun sport-sogʻlomlashtirish dasturlari;
- moddiy yordam koʻrsatish va bolalarga bayram sovgʻalarini taqdim etish;
- bola parvarishlash taʼtili va taʼtildan keyin mehnat huquqlarining toʻliq saqlanishi.

Faoliyati davomida “Navoiyuran” DKda hech qachon ish tashlash yoki lokaut holatlari kuzatilmagan. “Navoiyuran” DK Oʻzbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga muvofiq xodimlarning jinsidan qatʼi nazar, bola parvarishlash taʼtilini beradi.

GRI 401-3

2024-yilda bola parvarishlash taʼtilini olgan xodimlar soni, kishi:

Koʻrsatgich	Erkaklar	Ayollar	Jami
Onalik/otalik taʼtiliga chiqqan xodimlarning umumiy soni	0	78	78
Onalik/otalik taʼtilidan keyin ishga qaytgan xodimlarning umumiy soni	0	46	46
Oldingi hisobot davrida onalik/otalik taʼtilidan keyin ishga qaytgan xodimlar soni	0	30	30
Oldingi hisobot davrida onalik/otalik taʼtilidan keyin ishga qaytgan va ishga qaytganidan keyin 12 oy davomida ishlashni davom ettirgan xodimlarning umumiy soni	0	46	46
Saqlash darajasi	100%		
Ishga qaytish darajasi	59%		

Kasaba uyushmasining qoʻllab-quvvatlashi va jamoa shartnomasining bajarilishi

GRI 201-3, GRI 401-2, GRI 407-1

Jamoa shartnoma korxonaning barcha xodimlarini qamrab oladi va Oʻzbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq amaldagi kasaba uyushmasi tomonidan tartibga solinadi. Kasaba uyushmasi xodimlarning boshqaruvda ishtirokini taʼminlaydi, mehnat qonunchiligi normalariga rioya etilishini monitoring qiladi, ijtimoiy majburiyatlarning bajarilishini boshlaydi va nazorat qiladi.

Ish beruvchining majburiyatlari	“Navoiyuran” DK xodimlarining farovonligini taʼminlash va ularning mehnat motivatsiyasini saqlash uchun keng ijtimoiy imtiyozlar va kafolatlarni taʼminlaydi. Korxonaning barcha xodimlari jamoa shartnomasi bilan qamrab olingan.
--	--

Kadrlar tayyorlash va kasbiy va ishlab chiqarish malakasini oshirish	Korxona xodimlarni rivojlantirishga tizimli investatsiya kiritib, malaka oshirishning kompleks dasturlarini amalga oshirmoqda. 2024-yilda o‘qish bo‘yicha barcha buyurtmalar to‘liq bajarildi: 1 nafar xodimga o‘rtacha 111 soat o‘qish o‘tkazildi. Dasturlar kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan birga seminarlar, treninglar va tashqi o‘qish kurslarida ishtirok etishni o‘z ichiga olgan universal ko‘nikmalarni shakllantirishni ham qamrab oladi. Xalqaro tajribaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hisobot davomida 10 nafar xodim “Inter Knowledge Solutions Institute” TOO tomonidan tashkil etilgan IOSH Managing Safely dasturi bo‘yicha Ostona shahrida (Qozog‘iston) o‘qishga borib keldi. Barcha ishtirokchilar o‘qishni muvaffaqiyatli yakunladi va rasmiy sertifikatlarni oldi.
Ish haqi, pensiya to‘lovlari va xodimlarga yordam	2024-yilda “Navoiyuran” DK xodimlarining o‘rtacha oylik ish haqi 0,81 ming AQSh dollarini tashkil etdi, bu O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan 790% yuqori. Barcha ta’til va ishdan bo‘shatish to‘lovlari, shuningdek, bayram va dam olish kunlaridagi ishlar, qo‘shimcha va tungi ishlar uchun to‘lovlar, mehnat qonunchiligi va jamoa shartnomasi normalariga muvofiq oshirilgan stavkada amalga oshirildi. Ijtimoiy mas’uliyat siyosati doirasida korxona O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarni davlat pensiya bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 12 va 15-moddalariga muvofik pensiya to‘lovlarini ham ta’minlaydi. “Navoiyuran” DK har oy Pensiya jamg‘armasiga quyidagilar bilan bogliq xarajatlarni qoplaydi: • ishlab chiqarish jarohati yoki kasb kasalligi natijasida nogironlik nafaqalarini to‘lash; • boquvchisini yo‘qotgan taqdirda, agar ishlab chiqarishda shikastlanish yoki kasb kasalligi natijasida vafot etgan bo‘lsa, pensiya to‘lash. 2024-yilda ushbu qoplamlarning jami miqdori 72,55 ming AQSh dollarini tashkil etdi, shu jumladan: • 66,48 ming AQSh dollari - nogironlik uchun (28 nafar oluvchi); • 6,04 ming AQSh dollari - boquvchisini yo‘qotganlik uchun (4 nafar oluvchi). Bundan tashqari, jamoa shartnomani amalga oshirish doirasida korxona tomonidan kasaba uyushmasi bilan hamkorlikda 1599 nafar xodim va

	nafaqaxo‘rlarga jami 96,74 ming AQSh dollari miqdorida moddiy yordam ko‘rsatildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan ishchi-xodimlar toifasining ehtiyojlari ham inobatga olindi. 72,55 ming AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat to‘plamlari boquvchisini yo‘qotgan xodimlarga, xodimlar oilasidagi nogiron shaxslarga, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lganlarga, shuningdek, yolg‘iz nafaqaxo‘rlarga tarqatildi.
Sog‘liqni saqlash va xavfsizlikni ta‘minlash	2024-yilda 4 ta baxtsiz hodisa qayd etilgan, bu o‘tgan yilga nisbatan 6 taga kam. Ishlab chiqarish jarohatlarning asosiy sababi ish o‘rinlarida xodimlarning e‘tiborsizligi yoki ehtiyotsizligi edi. Hodisalarning oldini olish maqsadida ISO 9001:2015, ISO 14001:2015 va ISO 45001:2018 standartlariga muvofiq Menejment tizimi auditining 1-bosqichi hamda 13 ta rejadan tashqari va 12 ta kompleks audit o‘tkazildi. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qish seminarlari o‘tkazildi va 1,214 mln AQSh dollari miqdorida shaxsiy himoya vositalari (ShHV) sotib olindi.
Xodimlarning sog‘ligi	2024-yilda korxona xodimlarning sog‘ligi va farovonligini mustahkamlash choralarini amalga oshirishni davom ettirdi. Xodimlarni davolanishi uchun 155,10 ming AQSh dollari mablag‘ ajratildi, shu jumladan 10,75 ming AQSh dollari stomatologik va ortopedik protezlash uchun. Bundan tashqari, mehnatni muhofaza qilish majburiyatlari doirasida zararli sharoitlarda ishlaydigan xodimlarga davolash-profilaktika ovqatlanishi va sut mahsulotlari taqdim etildi. Faol va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida xodimlar uchun muntazam ravishda sport tadbirlari tashkil etilmoqda. Futbol, mini-futbol, basketbol, voleybol va stritbol kabi jamoa ruhini va jismoniy faollikni rivojlantirishga yordam beradigan jamoa sport turlari mavjud. Shuningdek, xodimlar yakkakurash va kuch-quvvat mashqlari, jumladan, kurash, pauerlifting va boks bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu kuch va chidamlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Stol o‘yinlarini sevuvchilar uchun strategik fikrlash va konsentratsiyani rag‘batlantiradigan tennis, shashka va shaxmat kabi variantlar taklif etiladi. Bundan tashqari, suzish, badiiy gimnastika, fitnes va trenajor zallarini o‘z ichiga olgan boshqa sport turlari taklif etiladi, ular umumiy sog‘liqni mustahkamlash, koordinatsiyani yaxshilash va yaxshi jismoniy shaklni saqlashga yordam beradi. Ushbu tashabbuslar xodimlarning jismoniy va emotsional ahvolini yaxshilashga qaratilgan.
Tibbiy xizmat	Jamoa shartnomasining 14-moddasiga muvofiq, korxona tuzilgan shartnomalar asosida “NKMK” Fondining tibbiy-sanitariya

	muassasalari orqali xodimlar va nafaqaxoʻrlar uchun tekin tibbiy xizmat koʻrsatishni kafolatlaydi. Tibbiy xizmat koʻrsatish hajmi quyidagilarni oʻz ichiga oladi: • dastlabki, davriy va maqsadli tibbiy koʻriklarni oʻtkazish; • tibbiy boʻlinmalar koʻrsatmasi boʻyicha ambulator va rejali statsionar davolanish; • hayotiy koʻrsatkichlar boʻyicha shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatish; • bepul davolanish huquqiga ega boʻlgan xodimlar va nafaqaxoʻrlar roʻyxatini har yili tasdiqlash. Korxonada sanatoriy-kurortda davolanishga alohida eʼtibor qaratilib, ushbu dasturga 2 521 nafar xodim va nafaqaxoʻrlarni qamrab olish uchun 871,37 ming AQSh dollari mablagʻ ajratildi. Sanatoriy-kurort davolash tabiiy sharoitlar va ixtisoslashtirilgan davolash usullari tufayli sogʻliqni tiklash va immunitetni mustahkamlash uchun noyob imkoniyatlar taqdim etadi. Yil davomida zararli ish sharoiti tufayli kasallanish holatlari qayd etilmagan.
Umumiy ovqatlanish bilan taʼminlash	Umumiy ovqatlanishni taʼminlash Korxonaning ovqatlanishni tashkil etish sohasidagi keng koʻlamli harakatlari natijasida “NKMK Fondi” DMga tegishli 17 ta oshxona 10 kunlik sikli davomida xodimlarni sifatli va mutanosib menyu bilan taʼminlashda muvaffaqiyatga erishdi. Boʻlinmalarning ish jadvaliga muvofiq ovqatlanish kechqurun va tungi smenalarda tashkil etilgan. Ishlab chiqarishning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, oziq-ovqat shoxobchalaridan sezilarli masofada ishlaydigan xodimlar uchun tavsiya etilgan mahsulotlarning oziq-ovqat paketi (quruq ratsion) yaratilgan.
Bolalar uchun sogʻliqni saqlash tashkiloti	Korxonaning ijtimoiy siyosati doirasida xodimlarning farzandlari salomatligini qoʻllab-quvvatlash va mustahkamlashga katta eʼtibor qaratilmoqda. Yoz mavsumida sogʻlomlashtirish dasturi tashkil etilib, unda 1 600 nafar bolalar ishtirok etdi. Buning uchun 389,56 ming AQSh dollari mablagʻ ajratilib, bolalarning yozgi oromgohlarda toʻliq dam olishini taʼminlash imkonini berdi. Bundan tashqari, korxona yangi yil bayramida oilaning bayramona kayfiyatini koʻtarish uchun oʻz xodimlarining 8 150 nafar farzandlari uchun sovgʻalar tashkil etish orqali eʼtiborini qaratdi. Ushbu maqsadlar uchun 99,17 ming AQSh dollari mablagʻ ajratildi.

Uy-joy taqsimoti	“Navoiyuran” DK majmuasi tarkibida xodimlarni joylashtirish uchun mo‘ljallangan, korxona xodimlari uchun xizmat uylari va oilaviy yotoqxonalar alohida ajratilgan.
-------------------------	--

Hududlarning ijtimoiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasi

GRI 3-3, GRI 203-1, GRI 413-1, SASB EM-MM-210b.1

“Navoiyuran” DK aholi bandligini ta‘minlash, ijtimoiy infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash va keng ko‘lamli xayriya tashabbuslarini amalga oshirishda mavjud hududlarning barqaror rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Korxona O‘zbekistondagi eng yirik ish beruvchilardan biri bo‘lib, Navoiy, Buxoro va Samarqand viloyatlarida faoliyat yuritmoqda.

2024-yilda “Navoyuran” DK xayriya va homiylik faoliyati uchun 44,16 mln AQSh dollari ajratdi. Ushbu mablag‘lar mahalliy aholi ehtiyojlarini qondirish va biznesning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarga yo‘naltirildi.

2024-yildagi homiylik yordami, mln AQSh dollar

Homiylik yordam turlari	2024
Hududni ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish	0,07
Ta‘limni qo‘llab-quvvatlash	0,77
Sportni qo‘llab-quvvatlash	0,66
Madaniyatni qo‘llab-quvvatlash	0,08
Sog‘liqni saqlashni qo‘llab-quvvatlash	0,08
Xayriya ishlari	42,5
Jami	44,16

“Navoiyuran” DK mavjud hududlarda hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Rivojlanish strategiyasi doirasida Korxona infratuzilmani rivojlantirish, ta‘lim, sport, madaniyatni qo‘llab-quvvatlash va shahar atrof-muhitini yaxshilashga sarmoya kiritadi.

2024-yilda amalga oshirilgan loyihalar

2024-yilda mahalliy hamjamiyatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan asosiy tashabbuslar yakunlandi:

- **Sport infratuzilmasini rivojlantirish.** 16 va 28-umumta'lim maktablarida sun'iy qoplamali va ayvonli zamonaviy futbol maydonlari o'rnatilib, Zafarobod qishlog'ida yangi stadion barpo etilib, sport bilan shug'ullanishi, bo'sh vaqtini faol o'tkazishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.
- **Hududlarni obodonlashtirish.** Aholi va korxona xodimlarining farovonligini oshirish maqsadida Zafarobod qishlog'i Shodlik ko'chasi bo'ylab yo'lining 1 km qismiga asfalt yotqizildi.
- **Madaniy tadbirlar.** Ma'rifiy bayram va sanalar: Konchilar kuni, Mustaqillik bayrami, Navro'z, Yangi yil va boshqa bayramlarga to'g'ri kelgan ommaviy madaniy tadbirlar jamiyat hamjihatligini mustahkamlash va madaniy an'analarni asrab-avaylashga xizmat qildi.

2025-yildagi rejalar va tashabbuslar

2025-yilda "Navoiyuran" DK ijtimoiy tashabbuslarni faol amalga oshirishda davom etadi, jumladan:

- **Zafarobod qishlog'ida bolalar bog'chasi qurilishi.** Hozirda qurilish ishlarini boshlashga tayyorgarlik ko'rilmogda. Loyiha amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'shimcha o'rinlar yaratishga hamda bolalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit ta'minlashga xizmat qiladi. Qurilishni yakunlanishi muddati 2025-yil oxiriga mo'ljallangan.
- **Zafaroboddagi ko'lni rekonstruksiya qilish.** Loyiha hududni ekologik obodonlashtirish va hordiq chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan. Ishlarni yakunlash muddati 2025-yil yoz oyida rejalashtirilgan.
- **Madaniy tadbirlar uchun amfiteatr barpo etish.** Yangi maydoncha mintaqaning madaniy hayoti markaziga aylanib, konsertlar, bayramlar va boshqa jamoat tadbirlarini o'tkazish imkonini yaratadi.
- **Turar-joy fondini kapital ta'mirlash.** 2025-yilda Zafarobod qishlog'idagi barcha 31 ta turar-joydagi kirish yo'laklari va yerto'lalarda kompleks ta'mirlash ishlari yakunlanib, aholi uchun qulaylik va xavfsizlik darajasi sezilarli oshiriladi.
- **Tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish.** Ekologik barqarorlik va suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida shaharda yashil hududlarni tomchilatib sug'orish loyihasi amalga oshiriladi. Bu shahar ekotizimining holatini yaxshilash va suv resurslariga tushadigan yuklamani kamaytirish imkonini beradi.

Mehnat muhofazasi masalalarini boshqarish

GRI 3-3, GRI 403-1, GRI 403-4, GRI 403-8

“Navoiyuran” DK mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligini o‘zining barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘radi. Xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ini asrash, kasbiy xatarlarni oldini olish va xavfsizlik madaniyatini shakllantirish – bizning operatsion faoliyatimizning asosiy yo‘nalishlaridir.

Mehnatni muhofaza qilishga bizning yondashuvimiz tizimli boshqaruvga asoslanadi, unga quyidagilar kiradi:

- xatarlarni har tomonlama baholashni o‘tkazish;
- zamonaviy xavfsizlik bayonnomalarni qo‘llash;
- xodimlarni muntazam o‘qitish va malakasini oshirish;
- mehnat muhofazasi talablarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish.

Mehnat muhofazasi boshqaruv tizimi (IBT)

2022-yildan beri kompaniyada ISO 45001:2018 (mehnat xavfsizligi), ISO 14001:2015 (ekologiya) va ISO 9001:2015 (sifat) xalqaro standartlariga mos keladigan Integratsiyalashgan boshqaruv tizimi (IBT) joriy qilingan. Tizim barcha ishlab chiqarish bo‘linmalarini, jumladan, Markaziy moddiy-texnika bazasi va Zafarobod kon boshqarmasini qamrab oladi va sog‘liqni saqlash, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini boshqarishga kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

ISM doirasida korxona quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirmoqda:

- faol choralar ko‘rish orqali jarohatlar, kasb kasalliklari va baxtsiz hodisalar xavfini minimallashtirish;
- amaldagi qonunchilik va sanoat talablariga rioya etilishini ta’minlash;
- xodimlarni salomatlik va xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslariga jalb etadigan xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish;
- monitoring, ichki va tashqi audit va xodimlarning fikr-mulohazalari orqali tizimni doimiy ravishda takomillashtirish.

2024-yilda mehnat muhofazasi boshqaruv tizimi bilan 58% xodim qamrab olindi, ularning barchasi ichki yoki tashqi baholash doirasida auditdan o‘tdi.

Nazoratni tashkil etish va ichki nazorat

Korxonada mehnatni muxofaza qilish masalalari bo‘yicha funksional boshqaruv mehnatni muxofaza qilish xizmati mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi, ularning faoliyati tizimli nazoratni ta’minlash va kasbiy xavflarni oldini olishga qaratilgan.

Ularning majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Mehnat sharoitlari, xavfsizlik texnikasi va sanoat sanitariyasi qoidalariga rioya etilishini rejali va rejadani tashqari tekshirishlarni o'tkazish;
- Aniqlangan xavflarni tahlil qilish va baholash bilan birga ish o'rinlarini muntazam tekshirishlarni o'tkazish;
- Bosqichma-bosqich nazorat tizimini amalga oshirish;
- Xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf yuzaga kelganda ishlarni darhol to'xtatish;
- Normativ hujjatlarga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga muvofiq hodisalarni tekshirishda ishtirok etish.

Xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish va xodimlarni jalb qilish

Mehnatni muhofaza qilish strategiyasining muhim elementi mas'uliyat madaniyatini shakllantirish va xodimlarni xavfsizlik jarayonlariga jalb qilishdir.

Ushbu yo'nalishda quyidagilar faol amalga oshirilmoqda:

- muntazam brifinglar o'tkazish va barcha darajadagi xodimlarni o'qitish;
- xodimlarning fikr-mulohazalari va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflar tizimi;
- xavflarni aniqlash va xavflarni oldini olishda xodimlarning ishtiroki.

“5S samarali ishlab chiqarish” tizimini joriy etish

2024-yilda korxonada 5S tizimini joriy etish boshlandi. U xavfsiz va tartibli ish muhitini yaratishga qaratilgan samarali ishlab chiqarishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. 5S tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- Saralash (ish joylaridan keraksiz narsalarni olib tashlash);
- Ratsional tartibga solish (samaradorlikni oshirish uchun joyni tashkil qilish);
- Tozalash (tozalikni saqlash);
- Standartlashtirish (bir xil yondashuvlarni yaratish);
- Takomillashtirish (jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtirish).

Ushbu tizimning joriy etilishi jarohatlanish darajasini pasaytirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va ishlab chiqarishda intizomni oshirishga yordam beradi.

Xavfni baholash va tekshirish

GRI 403-2

Biz xavflarni aniqlash va kamaytirish va baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan mehnat xavfsizligini boshqarishga tizimli yondashuvni qo'llaymiz. Yondashuv potentsial tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash, samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash imkonini beruvchi xavflarni kompleks baholash va boshqarish tizimiga asoslanadi.

Hisobot davrida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik sohasida quyidagi asosiy xavflar aniqlandi:

Asosiy xavflar	Xavf manbalari	Nazorat usuli
Yuklash va tushirish ishlari	• Yukning qulashi • Og'ir narsalarni ko'tarish	• Kirish yo'riqnomasi

	• Yuk ko'tarish va tashish uskunalari • Chang	• Yuklash-tushirish ishlarida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha davriy yo'riqnoma • Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish bo'yicha mehnatni muxofaza qilish va xavfsizlik texnikasi yo'riqnoma
Yuk mashinalari va yo'lovchi transporti haydovchilari, maxsus texnika operatorlari, yuk ko'tarish moslamalari operatorlari	• Yuk ko'tarish va tashish uskunalari • Balandlikdan tushish • Yo'l baxtsiz hodisalari	• Kirish yo'riqnoma • Avtotransport va maxsus texnika hamda yuk ko'taruvchi mexanizmlarni boshqarishda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha davriy yo'riqnoma • ShHVDan foydalanish
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari	• O'tkir, kesish asboblari • Elektr asboblari	• Kirish yo'riqnoma • Avtotransport va maxsus texnika hamda yuk ko'taruvchi mexanizmlarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha davriy yo'riqnoma • ShHVDan foydalanish
Payvandlash ishlari	• Payvandlashdan chiqqan uchqunlar • Elektr toki, gaz portlashi	• Kirish yo'riqnoma • Payvandlash ishlari jarayonida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha davriy yo'riqnoma • ShHVDan foydalanish
Ekstraksiya paytida eritmalarni deoksidlash	• Sulfat kislotasi • Nitrat kislotasi	• Kirish yo'riqnoma • Hidrogeologik ishlari jarayonida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha davriy yo'riqnoma

		• ShHVDan foydalanish
Silliqlash ishlari	• Chang, metall chiqindilari • Silliqlash paytida qo'llarning shikastlanishi • Balandlikdan tushish	• Kirish yo'riqnomasi • Silliqlash ishlari jarayonida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha davriy yo'riqnomasi • ShHVDan foydalanish

Shunday qilib, "Navoiyuron" davlat korxonasida kasbiy risklarni baholash va boshqarishga tizimli yondashuv xavf-xatarlarni o'z vaqtida aniqlash, noxush hodisalarning samarali oldini olish va xavfsiz ishlab chiqarish muhitini yaratishni ta'minlaydi. Uzluksiz treninglar, mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini nazorat qilish va shaxsiy himoya vositalaridan majburiy foydalanish baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari ehtimolini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish va xodimlar o'rtasida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish kompaniyaning barqaror va mas'uliyatli faoliyatini ta'minlashdagi ustuvor vazifalari bo'lib qolmoqda.

Xavfsizlik va mehnat muhofazasi sohasida o'qitish va favqulodda choralar

GRI 403-5

Xodimlarni mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi sohasida o'qitish "Navoiyuron" DK mehnat muhofazasi boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Biz qonunchilik, xalqaro standartlar va ilg'or korporativ tajribaga asoslangan xavfsiz mehnat madaniyatini shakllantirishga intilamiz.

Xodimlar tayyorgarligi dasturi muntazam nazariy mashg'ulotlar, amaliy mashqlar hamda favqulodda holatlarga javob qaytarish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, korxona ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan avariya sharoitida xodimlarning harakatlarini samarali bajarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2024-yilda Zafarobod kon boshqarmasining 2-sonli Geotexnologik koni hududida keng ko'lamli o'quv mashqlari tashkil etildi. Mashqlar davomida zilzila oqibatida xavfli moddalarning sizib chiqishi bilan bog'liq vaziyat modellashtirildi. Mashqlarda 60 nafar xodim va 4 ta texnika birligi, shu jumladan Tomdi tumani Favqulodda holatlar xizmati kuch va vositalari ishtirok etdi. Shuningdek, 4-sonli Geotexnologik koni hududida ham 44 nafar xodim ishtirokida o'xshash mashqlar o'tkazildi va tayyorgarlik darajasi ijobiy baholandi. Bunday tadbirlar korxona tarkibiy bo'linmalari hamda davlat xizmatlari o'rtasida samarali hamkorlikni takomillashtirish, stress holatlarda koordinatsiya va qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish strategiyasi

GRI 3-3, GRI 403-2, GRI 2-25

2024-yilda "Navoiyuron" DK tabiiy va texnogen favqulodda holatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha Harakatlar rejasini yangilab, tasdiqladi. Ushbu hujjat xavflarni kamaytirish va ishlab

chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Reja ehtimoliy tahdidlarni baholashni (zilzila, zararli moddalar chiqib ketishi, suv toshqinlari, xavfli yuklarni tashishdagi avariylar), zarur resurslarni hisoblashni, xabar berish va muvofiqlashtirish tartibini, shuningdek, korxona faoliyatining uzluksizligini ta'minlash choralari qamrab oladi.

2024-yilda qazib olish jarayonlarida xavflarning kompleks bahosi o'tkazilib, zaif nuqtalar aniqlandi va tezkor javob choralari ishlab chiqildi. Yorqin tarzda ishlab chiqilgan bayonnomalar, qutqaruv rejalari, yong'in, portlash, kimyoviy va radiatsiya holatlari uchun harakatlar tizimi yaratildi. Ular rollar taqsimoti, tashqi xizmatlar bilan hamkorlik algoritmlari va qutqaruv yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Barcha rejalar mashqlar, voqealar tahlili va ekspluatatsiya sharoitlari o'zgarishiga qarab muntazam ravishda qayta ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-martdagi 121-son qarori talablariga muvofiq, tez yonuvchan va portlovchi xavfga ega kimyoviy moddalarni xavfsiz saqlash, tashish, ishlatish va utilizatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Omborxonalar sanoat va yong'in xavfsizligi me'yorlariga muvofiqligi bo'yicha muntazam tekshiriladi.

Favqulodda holatlarga tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida korxona quyidagi texnik resurslarni xarid qilib, bo'linmalar bo'yicha joylashtirdi:

- 2 ta "USUZI" yong'in o'chirish mashinasi;
- 12 ta motopompa;
- 10 tonna ko'pik hosil qiluvchi modda;
- 527 ta o't o'chirgich;
- 66 ta yong'inga qarshi stend;
- 108 ta yong'inga qarshi qalqon.

2024-yil 15-noyabrdan 15-dekabrgacha "Yong'in xavfsizligi kunlari" aksiyasi o'tkazildi. Uning doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- "NKMK" AJning mutaxassislari bilan hamkorlikda yong'in o'chirish uchun suv manbalari holati tekshirildi;
- Sex va uchastkalardagi dastlabki yong'in o'chirish vositalari bor-yoqligi va texnik holati nazorat qilindi;
- Issiqlik moslamalarining yong'in xavfsizligi holati va elektr isitish moslamalaridan foydalanish tartibi baholandi. Pudratchi qurilish tashkilotlarining ustaxonalari, uchastkalari, ma'muriy binolari va tirkamalarida ularni ishlatish uchun rasmiylashtirilgan yozma ruxsatnomalar mavjudligi tekshirildi;
- Hududlardan quruq o't, barg va chiqindilar yig'ilib chiqarildi;
- Yonilg'i-maylov moddalari va omborxonalarning yong'in xavfsizligi holati ko'rib chiqildi;
- Mavjud yong'in xavfsizligi belgilarini yangilash va yetishmayotganlarini o'rnatish ishlari bajarildi;
- Uran ishlab chiqarish sexining qazib olish uchastkasidagi avtomatik yong'in signalizatsiyasi (AYoS) va avtomatik yong'in o'chirish tizimining (AYoT) yaroqliligi va ishga yaroqliligi tekshirildi;
- Ishlab chiqarish va omborxonalarda yong'in xavfsizligi holati baholandi.

Qo'shimcha tarzda xavfsizlik va javobgarlik darajasini oshirish uchun 2024-yilda quyidagi tashabbuslar amalga oshirildi:

- Qazib olish jarayonlarida potentsial tahdidlar va zaifliklarni aniqlash uchun keng qamrovli xavflarni baholashni o'tkazish.
- Favqulodda vaziyatlarda ma'lumotlarning tezkor tarqalishini ta'minlaydigan aniq aloqa bayonnomalari va tartiblarini o'rnatish.
- Barcha manfaatdor tomonlar ular bilan tanish bo'lishi uchun yig'ish punktlari va yo'nalishlarini ko'rsatuvchi evakuatsiya rejalarini ishlab chiqish.
- Favqulodda vaziyatlar paytida va undan keyin muhim jarayonlarning uzluksizligini ta'minlash rejalarini ishlab chiqish.
- Mashqlar, hodisalar va o'zgaruvchan ish sharoitlaridan olingan saboqlarni hisobga olgan holda favqulodda vaziyatlarga javob berish rejalarini vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqish va yangilash.
- Yong'inlar, portlashlar, kimyoviy to'kilishlar va radiatsiya chiqindilari kabi turli xil hodisalar uchun ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan batafsil favqulodda choralar rejalarini tayyorlash. Ushbu rejalar rol va mas'uliyatni, evakuatsiya tartiblarini va tashqi qutqaruv xizmatlari bilan aloqa va muvofiqlashtirish bayonnomalarini belgilashi kerak.
- Yonib ketish, portlash, kimyoviy va radiatsiya chiqish holatlari uchun alohida harakat rejalarini ishlab chiqish.

2024-yilda "Navoiyuran" DK tabiiy va texnogen favqulodda holatlarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha kompleks harakatlar rejasini ishlab chiqdi, kelishdi va tasdiqladi. Rejada ehtimoliy zilzila, zararli moddalar chiqib ketishi, suv toshqini va xavfli yuklarni tashishdagi avariya bo'yicha ssenariylar qamrab olingan. Ushbu rejaning ilovalarida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun jalb qilingan kuchlar va vositalarning hisob-kitoblari, favqulodda vaziyatlarni boshqarish va ogohlantirish masalalari, zararli moddalarning xususiyatlari, shuningdek, korxonaning fuqarolik mudofaasi boshlig'ining qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni olib borish bo'yicha qarorlari variantlari tasvirlangan.

Ishchi kuchini tayyorlash va texnik jihozlanishni qamrab olgan ushbu strategiya tufayli "Navoiyuran" DK favqulodda holatlarga yuqori darajada tayyorgarlikka erishmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligi, xodimlar salomatligini himoya qilish va operatsiya hamda obro'-e'tibor bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xodimlar farovonligi va sog'lig'ini muhofaza qilish

GRI 403-3, GRI 403-6, GRI 403-7, GRI 403-10

“Navoiyuran” DK yuqori axloqiy prinsiplarga va standartlarga asoslangan ochiq hamda shaffof faoliyat siyosatini olib boradi. Shu siyosat doirasida kompaniyada xodimlar va tashqi manfaatdor tomonlardan keladigan murojaat va shikoyatlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish uchun samarali kanallar ishlaydi.

Asosiy o‘zaro aloqa kanallari quyidagilardan iborat:

- “Navoiyuran” DK Bosh direktorining qabulxonasi;
- Korxonaning rasmiy pochta manzili;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi.
- Fikr-mulohaza shakli navoiuyuran.uz rasmiy web-saytida mavjud;
- Ishonch telefoni info@navoiuyuran.uz elektron pochta manzili

Barcha murojaatlar ro‘yxatga olinadi va belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqish uchun yo‘naltiriladi. Ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha tashabbuskorlarga yozma javob taqdim etiladi. Bunday yondashuv huquqiy madaniyat va professional etikani mustahkamlashga, shuningdek xodimlarning ijtimoiy va ekologik jihatdan mas‘uliyatli xulqini shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va atrof-muhitni asrash uchun muhimdir.

Potensial buzilishlarga o‘z vaqtida javob qaytarish uchun “Navoiyuran” DK kelib tushayotgan murojaatlarni muntazam monitoring qiladi.

2024-yilda barcha kanallar orqali, shu jumladan og‘zaki, yozma, web-sayt orqali va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali jami 838 ta murojaat kelib tushdi.

Murojaat turi	Murojaatlar soni
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi	69
Og‘zaki va qabul davomida	408
Yozma ravishda	346
Web-sayt orqali	15

Shulardan:

Murojaat natijalari	Murojaatlar soni	Ulushi
Ijobiy hal etilgan	165	20%
Huquqiy ma’lumot berilgan	501	60%
Izohlar berilgan	163	19%
Rad etilgan	0	0%
Yopilgan	3	0,3%

Ko‘rib chiqilmoqda	6	0,7%
--------------------	---	------

“Navoiyuran” DK o‘z ishbilarmonlik obro‘sini yuqori qadrlaydi va amaldagi qonunchilik hamda ichki korporativ siyosatlarga doimiy ravishda rioya qiladi. Hisobot davrida korxonaga nisbatan hech qanday tashqi tekshiruvlar o‘tkazilmadi va qonunbuzarliklar uchun jarimalar qo‘llanilmadi. Bu kompaniyaning biznes yuritishda yuqori standartlarga va qonuniylik prinsiplarga sodiqligidan dalolat beradi.

Xatarlarni boshqarish

“Navoiyuran” DKning Xatarlarni boshqarish tizimi (XBT) korporativ boshqaruvning ajralmas qismi bo‘lib, barqarorlik, ishonchlik va operatsion faoliyatning uzluksizligini ta‘minlashdagi eng muhim vositadir. Korxona xatarlarni samarali boshqarishning strategik ahamiyatini anglaydi va tashqi muhit sharoitlari o‘zgarishini inobatga olgan holda ichki jarayonlarni doimiy takomillashtirib boradi.

Xatarlarni boshqarish tasdiqlangan ichki hujjatlar - Xatarlarni boshqarish tizimi to‘g‘risidagi Nizom va Xatarlarni boshqarish bo‘limi to‘g‘risidagi Nizom asosida amalga oshiriladi. Ular XBTning tuzilmasi, vakolatlari va asosiy protseduralarini belgilaydi. Tizim boshqaruvning barcha darajalarini qamrab oladi va korxonaning strategik hamda operatsion jarayonlariga integratsiya qilingan.

XBTning maqsadi noaniqlik sharoitida xatarlarni tizimli aniqlash, baholash, monitoring va nazorat qilish orqali boshqaruv qarorlarining asoslanganligini ta‘minlashdir. “Navoiyuran” DKda XBT quyidagi prinsiplarga tayangan:

- **Uzluksizlik:** xatarlarni boshqarish doimiy va siklik jarayondir;
- **Integratsiya:** xatarlarni boshqarish jarayonlari asosiy biznes-jarayonlar va boshqaruv qarorlariga singdirilgan;
- **Shaffoflik va hisobdorlik:** Korxona tomonidan asosiy xatarlar va ularni boshqarish choralari haqida Kuzatuv kengashi va boshqa manfaatdor tomonlarga ochiq xabardor qilinadi;
- **Amaliylik va iqtisodiy asoslanganlik:** xatarlarni boshqarish choralari ehtimoliy oqibatlar miqyosi va korxona resurslariga moslashtiriladi;
- **Yetuklik darajasiga muvofiqligi:** XBT korxona faoliyati xususiyati va ko‘lamini hisobga olgan holda rivojlantiriladi;
- **Ustuvorlik:** belgilangan xavf ishtahasiga muvofiq eng muhim xatarlarga e‘tibor qaratiladi;
- **Taqsimlangan mas‘uliyat:** xatarlarni boshqarish jarayonida barcha xodimlar o‘z xizmat vazifalari doirasida ishtirok etadi.

Xatarlarni boshqarish jarayoni uzluksiz sikl ko‘rinishida amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Xatarlarni aniqlash:** Korxona maqsadlari va faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ichki va tashqi omillarni aniqlash;
2. **Xatarlarni baholash va reytinglash:** yuzaga kelish ehtimoli va ta’sir darajasini tahlil qilish, ustuvorliklarni belgilash;
3. **Chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish:** xatarlarni boshqarish yondashuvlarini belgilash (oldini olish, kamaytirish, topshirish yoki qabul qilish);
4. **Monitoring va nazorat:** joriy xatar darajasini kuzatish, amalga oshirilgan choralarning samaradorligini baholash va xatarlar reyestrini yangilab borish.

Umumiy yondashuv doirasida barqaror rivojlanish xatarlari bo‘yicha alohida ro‘yxat shakllantirilgan. U ekologik xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va korporativ boshqaruvga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni qamrab oladi.

Quyida Korxona uchun dolzarb bo‘lgan barqaror rivojlanish sohasidagi asosiy xatarlar keltiriladi:

Xatar nomi	Ehtimoliy ta’sir	Javob choralar
Kadrlar boshqaruvi		
Malakali kadrlar yetishmasligi	Ayrim bo‘linmalardagi bo‘sh ish o‘rinlarini mos mutaxassislar bilan o‘z vaqtida to‘ldirmaslik.	– Malakali xodimlarni doimiy qidirish; – Korxonada belgilangan tartibda ishga qabul qilish.
Atrof-muhitni muhofaza qilish		
Belgilangan ekologik me’yorlarning oshib ketishi	Hududning atrof-muhitiga salbiy ta’siri. Nazorat organlari tomonidan jarima sanksiyalari.	- Ekologik me’yorlar bo‘yicha tizimli monitoring.
Inson omili sababli chiqindilarni alohida saqlash talablari buzilishi	Hududning atrof-muhitiga salbiy ta’siri.	– Chiqindilarni alohida saqlash talablari haqida xodimlarga muntazam eslatmalar berish; – Chiqindilarni alohida saqlash ustidan haftalik nazoratni yo‘lga qo‘yish.
Pudratchi tashkilotlar tomonidan korxona topshiriqlarini bajarish	Hududning atrof-muhitiga salbiy ta’siri.	- Pudratchilar/ yetkazib beruvchilar bilan ishlash bo‘yicha

jarayonida atrof-muhitni ifloslantirishi		tartib-taomillarning mavjudligi. - Pudratchi tashkilotlarning majburiyatlari haqida rasmiy xabardor qilish. - Pudratchilar faoliyatini doimiy monitoring va nazorat qilish.
Sog'liqni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligini ta'minlash		
Pudratchi tashkilotlar tomonidan mehnat muhofazasi va xavfsizlik talablarining buzilishi	Hodisalar yuz berishi, korxona xodimlarining jarohatlanishi.	- O'qitish tizimlarini joriy etish va takomillashtirish. - Xodimlar bilimini sinovdan o'tkazish. - Mehnat sharoitlariga rioya etish ustidan uch bosqichli nazorat.
Texnologik qurilmalar va yuk ko'tarish mexanizmlarini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazmaslik	Avariya va favqulodda holatlar ehtimoli.	- Texnologik qurilmalar va yuk ko'tarish mexanizmlarni texnik ko'rikdan o'tkazish jadvalining mavjudligi. - Ko'riklarning o'z vaqtida o'tkazilishini monitoring qilish va nazorat etish.
Korxona topshiriqlarini bajarishda pudratchi tashkilot xodimlari tomonidan mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablarining buzilishi	Pudratchi tashkilot xodimlari hamda korxona xodimlarining jarohatlanish ehtimoli.	- Pudratchi tashkilotlar bilan ishlash tartib-taomillarini joriy etish va takomillashtirish. - Pudratchi tashkilotlar majburiyatlari haqida xabardor qilish. - Faoliyatni muntazam monitoring qilish va nazorat etish.

Korxona professional va ekologik xavfsizlik sohasidagi xatarlarga ustuvor e'tibor qaratadi. "Navoiyuran" DK bosh direktori ushbu yo'nalishlarda xatarlarni boshqarishning batafsil tartib-tamoyilini tasdiqlagan bo'lib, u korxona hududida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlar va pudratchi tashkilotlarga tatbiq etiladi. Jarayon ISO 9001 va ISO 14001 xalqaro standartlariga, shuningdek "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi milliy qonunlarga hamda ular bilan bog'liq standartlarga asoslanadi. Korxona ichida xatarlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha aniq qadamlar va bosqichlar ishlab chiqilgan, shuningdek, xavf darajasini aniq tahlil qilish va tegishli qarorlar qabul qilish maqsadida maxsus formulalar va metrikalar joriy etilgan.

Tartib-tamoilga muvofiq bosqichlar va tadbirlar:

Bosqich	Tadbirlar
Amalga oshirilayotgan faoliyatning xavf-xatarlari va ekologik jihatlarini aniqlash	• Qo'llash doirasini aniqlash. • Xavf-xatarlar va ekologik jihatlarini identifikatsiya qilish.
Xatarlar va ta'sirlarni baholash	• Xatarlar va ta'sirlarni aniqlash. • Xatarga duch keluvchi shaxslarni aniqlash. • Nazorat usullarini aniqlash. • Xatar va ta'sir toifasini aniqlash.
Xatarlar va ta'sirlarni tahlil qilish	• Xatar, ta'sirning qabul qilinishi mumkinligi to'g'risida qaror. • Xatarlar va ta'sirlar ustuvorligini aniqlash.
Boshqaruv choralarini belgilash	• Maqbul darajaga olib chiqish uchun chora-tadbirlarini belgilash. • Amalga oshirish va joriy nazorat. • Rejalashtirilgan tadbirlar bajarilgach, qayta baholash.

Inson huquqlarini himoya qilish

GRI 406-1, GRI 408-1, GRI 409-1, GRI 415-1

“Navoiyuran” DK inson huquqlariga rioya etishni barqaror rivojlanish va mas’uliyatli korporativ boshqaruvning ajralmas qismi deb biladi. Korxona inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarga, jumladan Inson huquqlari bo’yicha Xalqaro billga va BMTning inson huquqlari doirasida tadbirkorlik faoliyati bo’yicha Yo’llanma tamoyillariga, shuningdek, O’zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga rioya etadi.

Biz teng imkoniyatlarni ta’minlash, har bir xodim qadr-qimmatini hurmat qilish va mehnat munosabatlarida etik me’yorlarga rioya etishga qaratilgan ichki mexanizmlarni joriy qilganmiz. Alohida e’tibor xavfsizlik, diskriminatsiyaga yo’l qo’ymaslik hamda zaif guruhlar huquqlarini himoya qilish masalalariga qaratiladi.

Inson huquqlariga rioya qilish sohasidagi faoliyatning asosiy yo’nalishlari:

- Barcha toifadagi xodimlarning mehnat huquqlarini ta’minlash va himoya qilish.
- Xavfsiz, sog‘lom va inklyuziv ish muhitini yaratish va qo‘llab-quvvatlash.
- Shikoyat va murojaatlar uchun qulay va maxfiy, jumladan anonim kanallarni ta’minlash.
- Xodimlarning konstruktiv ijtimoiy faolligini qonun doirasida qo‘llab-quvvatlash.
- Har qanday diskriminatsiya, majburiy mehnat va bolalar mehnatini istisno etish.
- Xodimlarning birlashish erkinligi va jamoaviy muzokaralarda ishtirok etish huquqini tan olish.

“Navoiyuran” DK xodimlariga jinsi, yoshi, irqi, etnik kelib chiqishi, diniy e’tiqodi, siyosiy qarashi va boshqa belgilaridan qat’i nazar teng imkoniyatlarni ta’minlaydi. Hisobot davrida diskriminatsiya bilan bog‘liq buzilishlar qayd etilmadi. Majburiy mehnat yoki bolalar mehnatidan foydalanish xavflari ahamiyatsiz darajada deb baholangan, bu masalalar bo’yicha hech qanday shikoyat yoki murojaatlar kelib tushmagan.

Bundan tashqari, ishbilarmonlik etikasi va shaffoflik tamoyillari doirasida korxona siyosiy neytrallik siyosatiga qat’iy amal qiladi: siyosiy partiyalar, harakatlar yoki nomzodlarni moliyaviy yoki boshqa shaklda qo‘llab-quvvatlamaydi, siyosiy faoliyatda ishtirok etmaydi hamda xodimlarning korxona nomidan siyosiy jarayonlarga jalb etilishiga yo’l qo’ymaydi.

Axborot xavfsizligi

GRI 418-1

Raqamli transformatsiya va axborot texnologiyalariga qaramlik ortib borayotgan sharoitda axborot xavfsizligini ta'minlash "Navoiyuran" DKning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Korxona axborot tizimlari, shaxsiy va korporativ ma'lumotlarni himoya qilish operatsion barqarorlik va manfaatdor tomonlar – hamkorlar, mijozlar, xodimlar va davlat organlarining ishonchini saqlashning ajralmas sharti ekanini anglaydi.

"Navoiyyuran" DK axborot xavfsizligi tizimi milliy qonunchilik, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan qarorlari talablari asosida shakllantirildi. Axborot himoyasini ta'minlashning asosiy tamoyillari, maqsad va chora-tadbirlari "Navoiyuran" DKning tasdiqlangan Axborot xavfsizligi siyosatida mustahkamlangan. Hujjat kompaniyaning xavfsizlik me'yorlariga rioya etish, ruxsatsiz kirishlarning oldini olish, hodisalarni boshqarish va faoliyatning uzluksizligini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini aks ettiradi.

Favqulodda vaziyatlar va texnik nosozliklar sharoitida operatsion faoliyat uzluksizligini hamda muhim resurslarni o'z vaqtida tiklash uchun korxonada biznesning uzluksizligini ta'minlash va hodisadan keyin tiklash rejasi joriy etilgan. Ushbu reja zahira nusxalari va zaxiralar, stress testlari va pen testlarini o'z ichiga olgan hodisalarga javob berish tartib-qoidalarini o'z ichiga oladi. Kuchli VSR va hodisalarga javob berish tartib-qoidalari Korxonaning chidamliligini oshiradi, uning obro'sini himoya qiladi va salbiy hodisalar oldida manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlaydi.

2024-yildagi axborot xavfsizligi bo'yicha asosiy tashabbuslar.

2024-yilda axborot xavfsizligi strategiyasini amalga oshirish doirasida "Navoiyuran" DK tomonidan axborot resurslari xavfsizligini oshirish, risklarni minimallashtirish va korporativ barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan qator ustuvor chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- **Axborot xavfsizligining joriy holatiga kompleks baho:** Korxona axborot xavfsizligi muhiti bo'yicha keng qamrovli diagnostika o'tkazildi. Uning doirasida mavjud zaifliklar aniqlandi, tahdidlar tahlil qilindi va amaldagi himoya mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Olingan natijalar axborot xavfsizligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha keyingi qarorlar uchun asos bo'lib xizmat qildi.
- **AXMT (ISO/IEC 27001:2022) tuzilmasini integratsiya qilish:** Xalqaro ISO/IEC 27001:2022 standartiga muvofiq axborot xavfsizligi menejmenti tizimi joriy etildi. Unda xavfsizlik maqsadlarini belgilash, xatarlarni boshqarish, nazorat choralarini integratsiya qilish, shuningdek, himoya mexanizmlarini tizimli ravishda monitoring qilish va takomillashtirish jarayonlari amalga oshirildi.
- **Kirish nazoratini kuchaytirish:** Axborot tizimlari va ma'lumotlarga kirishni nazorat qilish bo'yicha kompleks choralar joriy etildi. Ushbu chora-tadbirlar huquqlarni chegaralash, shifrlash usullarini qo'llash va autentifikatsiya siyosatiga qo'shimcha talablarni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Bu maxfiy ma'lumotlarni ham saqlash, ham uzatish jarayonida ishonchli himoya qilishni ta'minladi.

- **Tarmoq va davlat tuzilmalari bilan hamkorlik:** Kiberxavfsizlik sohasida vakolatli idoralar va kasbiy hamjamiyat bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yildi. Bu tajriba almashish, mutaxassislarning malakasini oshirish va kibertaxdidlarga javob berish samaradorligini oshirish imkonini berdi.
- **DLP tizimini joriy etish:** Ma'lumotlarning chiqib ketishini (DLP) oldini olish dasturiy ta'minoti joriy etildi. Bu maxfiy ma'lumotlar bilan ishlashni samarali nazorat qilish, ularning noqonuniy tarqatilishini oldini olish va trafik xavfsizligini ta'minlash imkonini berdi.
- **Xavfsizlik tuzilmalarini raqamlashtirish:** Idoraviy qo'riqlash bo'linmalari faoliyati raqamli transformatsiya qilindi. Ob'ektlarda situatsion markazlar faoliyati yo'lga qo'yildi, bu esa hodisalarga javob qaytarish samaradorligini oshirdi va infratuzilma ob'ektlarining himoya darajasini kuchaytirdi.
- **Audit o'tkazish va ISO/IEC 27001 bo'yicha sertifikatlashtirish:** Xalqaro standartlarga muvofiqlikni tasdiqlash doirasida tashqi audit muvaffaqiyatli o'tkazildi va ISO/IEC 27001 muvofiqlik sertifikati olindi. Bu qadam axborot xavfsizligi tizimining yuqori darajadagi yetukligini va korxonaning eng yaxshi jahon tajribalariga sodiqligini tasdiqlaydi.

Ushbu chora-tadbirlar barqaror va himoyalangan IT-muhitni shakllantiradi hamda "Navoiyuran" DKning keyingi raqamli rivojlanishi uchun ishonchli asos yaratadi. Hisobot yilida mijozlar ma'lumotlari maxfiyligini buzish bilan bog'liq hech qanday shikoyatlar kelib tushmadi.

Hisobot to'g'risida

GRI 2-3, GRI 2-4, GRI 2-5

“Navoiyuran” DK sizlarga 2024-yilgi barqaror rivojlanish hisobotini taqdim etadi. Ushbu hisobot “Navoiyuran” DKning manfaatdor tomonlar oldidagi shaffoflik va mas’uliyatlik prinsiplariga sadoqatini aks ettirib, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan barqaror rivojlanishning asosiy jihatlarini yoritib beradi.

Hisobot davri 2024-yilni (2024-yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha) qamrab oladi. Ma’lumotlarning solishtirma imkoniyatini ta’minlash maqsadida, ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar uch yillik dinamikada keltirilgan.

Ushbu hisobotni tayyorlashdan maqsad manfaatdor tomonlarni Korxonaning strategik ustuvor yo‘nalishlari, uning barqaror rivojlanish sohasidagi sa’y-harakatlari va jamiyat va biznes uchun uzoq muddatli qiymat yaratishga hissa qo‘shadigan ESG tashabbuslari haqida xabardor qilishdir.

Hisobot Global hisobot berish tashabbusi standartlari (GRI Standards, 2021), sohaviy standartlar SASB Metals & Mining, shuningdek, MSFO S2 “Iqlim bilan bog‘liq ma’lumotlarni oshkor qilish” talablari asosida tayyorlandi. Barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro tashabbuslardan keltirilgan holda, “Navoiyuran” DK BMTning Global shartnomasi tamoyillariga amal qilib, Barqaror rivojlanish maqsadlarini o‘z faoliyatiga integratsiyalaydi. Mazkur hisobot tashkilotning ushbu tashabbuslar doirasidagi rivoji haqida xabar beradi.

“Navoiyuran” DKning Barqaror rivojlanish hisoboti “Navoiyuran” DK Kuzatuv Kengashining qarori bilan tasdiqlanadi va manfaatdor tomonlarga korporativ web-saytda e’lon qilish va bosma nusxasini tarqatish yo‘li bilan yetkaziladi.

“Navoiyuran” DKning Barqaror rivojlanish hisoboti elektron formatda o‘zbek, rus va ingliz tillarida “Navoiyuran” DK web-saytida: <https://navoiyuran.uz> elektron manzilda mavjud.

Hisobdorlik chegarasi “Navoiyuran” DK va uning tuzilma bo‘linmalarini qamrab oladi (*batafsil “Hisobdorlik chegarasi” bo‘limiga qarang*).

Hisobdorlik chegarasi

GRI 2-2

Hisobotda keltirilgan barqaror rivojlanish to'g'risidagi ma'lumotlar "Navoiyuran" davlat korxonasi va uning tarkibiy bo'linmalariga tegishli.

Boshqa hollarda, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha hisobdorlik chegaralari yuqorida tavsiflanganidan farq qilganda, hisobot matnida hisobdorlik chegaralariga kiritilgan bo'linmalar to'g'risidagi ma'lumotlar qo'shimcha ravishda taqdim etiladi.

Hisobot doirasida "Navoiyuran" davlat korxonasi deganda, korxonaning o'zi ham, uning tarkibiy bo'linmalari ham nazarda tutiladi. Agar alohida ko'rsatilmagan bo'lsa, "Korxona" va "Navoiyuran" DK atamalari "Navoiyuran" DK va uning tarkibiy bo'linmalarini anglatadi.

Hisobotni mustaqil tekshirish

GRI 2-5

Taqdim etilgan ma'lumotlarning xolisligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida ushbu hisobot bo'yicha tashqi verifikatsiya o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Ilovalar

Ilova 1. GRI ko'rsatkichlari jadvali

GRI standarti	Ochiqlik	Bo‘lim, bet.	Istisnalar		
			Yetishmayotgan talab(lar)	Sabab	Tushuntirish
GRI 2 Umumiy ma’lumotlarni oshkor etish 2021	1. Tashkilot va uning hisobot amaliyoti				
	2-1 Tashkilot to‘g‘risidagi ma’lumotlar	Ошибка! Закладка не определена.			
	2-2 Tashkilotning barqaror rivojlanish sohasidagi hisobotiga kiritilgan sub’yektlar	14			
	2-3 Hisobdorlik davri, davriylik va bo‘g‘lanadigan shaxs	156			
	2-4 Ma’lumotlarni ko‘rib chiqish	156			
	2-5 Tashqaridan tasdiqlatish	156			
	2. Faoliyat va xodimlar				
	2-6 Faoliyat ko‘rsatish, qiymat yaratish zanjiri va boshqa ishbilarmonlik aloqalari	14, 16, 53			
	2-7 Xodimlar	101			
	2-8 Xodim bo‘lmagan ishchilar	101			

	3. Korporativ boshqaruv				
	2-9 Oliy boshqaruv organining tuzilishi va tarkibi	131			
	2-10 Oliy boshqaruv organiga nomzod ko'rsatish va tanlash	131			
	2-11 Oliy boshqaruv organi Raisi	131			
	2-12 Ta'sirni boshqarishni nazorat qilishda Oliy boshqaruv organining roli	24			
	2-13 Ta'sirni boshqarish uchun mas'uliyatni topshirish	24, 131			
	2-14 Barqaror rivojlanish sohasidagi hisobdorlikda oliy boshqaruv organining roli	24, 131			
	2-15 Manfaatlar to'qnashuvi	138			
	2-16 Kritik muammolar haqida xabar	146			
	2-17 Oliy boshqaruv organining jamoaviy bilimi	-			2024-yilda yuqori boshqaruv organi uchun korporativ boshqaruv bo'yicha treninglar o'tkazilmagan, ammo kelgusi davrlar uchun rejalashtirilgan.

	2-18 Oliy boshqaruv organi faoliyatini baholash	138			
	2-19 Taqdirlash siyosati	138			
	2-20 Taqdirlashni aniqlash jarayoni	138			
	2-21 Yillik jami kompensatsiya nisbati	138			
	4. Strategiya, siyosat va amaliyot				
	2-22 Barqaror rivojlanishni strategiyasi to'g'risida bildirish	7, 9			
	2-23 Siyosiy majburiyatlar	24			
	2-24 Siyosiy majburiyatlarni tadbiq etish				
	2-25 Salbiy ta'sirlarni bartaraf etish jarayonlari	122			
	2-26 Shikoyat va murojaatlar haqida xabar berish mexanizmlari	147			
	2-27 Qonun va qoidalarga rioya qilish	145			
	2-28 Uyushmalarga a'zolik	32			
	5. Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar				
	2-29 Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqaga yondashuv	35			

	2-30 Jamoaviy shartnomalar	111			
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-1 Ahamiyatli mavzularni aniqlab olish jarayoni	40			
	3-2 Ahamiyatli mavzular ro'yxati	40			
Energiya samaradorligi					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	79		14.1.1	
GRI 302: Energiya 2016	302-1 Tashkilot ichidagi energiya iste'moli	81		14.1.2	
	302-3 Energiya sig'imdorligi	83		14.1.4	
	302-4 Energiya iste'molining pasayishi	81		14.1.5	
Iqlim o'zgarishi					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	81		14.1.1	
GRI 305; Chiqindilar 2016	305-1 Issiqxona gazlarini to'g'ridan-to'g'ri tashqariga chiqarish (Qamrov-1)	79		14.1.5	
	305-2 Issiqxona gazlarining bilvosita energetik chiqarib yuborilishi (Qamrov-2)	80		14.1.6	
	305-3 Boshqa bilvosita issiqxona gazlari emissiyasi (Qamrov-3)	80		14.1.7	

Atmosfera havosini muhofaza qilish					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	98		14.3.1	
GRI 305; Chiqindilar 2016	305-7 Atmosferaga azot oksidi (NO _x), oltingugurt oksidi (SO _x) va boshqa sezilarli tashqariga chiqarishlar.	98		14.3.2	
Suv resurslarini muhofaza qilish					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	95		14.7.1	
GRI 303: Suv resurslari va oqava suvlari 2018	303-1 Suv resurslarining iste'moli	95		14.7.2	
	303-2 Suvni tushirib yuborish bilan bog'liq bo'lgan ta'sirni boshqarish	95		14.7.3	
	303-3 Suvni tortib olish	96		14.7.4	
	303-4 Suvni tushirib yuborish	97		14.7.5	
	303-5 Suv iste'moli	97		14.7.6	
Biologik xilma-xillikni saqlash					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	99		14.4.1	
GRI 304: Biologik xilma-xillik 2016	304-1 Kompaniyaning qo'riqlanadigan hududlarda va biologik xilma-xillik ahamiyati yuqori bo'lgan hududlarda	99		[^] Quyida qarang	

	qo‘riqlanadigan hududlar va ularga tutash hududlardan tashqarida egalik qiladigan, ijaraga olingan yoki boshqariladigan ishlab chiqarish maydonchalari				
	304-2 Faoliyatlar, mahsulotlar va xizmatlarning biologik xilma-xillikka sezilarli ta’siri	99		[^] Quyida qarang	
Chiqindilarni boshqarish					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	89		14.5.1	
GRI 306: Chiqindilar 2020	306-1 Chiqindilarni hosil qilish va muhim chiqindilar ta’siri	90		14.5.2	
	306-2 Chiqindilar bilan bog‘liq sezilarli ta’sirlarni boshqarish	90		14.5.3	
	306-3 Yuzaga keladigan chiqindilar	90		14.5.4	
	306-4 Qayta ishlashga jo‘natilgan chiqindilar	92		14.5.5	
	306-5 Ko‘mishga yuborilgan chiqindilar	92		14.5.6	
Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	118		14.16.1	

GRI 403: Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi 2018	403-1 Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarish tizimi	119		14.16.2	
	403-2 Xavflarni aniqlash, baholash va noxush hodisalarni tekshirish	120, 122		14.8.3	
	403-3 Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik xizmatlari	124		14.8.4	
	403-4 Ishchilarning mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi masalalari bo'yicha ishtiroki, maslahatlashuvi va muloqoti	119		14.8.5	
	403-5 Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha xodimlarni o'qitish	122		14.8.6	
	403-6 Xodimlarning salomatligini mustahkamlash dasturlari	124		14.8.7	
	403-7 Ishbilarmonlik munosabatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan sog'liq va xavfsizlikka ta'sirlarning oldini olish va kamaytirish	124		14.8.8	
	403-8 Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan xodimlar	119		14.8.9	
	403-9 Ishlab chiqarish travmalari	127		14.8.10	
	403-10 Kasbiy kasalliklar	124		14.8.11	

Radiatsiya xavfsizligi					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	124			
Qo'shimcha ma'lumotlar	Radiatsiya xavfsizligini ta'minlash	125			
Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	122			
Qo'shimcha ma'lumotlar	Favqulodda vaziyatlarga javob berish strategiyasi	122			
Bandlik					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	102		14.8.1 14.17.1	
GRI 202: Bozorlarida ishtirok etish 2016	202-1 Yuqori bo'g'in rahbarlarining mahalliy hamjamiyatdan yollangan ulushi	107		14.17.3	
GRI 401: Bandlik 2016	401-1 Yangi xodimlarni yollash va xodimlar ko'nimsizligi	103		14.17.3	
	401-2 To'liq hissaga ishlovchi xodimlarga beriladigan, ammo vaqtinchalik yoki yarim kunlik ishlovchi xodimlarga berilmaydigan imtiyozlar	112		14.17.4	
	401-3 Bolani parvarishlash bo'yicha ta'til	112		14.17.5 14.21.3	

Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	108		14.8.1 14.17.1 14.21.1	
GRI 404: O'qitish va ta'lim 2016	404-1 Bir xodimga yillik o'quv soatlari sonining o'rtacha qiymati	109		14.17.7	
	404-2 Xodimlarning malakasini oshirish va yangi ishga o'tishda yordam berish dasturlari	109		14.8.3	
	404-3 Muntazam ravishda ish faoliyatini va martaba rivojlanishini baholashdan o'tadigan xodimlar ulushi	111			
Turli xillik va teng imkoniyatlar					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	104		14.21.1	
GRI 405: Xilma-xillik va teng imkoniyatlar 2016	405-1 Rahbarlik organlari va xodimlarning xilma-xilligi	101, 105		14.21.5	
	405-2 Ayollar va erkaklarning asosiy ish haqi va mukofotining nisbati	107		14.21.6	
GRI 406: Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik 2016	406-1 Diskriminatsiya holatlari va ko'rilgan tuzatish choralari	153		14.21.7	
GRI 407:	407-1 Assotsiatsiyalash erkinligi va jamoaviy kelishuv olib borish huquqi xavf ostida bo'lishi	112		14.21.7	

Assotsiatsiyalash erkinligi va jamoaviy kelishuv olib borish 2016	mumkin bo'lgan jarayonlar va ta'minlovchilar				
Bilvosita iqtisodiy ta'sir					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	116		14.9.1	
GRI 203: Bevosita bo'lmagan iqtisodiy ta'sirlar 2016	203-1 Infratuzilma va xizmatlarga investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash	116		14.9.3	
Mahalliy jamoalar					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	116		14.10.1	
GRI 413: Mahalliy hamjamiyatlar 2016	413-1 Mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish amalga oshadigan operatsiyalar, ta'sirni baholash va rivojlanish dasturlari Ta'sirni baholash va rivojlantirish dasturlari	116		14.10.2	
Xarid qilish amaliyoti					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	50		14.9.1	
GRI 204: Xarid amaliyotlari 2016	204-1 Mahalliy yetkazib beruvchilar bo'yicha xarajatlar ulushi	50		14.9.5	
Korrupsiyaga qarshi kurash					

GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	146		14.22.1	
GRI 205: Korrupsiyaga qarshi kurash 2016	205-1 Korrupsiya bilan bog'liq xavflar bo'yicha faoliyatni baholash	146		14.22.2	
	205-2 Kommunikatsiya va korrupsiyaga qarshi siyosat va protseduralarga o'qitish	146		14.22.3	
	205-3 Aniqlangan korrupsiya holatlari va ko'rilgan choralar	146		14.22.4	
Iqtisodiy samaradorlik					
GRI 3 Ahamiyatli mavzular 2021	3-3 Ahamiyatli mavzularni boshqarish	45		14.9.1	
GRI 201: Iqtisodiy faoliyat 2016	201–1 Yaratilgan va taqsimlangan bevosita iqtisodiy qiymat	45		14.9.2, 14.23.2	
GRI 207: Soliq 2019	207–1 Soliqqa tortishga yondashuv	47		14.23.4	
	207–2 Soliq boshqaruvi, nazorat va xatarlarni boshqarish	47		14.23.5	
	207–3 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik va soliqlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish	47		14.23.6	

GRIning tegishli sohaviy standartlarida qayd etilgan, muhim emas deb baholangan mavzular

Mavzu	Izoh
GRI 14: Mining Sector 2024	
14.4-Mavzu: Biologik xilma-xillik *	Kompaniya muhim mavzu sifatida biologik xilma-xillikni tanlagan bo'lsa-da, bu mavzu sanoat standartida qo'llanilmadi, chunki u 2026-yilda kuchga kiradigan GRI standartlari doirasidagi yangi biologik xilma-xillik standartiga tegishli. “Navoiyuran” DK o‘zining biologik xilma-xillik siyosatini batafsil yoritib beradi. <i>“Biologik xilma-xillik” bo‘limiga qarang.</i>

Ilova 2. SASB ko'rsatkichlari jadvali

SASB indikatori	Ko'rsatkich	Hisobot bo'limi	Bet	Izoh
EM-MM-110a.1.	Issiqxona gazlari chiqindilari. Qamrov-1 bo'yicha yalpi global chiqindilar, chiqindilarni cheklovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar qamrovining foizi	Iqlim o'zgarishi va uglerodga boy kam rivojlanish	96	
EM-MM-110a.2.	Qamrov-1 bo'yicha chiqindilarni boshqarishga oid uzoq muddatli va qisqa muddatli strategiya yoki rejaning tavsifi, chiqindilarni qisqartirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar hamda ushbu maqsadli ko'rsatkichlar bilan taqqoslagan holda samaradorlik tahlili.	Asosiy ko'rsatkichlar va maqsadli qiymatlar	81	
EM-MM- 120a.1.	Atmosferaga quyidagi ifloslantiruvchi moddalarning chiqindilari: 1.SO _x 2.NO _x (N ₂ Oni hisobga olmagan holda) 3.Qattiq moddalar (PM10) 4. Uchuvchan organik birikmalar (UOB)	Atmosfera havosini muhofaza qilish	98	Kompaniya bo'yicha simob va qo'rg'oshin chiqindilari mavjud emas.
EM-MM-130a.1.	(1) Energiyaning umumiy iste'moli, (2) tarmoqdan olingan elektr energiyasining foizi va (3) yangilanadigan energiya foizi.	Asosiy ko'rsatkichlar va maqsadli qiymatlar	81	

EM-MM-140a.1.	(1) Olingan suvning umumiy hajmi, (2) iste'mol qilingan suvning umumiy hajmi; suv tanqisligi yuqori yoki juda yuqori bo'lgan hududlarda har birining foizi.	Suv resurslarini muhofaza qilish	97	Korxona suv tanqisligi mavjud hududlarda suv olishni amalga oshirmaydi.
EM-MM-140a.2.	Suv sifatini tartibga soluvchi ruxsatnomalar, standartlar va qoidalarga rioya etilmagan holatlar soni.	Suv resurslarini muhofaza qilish	97	Suv sifatini tartibga soluvchi ruxsatnomalar, standartlar va qoidalarga rioya etilmaslik holatlari qayd etilmagan.
EM-MM-150a.4.	Nomineral chiqindilarning umumiy massasi: (1) metall parchalari, (2) ko'mir braki, (3) ishlatilgan moy, (4) shinalar, (5) akkumulyatorlar, (6) boshqa qattiq chiqindilar.	Chiqindilarni boshqarish.	90	
EM-MM-150a.5.	Ishlab chiqarilgan qoldiqlarning umumiy massasi.	Chiqindi omborlarini boshqarish	94	
EM-MM-150a.6.	Hosil bo'lgan chiqindi jinslarning umumiy og'irligi	Radioaktiv chiqindilar bilan ishlash.	94	
EM-MM-150a.7	Chiqarilgan xavfli chiqindilarning umumiy og'irligi	Chiqindilarni boshqarish.	90	
EM-MM-150a.8	Qayta ishlangan xavfli chiqindilarning umumiy og'irligi	Chiqindilarni boshqarish.	92	
EM-MM-150a.9	Xavfli materiallar va chiqindilarni boshqarish bilan bog'liq muhim hodisalar soni.	Radioaktiv chiqindilar bilan ishlash.	94	Xavfli materiallar va chiqindilar bilan bog'liq hodisalar qayd etilmagan.

EM-MM-150a.10	Chiqindilarni va xavfli materiallarni boshqarish siyosati va faol va nafaol operatsiyalar uchun protseduralar tavsifi.	Chiqindilarni boshqarish.	90	
EM-MM-160a.1	Ekologik boshqaruv siyosati va ekspluatatsiya qilinadigan ob'ektlar uchun amaliyotlarning tavsifi.	Chiqindilarni boshqarish.	94	
EM-MM-160a.2	Kislotali jinslar drenaji mavjud bo'lgan shaxta uchastkalarining ulushi: (1) prognoz qilinayotgan, (2) faol ravishda yumshatilayotgan va (3) qayta ishlash yoki rekultivatsiya jarayonida bo'lgan.		-	Korxonada hisob yuritilmaydi
EM-MM-160a.3	Qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda yoki yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar yashash joylarida yoki ular yaqinida joylashgan (1) isbotlangan va (2) ehtimoliy zaxiralar ulushi.	Biologik xilma-xillikni saqlash.	99	Qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda yoki yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar yashash joylarida yoki ular yaqinida isbotlangan va ehtimoliy zaxiralar ulushi – 0%.
EM-MM-210a.1	Konflikt zonalarida yoki ular yaqinida joylashgan (1) isbotlangan va (2) ehtimoliy zaxiralar ulushi.	Biologik xilma-xillikni saqlash.	99	Konflikt zonalarida olib borilgan ishlar ulushi – 0%.
EM-MM-210a.2	(1) isbotlangan va (2) taxminiy zaxiralar foizi mahalliy xalqlar yerlari yoki ularga yaqin hududlarda.		-	O'zbekistonda rasmiy ravishda tan olingan mahalliy xalqlar mavjud emas.

EM-MM-210a.3	Inson huquqlari, mahalliy xalqlar huquqlari va mojaroli hududlardagi faoliyatga oid o'zaro hamkorlik jarayonlari hamda puxta tekshiruv amaliyotlari muhokamasi.		-	O'zbekistonda rasmiy ravishda tan olingan mahalliy xalqlar mavjud emas.
EM-MM-210b.1	Jamoa huquq va manfaatlari bilan bog'liq xavf-xatarlar va imkoniyatlarni boshqarish jarayonini muhokama qilish.	Faoliyat yuritayotgan hududlarning ijtimoiy rivojlanishiga hissa	117	
EM-MM-210b.2	(1) Texnik bo'lmagan to'xtalishlar soni va (2) davomiyligi.	-	-	2024 yilda Korxonada ijtimoiy, me'yoriy yoki boshqa nomoddiy omillar bilan bog'liq texnik bo'lmagan to'xtalishlar yoki ishlarning to'xtashi holatlari qayd etilmadi.
EM-MM-310a.1	Jamoaviy shartnomalar asosida band bo'lgan faol ishchi kuchining ulushi.	Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	112	
EM-MM-310a.2	(1) Norasmiy ish tashlashlar va lokautlar soni, (2) ularning davomiyligi.	Xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	112	Ish tashlashlar va lokautlar holatlari qayd etilmadi.
EM-MM-320a.1	(1) Barcha baxtsiz hodisalar chastotasi koeffitsienti (MSHA), (2) o'lim holatlari koeffitsienti, (3) yaqin baxtsiz hodisalar chastotasi koeffitsienti (NMFR), (4) mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va favqulodda holatlarga javob choralari bo'yicha o'qitishning o'rtacha soatlari: (a) shtat xodimlari uchun	Ishlab chiqarish travmatizmi	127	

	va (b) shartnoma asosida ishlovchi xodimlar uchun.			
EM-MM-510a.1	Qiymat zanjiri bo'ylab korrupsiya va pora olish-berishni oldini olishga qaratilgan boshqaruv tizimi tavsifi.	Korrupsiyaga qarshi kurash.	146	
EM-MM-510a.2	“Transparency International” ning Korrupsiyani qabul qilish indeksida eng past 20 ta reytingga ega davlatlardagi ishlab chiqarish.	-	-	O'zbekiston “Transparency International”ning Korrupsiyani qabul qilish indeksida eng past 20 ta reytingga kirmaydi.
EM-MM-540a.1	Chiqindi ombori uchun inventarizatsiya jadvali: (1) ob'ekt nomi; (2) joylashuvi; (3) mulkdorlik maqomi; (4) operatsiyaviy maqomi; (5) qurilish usuli; (6) saqlashning eng yuqori ruxsat etilgan hajmi; (7) hozirda saqlanayotgan chiqindi omborlar miqdori; (8) oqibatlar klassifikatsiyasi; (9) oxirgi mustaqil texnik ekspertiza sanasi; (10) asosiy xulosalar; (11) oqibatlarni yumshatish choralari; (12) favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va ularga javob qaytarish rejalari.	-	-	Korxonada chiqindi ombori mavjud emas.
EM-MM-540a.2	Chiqindi omborlarni monitoring qilish va ularning barqarorligini ta'minlash uchun qo'llaniladigan	-	-	

	boshqaruv tizimlari va boshqaruv tuzilmasi haqida qisqacha tavsif.			
EM-MM-540a.3	Chiqindi ombori obyektlari uchun favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va javob chora-tadbirlari rejalarini ishlab chiqish yondashuvi.	-	-	
EM-MM-000.A	Ishlab chiqarish hajmlari: (1) metall ma'danlari va (2) sotish uchun yaroqli tayyor metall mahsulotlari.	Konlar ro'yxati	16	
EM-MM-000.B	Xodimlarning umumiy soni, pudratchi tashkilotlar ulushi (foizda).	Xodimlarni boshqarish. Kadrlar tarkibi.	101	

Ilova 3. Abbreviaturalar va qisqartmalar

Abbreviatura/Qisqartma	Toliq nomi
AJ	Aksiyadorlik Jamiyati
AES	Atom elektrostansiyalari
HTQQ	Harbiylashtirilgan tog‘-qutqaruv qismi
QTEM	Qayta tiklanadigan energiya manbalari
GDj	Gigadjoul
DK	Davlat korxonasi
IM	Ifloslantiruvchi moddalar
AMTTA	Atrof-muhitga ta’sir to‘g‘risida ariza
EOTA	Ekologik oqibatlar to‘g‘risida ariza
ShJBPH	Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobi
AT	Axborot texnologiyalari
LSQ	Lokal-sorbtsion qurilmalar
MAGATE	Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro Agentlik
MVt/s	Megavat soat
IO‘HEG	Iqlimni o‘zgartirish bo‘yicha hukumatlataro ekspertlar guruhi
MHTKM	Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori
MHXS	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
FVV	Favqulodda vaziyatlar vazirligi
MAK	Milliy atom kompaniyasi
BHMS	O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlari
AMTB	Atrof-muhitga ta’sirni baholash

BEB	Bosh energetik bo‘limi
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
MMQ va TX	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi
MChJ	Mas’uliyati cheklangan jamiyat
PG	Parnik gazlari
CYQCT	Chegaraviy yo‘l qo‘yilgan chiqarib tashlashlar
ChHBJN	Chiqindilarni hosil bo‘lishining va ularni joylashtirishning normativlari
CYQST	Chegaraviy yo‘l qo‘yilgan suvni tushirishlar
BTQ	Bug‘li-turbina qurilmasi
O‘R	O‘zbekiston Respublikasi.
ShHV	Shaxsiy himoya vositalari
OAV	Ommaviy axborot vositalari
AMMX	Atrof muhitni muhofazalash xizmati
AQSh	Amerika Qo‘shma Shtatlari
EMT	Ekologik menejment tizimi
EQUIU	Eritmalarni qayta ishlash uchastkasi
BRM	Barqaror rivojlanish maqsadlari
FIO	Familiya, ismi, otasining ismi
GRI	Global Reporting Initiatives
IPO	Initial Public Offering
ISO	International Organization for Standardization
SASB	Sustainability Accounting Standards Board

TCFD	Task Force on Climate-related Financial Disclosures
NMFR	Number of Malfunction Frequency Rate

Ilova 4. Fikr-mulohaza uchun aloqa anketasi

GRI 2-1, 2-3

Korxona yondashuvlarni yanada takomillashtirish va moliyaviy bo‘lmagan hisobotlarning shaffofligini oshirish maqsadida manfaatdor tomonlardan fikr-mulohazalarni olishdan manfaatdor.

Agar Sizda Hisobotda keltirilgan ma’lumotlar bo’yicha savollaringiz bo’lsa yoki fikr-mulohaza bildirmoqchi bo’lsangiz, iltimos, Korxona vakolatxonasiga murojaat qiling.

Bog‘lanish uchun shaxs	Muxriddin Xamroyev
Telefon raqami	(+998 79) 507-00-50, (+998 79) 507-02-17
Email	M.Hamroyev@navoiyuran.uz, info@navoiyuran.uz

Ilava 5. Qo‘shimcha ESG ko‘rsatkichlari

Ijtimoiy ko‘rsatkichlar:

2022–2024 yillar bo‘yicha xodimlarning gender tarkibi, kishi soni bo‘yicha.

GRI 2-7

Hudud	Doimiy xodimlar						Vaqtinchalik xodimlar					
	2022		2023		2024		2022		2023		2024	
	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A
Navoiy	311	104	346	114	374	124	0	0	0	0	0	0
Zafarobod, Nurota GQE	4 636	456	5 031	457	5 363	457	0	0	0	0	0	0
Uchquduq, Bukantau	1 370	149	1 454	148	1 546	141	0	0	0	0	0	0
Nurobod, Toshkent, Zirabuloq	1 182	164	1 244	164	1 287	167	0	0	0	0	0	0
Jami	7499	873	8075	883	8570	889	0	0	0	0	0	0

Xodimlar toifalari bo'yicha kadrlar tuzilmasi, kishi soni.

	2022						2023						2024					
	30<		30 - 50		>50		30<		30 - 50		>50		30<		30 - 50		>50	
Xodimlar toifasi	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A	E	A
Rahbarlar	45	0	512	23	120	15	42	0	571	24	116	13	40	0	599	27	99	9
Mutaxassislar	10	15	53	70	26	18	16	12	51	77	7	15	16	14	47	72	15	13
Boshqa xizmat-chilar	1342	173	4284	442	1110	114	1567	160	4578	464	1127	118	1566	138	4905	474	1283	142
Jami	1397	188	4849	535	1256	147	1625	172	5200	565	1250	146	1622	152	5551	573	1397	164

2022-2024 yillarda ishga qabul qilingan xodimlar soni va yoshi, kishi soni

GRI 401-1

Hudud	2022		2023		2024	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Navoiy	100	21	52	11	38	14
Zafarobod, Nurota GQE	882	52	805	25	553	18
Uchquduq, Bukantau	305	24	171	3	134	2
Boshqalar (Nurobod, Toshkent, Zirabuloq)	332	90	140	12	126	12
Jami	1 619	187	1 168	51	851	46

2022-2024 yillarda ishdan bo'shatilgan xodimlar soni va yoshi, kishi soni

GRI 401-1

Hudud	2022		2023		2024	
	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
Navoiy	16	5	16	2	10	4
Zafarobod, Nurota GQE	169	22	410	23	222	17
Uchquduq, Bukantau	42	3	88	2	43	8
Boshqalar (Nurobod, Toshkent, Zirabuloq)	18	1	81	11	80	12
Jami	245	31	595	38	355	41

2024 yil uchun xodimlarni ishga qabul qilish va ularning qo‘nimsizligi ko‘rsatkichlari, kishi soni

GRI 401-1

Toifa	Ishga qabul qilingan, kishi soni	Yangi xodimlar koeffitsiyenti, %	Mehnat shartnomasi bekor qilingan, kishi soni	Qo‘nimsizlik koeffitsiyenti, %
Jami	897	9%	396	0.95%
Yosh toifalari bo‘yicha				
30 yoshgacha	431	5%	78	0.2%
30 yoshdan 50 yoshgacha	453	5%	133	0.6%
50 yoshdan yuqori	13	0.14%	185	0.2%
Jins toifalari kesimida				
Erkaklar	851	9%	355	1%
Ayollar	46	0.49%	41	0.1%
Hudud bo‘yicha				
Navoiy	52	1%	14	0.1%
Zafarobod, Nurota GQE	571	6%	239	1%
Uchquduq, Bukantau	136	1%	51	0.2%
Boshqalar (Nurobod, Toshkent, Zirabuloq)	138	1%	92	0.2%

Xodimlarni mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi masalalari bo‘yicha o‘qitish

GRI 403-5

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024
Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi yo‘nalishida ichki o‘quv kurslaridan ⁶ o‘tgan xodimlar soni.	552	461	858
Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi bo‘yicha ichki tayyorgarlikdan o‘tgan xodimlar ulushi, %.	6,59%	5,14%	9,07%

⁶ Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi yo‘nalishida tashqi o‘quv kurslari bo‘lmagan.

Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi qamrab olingan xodimlar

GRI 403-8

Ko'rsatkich	2023	2024
i. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi qamrab olingan xodimlar soni.	5509	5509
Ish joyidagi mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimlarining qamrab olingan, foiz.	58%	58%
ii. Ichki auditdan o'tgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi tomonidan qamrab olingan xodimlar soni	5509	5509
Ichki auditdan o'tgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi tomonidan qamrab olingan xodimlar, foiz.	58%	58%
iii. Tashqi audit yoki tashqi sertifikatlangan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi bilan qamrab olingan xodimlar soni	5509	5509
Tashqi auditdan o'tgan yoki tashqi tomonidan sertifikatlangan ish joyidagi sog'liq va xavfsizlikni boshqarish tizimlarining foizi	58%	58%

“Navoiyuran” DKda ishlab chiqarish travmatizmi darajasi

GRI 403-9

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
Ro'yxatga olingan ishlab chiqarish jarohatlarining umumiy soni (baxtsiz hodisalar)	8	10	4
Og'ir oqibatlariga olib keladigan ishlab chiqarish jarohatlarining umumiy soni (o'limga olib keladigan holatlar bundan mustasno)	4	6	1
O'lim bilan yakun topgan halokatli baxtsiz hodisalarining umumiy soni	-	-	-
Ishlab chiqarishdagi jarohatlar chastotasi darajasi (LTIFR)	0,66%	0,70%	0,26%

Jiddiy jarohatlar chastotasi darajasi	0,33%	0,42%	0,07%
O'lim bilan yakunlangan daraja chastotasi	-	-	-
Xavfli vaziyatlarning chastota ko'effitsienti (NMFR)	н/д	н/д	н/д
Ro'yxatga olinadigan hodisalarning umumiy ko'effitsienti (TRIR)	0,13%	0,14%	0,05%
Ishlangan soatlarning umumiy miqdori	12 082 997	14 357 262	15 189 581

Mehnat faoliyati bilan bog'liq kasalliklar

GRI 403-10

Ko'rsatkich	2022	2023	2024
i. Ish joyida sog'lig'ining yomonligi sababli o'holatlari soni	0	0	0
Ish joyida sog'lig'ining yomonligi sababli o'lim holatlari darajasi	0	0	0
ii. Ish bilan bog'liq kasalliklarning ro'yxatga olingan holatlari soni	0	0	0
Ish bilan bog'liq kasalliklarning ro'yxatga olingan holatlar darajasi	0	0	0
iii. Kasbiy kasalliklarning asosiy turlari	0	0	0
iv. Ishlangan soatlar soni.	12 082 966,3	14 357 262,30	15 189 580,90